Правильно организованная и проводимая физическая подготовка немыслима без развития сознания военнослужащих, без воспитания у них преданности своему народу, любви к своей Родине. В ходе занятий по физической подготовке личный состав осознает, что физическое воспитание в нашем государстве считается важным средством формирования всесторонне развитой личности, а физическая культура и спорт рассматриваются не только как средство воспитания всего населения, но и как важный фактор повышения производительности труда, укрепления обороноспособности страны, что физическая подготовка является одним из важных факторов повышения боеспособности войск. Все военнослужащие систематически получают информацию об успехах армейских спортсменов на Республиканских и международных соревнованиях. На этой основе в процессе физической подготовки у каждого военнослужащего воспитывается чувство гордости за наш народ и его Вооруженные Силы, личной ответственности за защиту своей Родины.

Значение физической подготовки и спорта для формирования духовно-нравственных качеств военнослужащих в наиболее концентрированном виде проявляется в повышении их общественно-политической активности в воинском коллективе.

Исследования показывают, что военнослужащие, регулярно занимающиеся спортом, чаще выполняют постоянные общественные поручения и активнее участвуют в общественно-массовой работе, чем лица, пассивно относящиеся к спортивной деятельности.

Физическая подготовка – сфера педагогической деятельности, в которую кроме обучаемых вовлечено большое количество руководителей и организаторов самого различного ранга. Это - специалисты по физической подготовке (преподаватели, тренеры и судьи по спорту), многие командиры офицеры и сержанты (члены спортивного комитета и др).

Духовно-нравственное воспитание – это процесс, направленный на формирование у всего личного состава твердых моральных убеждений и навыков нравственного поведения. Совершенствование нравственных качеств военнослужащих в процессе физической подготовки и спорта подчиняется общим закономерностям воспитания, имея некоторые специфические особенности.

Как показывают опыт учебно-боевой подготовки войск и результаты специальных научных исследований, рационально организованный процесс физической подготовки оказывает большое положительное влияние на воспитание у военнослужащих таких качеств, как уважение к другим людям, трудолюбие, дисциплинированность, честность, правдивость, скромность, коллективизм, непримиримость к несправедливости и др.

Физическая подготовка и спорт располагают большими возможностями и применительно к воспитанию эстетических качеств военнослужащих. Красота движений хорошо подготовленных воинов-спортсменов, красота телосложения, осанки, радостное ощущение своего здоровья, силы, ловкости и других качеств, искусное владение своим телом, проявление высоких моральных качеств в спортивной борьбе, торжественность соревнований, спортивных праздников, вечеров и других мероприятий по физической подготовке и спорту способствуют воспитанию у личного состава чувства прекрасного, умения восхищаться красотой человеческих движений, формируют идеал физического совершенства человека, создают положительный эмоциональный настрой на активные занятия физическими упражнениями.

В процессе физической подготовки создаются благоприятные условия для воспитания у всех военнослужащих гуманного и уважительного отношения к своим сослуживцам. Это особенно характерно для процесса спортивной тренировки, спортивных и военно-спортивных состязаний. В основе спорта лежит борьба за достижение наивысших результатов в избранных видах физических упражнений. Эта борьба носит исключительно упорный характер и требует максимального напряжения физических и духовных сил человека, но в большинстве случаев она, по существу, является отражением здорового соперничества между соревнующимися.

Спортивный поединок по своей сути является не способом разрешения каких-либо противоречий между людьми, а способом их совместных специфических действий. Поэтому взаимоотношения соперников в процессе соревнований независимо от состава участников и их исхода, как правило, способствуют проявлению высоких морально-волевых и нравственных качеств.

В воспитании этих качеств у военнослужащих большое значение имеют также систематическое соблюдение всех норм спортивной этики и высокая требовательность со стороны руководителей.

Сильное воспитательное воздействие на военнослужащих оказывает необходимость регулярных занятий физической подготовкой и спортом.

Освоение всего арсенала предусмотренных программой упражнений, подготовка к выполнению разрядных норм и требований по спорту — это систематический и напряженный труд. Поэтому правильно организованный учебно-методический процесс обучения физическим упражнениям, приёмам и навыкам, способствует воспитанию у военнослужащих высокое трудолюбие.

На учебных занятиях по физической подготовке личный состав обычно действует в строго определенных условиях, регламентируемых уставами, наставлениями, приказами и распоряжениями командиров, правилами соревнований.

Выполнение всех физических упражнений, приемов и действий в точном соответствии с распоряжениями руководителя занятий и под непосредственным его контролем, строгое соблюдение установленной формы одежды способствуют воспитанию дисциплинированности.

Наряду с этим, во многих случаях военнослужащие выполняют физические упражнения и приёмы по заданию или в соответствии с установленными правилами без непосредственного контроля со стороны преподавателя, тренера или командира. Данные условия приучают их самостоятельно соразмерять свои действия и поступки с правилами и этикой, способствуют воспитанию честности и добросовестности.

При обучении физическим упражнениям и действиям в процессе учебных занятий, спортивной тренировки, массовых спортивных и военно-спортивных соревнований, военнослужащие выступают как единый воинский коллектив, в котором интересы каждого воина подчинены интересам всего подразделения. Успех каждого военнослужащего способствует выполнению задачи всем подразделением и, наоборот, неудача или недобросовестность одного могут нанести ущерб интересам всего подразделения. Это особенно наглядно проявляется при участии военнослужащих в лично-командных и командных соревнованиях, при выполнении физических упражнений в составе подразделения. Систематические действия военнослужащих в таких условиях способствуют воспитанию у них чувства коллективизма, воинской дружбы и товарищества.

Вывод. Таким образом, физическая подготовка обладает большими возможностями для формирования у военнослужащих морально-психологической и волевой готовности к учебно-боевой деятельности. Но для реализации этих возможностей в процессе обучения необходима научно обоснованная, целеустремленная и кропотливая профессиональная работа всех командиров и специалистов по физической подготовке и спорту.

Использованная литература:

1. В.В. Белорусова. Педагогика. «Физкультура и спорт», 1983 г.- 231 с.

2. А.С. Пуни психологические основы волевой подготовки в спорте. Л.,1977 г

3. Е.П. Ильин. Психология воли. СПб, 2000 г.-288с.

4. А.С. Макаренко. Воля, мужество, целеустремленность. Педагогические сочинения. Т.4. М. Педагогика. 1984 г. 400 с.

NEYROVASKULAR KONFLIKTNING MRT DIAGNOSTIKASI

Muhayyo Allayorova Olimjon qizi
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi tibbiy radiologiya yo‘nalishi magistranti.
allayorovamuhayyo98gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11423439

Annotatsiya: Neurovascular compression syndrome (NVCS) is a condition due to compression of the cranial nerve by adjacent vessels. They are typically caused by arteries that directly contact the cisternal portion of a cranial nerve. The transition zone between the central and peripheral myelin is considered the most vulnerable region for symptomatic neurovascular compression syndromes. The most common neurovascular compression syndromes are trigeminal neuralgia (TN; compression of CN V), hemifacial spasm (HFS; CN VII), vestibulocochlear neuralgia (CN VIII), and glossopharyngeal neuralgia (GN; CN IX). MRI scans are essential to diagnose the conflict. This provides information about the presence of neurovascular conflict and involved structures. MRI scans are essential to diagnose the conflict. This provides information about the presence of neuro-vascular conflict and involved structures.

Key words: neurovascular compression, transition zone, trigeminal neuralgia, hemifacial spasm, vestibulocochlear neuralgia, MRI.

Annotation: Neurovascular compression syndrome (NVCS) is a condition due to compression of the cranial nerve by adjacent vessels. They are typically caused by arteries that directly contact the cisternal portion of a cranial nerve. The transition zone between the central and peripheral myelin is considered the most vulnerable region for symptomatic neurovascular compression syndromes. The most common neurovascular compression syndromes are trigeminal neuralgia (TN; compression of CN V), hemifacial spasm (HFS; CN VII), vestibulocochlear neuralgia (CN VIII), and glossopharyngeal neuralgia (GN; CN IX). MRI scans are essential to diagnose the conflict. This provides information about the presence of neurovascular conflict and involved structures. MRI scans are essential to diagnose the conflict. This provides information about the presence of neuro-vascular conflict and involved structures.

Key words: neurovascular compression, transition zone, trigeminal neuralgia, hemifacial spasm, vestibulocochlear neuralgia, MRI.

Neyrovaskulyar siqilish sindromi bu- tomirlar tomonidan kranial nervlarning siqilishi bilan bog‘liq holatdir [1]. Ular odatda kranial nervning sisternal qismi bilan

bevosita aloqa qiladigan arteriyalardan kelib chiqadi. Markaziy va periferik miyelin o‘rtasidagi o‘tish zonasi simptomatik neyrovaskulyar siqilish sindromlari uchun eng zaif soha hisoblanadi. Anatomik jihatdan kranial nerv periferik va markaziy qismga bo‘linadi. Bosh suyagi nervning kirish nuqtasi (afferent tolalar uchun kirish nuqtasi, efferent tolalar uchun chiqish nuqtasi) va nervning Shvann hujayralari tomonidan miyelinlangan qismi o‘rtasidagi soha ildiz kirish zonasi (REZ-*root entry zone*) deb ta’riflanadi. REZ doirasida NVS sindromining rivojlanishi ko‘rsatkichi eng yuqori hisoblanadi [19]. Eng keng tarqalgan neyrovaskulyar siqilish sindromlari bular: trigeminal nevralgiya (TN; KN V ning siqilishi), gemifatsial spazm (GFS; KN VII), vestibulokoxlear nevralgiya (KN VIII) va glossofaringeal nevralgiya (GN; KN IX).

Jadval 1: Simptomatik neyrovaskulyar siqilish sindromlari ko‘rsatkichi [2].

KN V	**Trigeminal nevralgiya**	**4.3/100,000** **4–20/100,000**
KN VII	Gemifatsial spazm	0.77/100,000
KN VIII	Vestibular paroksizmiya	-
KN IX	Glossofaringeal nevralgiya	0.062/100,000 0.2–0.7/100,000

Trigeminal nevralgiya

Trigeminal nevralgiya bu- uch shoxli nervning bir yoki bir nechta tarmoqlarining tarqalishi bilan chegaralangan, bir tomonlama qisqa elektr toki urishi kabi takrorlanuvchi og‘riqlar bilan tavsiflanuvchi kasallik .

Uch shoxli nervning 3 ta asosiy tarmog‘i bor: ko‘z (V1), yuqori jag‘ (V2) va pastki jag‘ (V3). Yuqori jag‘ tarmog‘i (KN V_2) eng ko‘p, oftalmik tarmoq (KN V_1) esa eng kam zararlanadi [2,7].

TN ning uchrash ko‘rsatkichi har yili 100 000 kishiga taxminan 12,6 ni tashkil qiladi [10].

Bir nechta holatlar trigeminal nevralgiyaga olib kelishi mumkin, ammo eng keng tarqalgan sabab neyrovaskulyar siqilishdir[6].

Neyrovaskulyar siqilish o‘ziga xos radiologik mezonlar bilan belgilanadi:

Tegishli qon tomir deyarli har doim arteriya hisoblanadi

Nerv va qon tomir bir-biriga perpendikulyar yo‘naladi

Nervga tomirning bosim ta’siri mavjud

Qon tomir va nerv o‘rtasidagi aloqa nervning ildiz kirish zonasida sodir bo‘ladi.

KN V ning NVS sindromi odatda yuqoridan keladigan qo‘shni cho‘zilgan yuqori miyacha arteriyasi yoki pastdan keladigan oldingi pastki miyacha arteriyasi

tufayli yuzaga keladi, bunda yuqori miyacha arteriyasining uchrash ehtimoli yuqori (88% yolg‘iz yoki birgalikda)[8]. Kamdan-kam hollarda KN V bazilyar va vertebral arteriyalar tomonidan siqiladi. [2]

Trigeminal nevralgiya uchun klinik diagnostika mezonlari IASP (Og‘riqni o‘rganish bo‘yicha xalqaro assotsiatsiya) va ICHD/IHS (Bosh og‘rig‘i kasalliklarining xalqaro tasnifi / Xalqaro bosh og‘rig‘i jamiyati) tomonidan belgilanadi:

trigeminal nervning bir yoki bir nechta tarmoqlariga ta’sir qiluvchi, soniyaning bir qismidan ikki daqiqagacha davom etadigan paroksizmal og‘riq hujumlari

Og‘riq quyidagi xususiyatlardan kamida bittasini ko‘rsatadi:

kuchli, to‘satdan, yuzaki yoki sanchuvchi

qo‘zg‘atuvchi omillar tomonidan yuzaga keltiriladi

bemorlarda xurujlar o‘xshash

klinik jihatdan hech qanday nevrologik kasallik aniqlanmaydi

boshqa kasallik bilan bog‘liq emas, masalan, periapikal tish yallig‘lanishi[7].

1- holat . 40 yoshli ayol , chap tomonlama trigeminal nevralgiya



A ***B***

Ushbu og‘ir vaznli T2 tasvirda orqa chuqurchaning yuqori aniqlikdagi skanerlashnishi chap yuqori miyacha arteriyaning pastki yuzasida chap trigeminal asabni kesib o‘tayotganini aniq ko‘rsatadi. Ikkala tomonning trigeminal nervlari o‘rtasida sezilarli tafovut ko‘rinmaydi.

Chap uch shoxli nerv va yuqori miya arteriya tasvirlangan va ularning aloqasi aniq ko‘rsatilgan[7].

MRT miya tadqiqoti trigeminal nevralgiya bilan og‘rigan bemorlarda birinchi tanlovdir. MR aksial T2, T1, DWI, 3 D-FIESTA va MR angiografiyasi TOF ketma-ketligi qo‘llaniladi. Bu noyob tadqiqot bo‘lib, unda klassik trigeminal nevralgiya va uch shoxli nervning NVS o‘rtasidagi bog‘liqlik baholanadi[13].

Mikrovaskulyar dekompressiya (MVD) NVS ni etiologik darajada hal qilishi mumkin va NVS tufayli kelib chiqqan TN uchun samarali jarrohlik davolash usulidir[9]. MVD - bu zarar yetkazuvchi tomirni nervdan ajratishga asoslangan tanlov davolashdir. Bu muolajalar xavfsiz bo‘lib, adabiyotlarga ko‘ra muvaffaqiyatning yuqori ko‘rsatkichi 70-90 % oralig‘ida[11].


Gemifatsial spazm

Gemifatsial spazm (GFS) yuzning bir tomonida ipsilateral yuz nervi (yettinchi kranial nerv) tomonidan innervatsiya qilinadigan yuz mushaklarining paroksizmal, beixtiyor burishishi bilan tavsiflanuvchi holatdir[12]. Qisqa, takrorlanuvchi burishishlar ko‘zlarning to‘satdan va beixtiyor yopilishiga olib keladi va keyin yonoqlarga, og‘izga va pastki bo‘yinga tarqaladi[1].

Aksariyat hollarda 40 yoshdan oshganlarda va 2:1 nisbatda ayollarda ko‘p uchraydi[14].

Ko‘pincha bu holat ko‘zning aylana mushaklarining og‘riqsiz spazmlari bilan boshlanib, u asta-sekin tarqalib, yuzning ko‘p qismini qamrab oladi, lekin ko‘pincha peshona mushaklari zararlanmaydi. Babinskiy-2 belgisi sifatida tanilgan spazm paytidagi ipsilateral qoshning ko‘tarilishi va ko‘zning yumilishi , bu holat uchun juda o‘ziga xos belgi hisoblanadi[14].

GFSning eng keng tarqalgan etiologiyasi - bu miya ustunidan chiqadigan yuz nervining ektatik yoki anormal arteriya tomonidan siqilishidir[12]. Chastotasining kamayishi tartibida eng ko‘p uchraydigan tomirlar oldingi pastki miyacha arteriyasi, orqa pastki miyacha arteriyasi va vertebral arteriyadir[14]. Bundan tashqari, bu arteriyalarning anevrizmalari, arteriovenoz malformatsiyalar, tomirlar va serebellopontin burchak hajmli hosilalari vaqti-vaqti bilan yuz nervini ildiz kirish qismida siqib bir tomonlama yuz spazmini keltirib chiqarishi mumkin[15].



2-holat. Bemor shikoyati: chap tomonlama yuzning spazmi.

E’tibor bering, chap vertebral arteriya nerv ildizi kirish zonasida yuz nervi bilan aloqa qiladi [16]

Vestibulyar paroksizmiya

Vestibulyar paroksizmiya (VP) kam uchraydigan epizodik periferik vestibulyar kasallik bo‘lib , eshitish va vegetativ simptomlar bilan yoki ularsiz bosh aylanishi yoki muvozanat buzilishining o‘tkir qisqa muddatli xurujlariga olib keladi[19].

Vestibulyar paroksizmiya - sakkizinchi kranial nervning neyrovaskulyar siqilishi natijasida yuzaga keladigan kam uchraydigan sindrom[17]. Vestibulokoxlear nerv sakkizinchi kranial nerv bo‘lib, eshitish apparati (koxlear nerv) va labirintdan (vestibulyar nerv) sensor ma’lumotni miya ustuniga olib boradi.

Vestibulyar paroksizmiya uchun klinik diagnostika mezonlari Barani Jamiyatining Tasniflash Qo‘mitasi tomonidan quyidagicha tasniflangan:

kamida o‘nta spontan bosh aylanish xuruji (aylanuvchi yoki aylanmaydigan)
ehtimoliy tashxis: kamida beshta xuruj
davomiyligi 1 daqiqadan kam
taxminiy tashxis: 5 daqiqadan kam
stereotipli fenomenologiya
karbamazepin/okskarbazepin bilan davolashga javob borligi
boshqa hech qanday tashxis muvofiq kelmaydi [18].

MRT - neyrovaskulyar siqilish joyini aniqlash uchun tanlov tasvirlash usulidir. Xususan, barqaror holatdagi konstruktiv interferensiya, ingichka kesimli T2 ketma-ketlik va 3 D-TOF ketma-ketligi mos ravishda vestibulyar nerv va konfliktga sabab bo‘luvchi qon tomirlarini kuzatish uchun eng foydali ekanligi aniqlandi[18].

Glossofaringeal nevralgiya

Glossofaringeal nevralgiya (GN) - to‘qqizinchi kranial nervning sensor tarmoqlarida uchraydigan kamdan kam kuzatiladigan og‘riq sindromidir. ICHD-3 (Bosh og‘rig‘i kasalliklarining xalqaro tasnifi - 3) tasnifiga ko‘ra, glossofaringeal nevralgiya - glossofaringeal nerv tarmoqlarida (jag‘ burchagi, quloq, bodomsimon chuqurchalar va til asosi) kuzatiladigan qisqa epizodik bir tomonlama o‘tkir va keskin xarakterli, to‘satdan boshlanadigan og‘riq bilan tavsiflanadi.

Og‘riq epizodik namoyon bo‘ladi va kuchli bo‘lishi mumkin. Ba’zida chaynash, yo‘talish, kulish, gapirish yoki yutinish tufayli paydo bo‘lishi mumkin[21].

Glossofaringeal nevralgiya ko‘pincha 50 yoshdan oshgan bemorlarda va ayollarda ko‘proq uchraydi [21].

GN NVS tomonidan chaqiriladi, biroq kam hollarda travma, neoplazmalar, infektsiya ham sabab bo‘lishi mumkin [2].

MRT tekshiruvi konfliktni aniqlash uchun zarur usuldir. Bu neyro-tomir konfliktlari va atrof tuzilmalar haqida ma’lumot beradi[11].

Magnit-rezonans tomografiya (MRT) interkranial anatomiyani aniq ko‘rsatishi mumkin va ko‘p yillar davomida MVD dan oldin NVSni aniqlash uchun ishlatilgan. Dastlab, NVSni aniqlash uchun muntazam MRT ketma-ketliklari ishlatilgan. MRT texnologiyasining rivojlanishi bilan NVS uchun MRTga asoslangan diagnostik tasvirlash usullarining aniqligi asta-sekin yaxshilanmoqda. Eng ishonchli usullardan biri bu uch o‘lchovli magnit-rezonans angiografiya (3D TOF MRA)[9].

MRA qon tomir bo‘shliqlarini kuzatish uchun ishlatiladi. 3D-TOF MRA qon oqimining kontrastini va statik holatini oshirish orqali qon oqimi tasvirlarini yaxshilaydi. 3D-FIESTA va 3D-TOF MRA parallel anatomik skanerlash qon oqimi bo‘lmasa ham tomirlarning tashqi qismini tasvirlash orqali tasvirlarini to‘ldiradi va miya suyuqligi bilan o‘ralgan vertebrobazilar va asab tizimlarining tasvirlarini ko‘rsatadi. 3D-FIESTA tasvirlarida kranial nervlar va qon tomirlari qora, 3D-TOF MRA tasvirlarida arteriyalar yorqin, nervlar esa teng signalli holda namoyon bo‘ladi[10].

Kalit so‘zlar:
REZ(root entry zone)- ildiz kirish zonasi
NVS- neyrovaskulyar siqilish
KN- kranial nerv
TN- trigeminal nevralgiya
MVD- mikrovaskulyar dekompressiya
GFS- gemifatsial spazm
VP- vestibulyar paroksizmiya
GN-glossofaringeal nevralgiya
MRT- magnit rezonans tomografiya
MRA- magnit rezonans angiografiya

Foydalanilgan adabiyotlar:

Xiaohua Shi, Xin Zhang, Lei Xu, Zhongxin Xu. Neurovascular compression syndrome:Trigeminal neuralgia, hemifacial spasm, vestibular paroxysmia, glossopharyngeal neuralgia, four case reports and review of literature . Department of Neurology, China-Japan Union Hospital of Jilin University, Changchun 130033, China https://doi.org/10.1016/j.clineuro.2022.107401

S.Haller, L.Etienne, E.Kövari, A.D.Varoquaux, H.Urbach. Imaging of Neurovascular Compression Syndromes: Trigeminal Neuralgia, Hemifacial Spasm, Vestibular Paroxysmia, and Glossopharyngeal Neuralgia. AJNR 2016, 37 (8) 1384-139

Wilkins RH. Neurovascular compression syndromes. (1985) Neurologic clinics. 3 (2): 359-72.

Bartosz Szmyd, Julia Sołek, Maciej Błaszczyk, Jakub Jankowski, Paweł P. Liberski, Dariusz J. Jaskólski, Grzegorz. Pubmed The Underlying Pathogenesis of Neurovascular Compression Syndromes: A Systematic Review .Published online 2022 Jul 4. doi: 10.3389/fnmol.2022.923089

Peker S, Kurtkaya O, Uzu¨n I, et al. Microanatomy of the central myelin-peripheral myelin transition zone of the trigeminal nerve. Neurosurgery 2006;59:354 –59

Loes Braun, Carolien Toxopeus and Robin SmithuisAntoni van Leeuwenhoek and OLVG hospital in Amsterdam and the Alrijne hospital in Leiderdorp, the Netherlands Publication date 01-09-2002

7. Di Muzio B, Ibrahim D, Sharma R, et al. Trigeminal neuralgia. Reference article, Radiopaedia.org (Accessed on 23 Apr 2024). https://radiopaedia.org/articles/33200

8. Sindou M, Howeidy T, Acevedo G. Anatomical observations during microvascular decompression for idiopathic trigeminal neuralgia (with correlations between topography of pain and site of the neurovascular conflict): prospective study in a series of 579 patients. Acta Neurochir (Wien) 2002;144:1–12; discussion 12–13 CrossRef Medline

9. Chen Liang, Ling Yang , Wilfried Reichardt , Binbin Zhang , Ruichun Li Different MRI-based methods for the diagnosis of neurovascular compression in trigeminal neuralgia or hemifacial spasm: A network meta-analysis

10.Liu Dezhong, Shi Pengfei, Li Kai, Guo Yazhou, Liu Xiao, Wang Changwei, Liu Yu, He Bing, Zhang Xiaoyang Preoperative visualization of neurovascular contact with 3D-FIESTA combined with 3D-TOF MRA to guide microvascular decompression surgery planning https://doi.org/10.26599/JNR.2020.9040005

11. Lukasz Borucki[1], Witold Szyfter, Maciej Wróbel, Piotr Sosnowski [Neurovascular conflicts]

12. Hemifacial Spasm Tripti R. Chopade; Forshing Lui; Pradeep C. Bollu.

13. Anwaretal. Egypt J Radiol Nucl Med (2022) 53:66 https://doi.org/10.1186/s43055-022-00746-8 A study to evaluate neurovascular

confict of trigeminal nerve intrigeminal neuralgia patients with the help of 1.5 T MR imaging

14. Gaillard F, Knipe H, Sharma R, et al. Hemifacial spasm. Reference article, Radiopaedia.org (Accessed on 30 Apr 2024) https://doi.org/10.53347/rID-1438

15. Hemifacial spasm: MR imaging features. R Tash, J DeMerritt, G Sze and D Leslie http://www.ajnr.org/content/12/5/839 AJNR Am J Neuroradiol 1991, 12 (5) 839-842

16. Gaillard F, Hemifacial spasm. Case study, Radiopaedia.org (Accessed on 30 Apr 2024) https://doi.org/10.53347/rID-2617

17. Vestibular paroxysmia: Clinical features and imaging findings; a literature review Author links open overlay panelAndreas Karamitros, Theodosis Kalamatianos, George Stranjalis, Evangelos Anagnostou

18. Sharma R, Vestibular paroxysmia. Reference article, Radiopaedia.org (Accessed on 05 May 2024) https://doi.org/10.53347/rID-93264

19. MRI and neurophysiology in vestibular paroxysmia: contradiction and correlation Christoph Best,1,2 Joachim Gawehn,3 Heidrun H Krämer,4 Frank Thömke,2 Tugba Ibis,2 Wibke Müller-Forell,3 Marianne Dieterich

20. **Glossopharyngeal Neuralgia** Rutvij J. Shah; Devang Padalia.

21 Wahba M, Buemi F, Bell D, et al. Glossopharyngeal neuralgia. Reference article, Radiopaedia.org (Accessed on 05 May 2024) https://doi.org/10.53347/rID-7174.

O‘ZBEKISTONNING SIYOSIY TARAQQIYOTI

Dilobar Karimboyeva To‘rayevna
Toshkent shahar Shayxontohur tuman Kasb-hunar maktabi Tarix fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11423461

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi, 1991-yilda sobiq Sovet Ittifoqi parchalanishi ortidan mustaqillikka erishgan davlat, o‘tgan o‘ttiz yil ichida o‘zining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirgan. Ushbu maqolada O‘zbekistonning siyosiy taraqqiyoti, uning tarixi, hozirgi holati va kelajak istiqbollari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mustaqillikning dastlabki yillari, Siyosiy islohotlar va Shavkat Mirziyoyev davri, Kelajak istiqbollari, Davlat boshqaruv tizimini isloh qilish, Inson huquqlari va matbuot erkinligi, iqtisodiy islohotlar, tashqi siyosat.

Mustaqillikning dastlabki yillari

1991-yil 1-sentyabrda O‘zbekiston mustaqilligini e’lon qilganidan so‘ng, Islom Karimov mamlakatning birinchi prezidenti sifatida saylandi. Karimovning hokimiyati davrida, asosan, davlatni barqarorlashtirish va iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsa-da, siyosiy erkinliklar cheklangan edi. Siyosiy muxolifat va matbuotga nisbatan qat’iy nazorat mavjud edi, va davlatning avtoritar boshqaruvi kuchli edi.

Siyosiy islohotlar va Shavkat Mirziyoyev davri

Islom Karimovning 2016-yilda vafotidan so‘ng, Shavkat Mirziyoyev prezidentlikka saylandi. Mirziyoyevning hokimiyatga kelishi bilan mamlakatda sezilarli siyosiy islohotlar boshlandi. U O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasini kuchaytirish, iqtisodiyotni liberallashtirish va inson huquqlarini yaxshilash borasida bir qator qadamlar tashladi.

Mirziyoyevning islohotlari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi:

1. Davlat boshqaruv tizimini isloh qilish: Hokimiyatning markazlashtirilgan tizimidan chekinish va mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlarini kengaytirish. Bu hududiy muammolarni tezkor hal qilishga yordam berdi.

2. Inson huquqlari va matbuot erkinligi: Inson huquqlarini himoya qilish borasida muhim qadamlar tashlandi, jumladan, siyosiy mahbuslarning ozod qilinishi va matbuotga nisbatan cheklovlarning yumshatilishi.

3. Iqtisodiy islohotlar: Iqtisodiyotni liberallashtirish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish. Valyuta kursining erkinlashtirilishi va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash bu yo‘nalishda muhim qadamlar bo‘ldi.

4. Tashqi siyosat: O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarini yaxshilash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashqi siyosat yuritildi. Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegaralardagi nizolar hal qilindi va savdo-sotiq hajmi oshirildi.

Kelajak istiqbollari

O‘zbekistonning kelajakdagi siyosiy taraqqiyoti bir qancha omillarga bog‘liq. Davlat boshqaruvida davom etayotgan islohotlar, xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, siyosiy erkinliklar va inson huquqlarining yanada kengaytirilishi, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish va sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish O‘zbekistonning demokratik davlat sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

1. Siyosiy ochiqlik: Matbuot erkinligi kuchaytirildi, jurnalistlar va blogerlar faoliyati jonlandi. Ommaviy axborot vositalari orqali ochiq muhokamalar o‘tkazila boshlandi.

2. Inson huquqlari: Inson huquqlari himoyasi bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kuchaytirildi. Siyosiy mahbuslarning ko‘pchiligi ozod etildi.

3. Sud-huquq tizimi islohotlari: Sud tizimi mustaqilligini ta’minlash va adolatli sudlovni rivojlantirish uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

4. Iqtisodiy islohotlar: Iqtisodiyotni liberallashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng ko‘lamli islohotlar o‘tkazildi.

5. Hududiy va xalqaro munosabatlar: O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan aloqalarni yaxshiladi, xalqaro miqyosda o‘z pozitsiyasini mustahkamladi. Bu jarayonda Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik kuchaytirildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston mustaqillikdan so‘ng o‘tgan yillar davomida katta siyosiy o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Shavkat Mirziyoyevning islohotlari mamlakatni yangi bosqichga olib chiqdi, va bu islohotlarning davom ettirilishi O‘zbekistonning yanada barqaror va farovon bo‘lishiga umid beradi.

O‘zbekiston xalqaro maydonda ham o‘z o‘rnini mustahkamlab, demokratik tamoyillar asosida rivojlanish yo‘lida qadam tashlamoqda. Bu jarayonda siyosiy barqarorlik va islohotlar davomiyligi muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlari va intervyulari - Prezident matbuot xizmati tomonidan e’lon qilingan rasmiy manbalar.

2. World Bank Reports on Uzbekistan - Jahon Banki tomonidan e’lon qilingan O‘zbekiston iqtisodiyoti va islohotlari bo‘yicha hisobotlar. (https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan)

3. International Crisis Group, "Uzbekistan: Reform and Stability" - Xalqaro inqiroz guruhining O‘zbekistondagi islohotlar va barqarorlik haqidagi hisobotlari. (https://www.crisisgroup.org/europe-central-asia/central-asia/uzbekistan)

4. Human Rights Watch 2023 Report on Uzbekistan - Xalqaro inson huquqlari tashkilotining O‘zbekistondagi inson huquqlari holati bo‘yicha hisobotlari. (https://www.hrw.org/world-report/2023/country-chapters/uzbekistan)

5. Karimov, I.A. "O‘zbekiston: Milliy mustaqillik, iqtisod, siyosat, mafkura" - Islom Karimovning O‘zbekiston mustaqilligi va siyosiy taraqqiyoti haqidagi kitoblari.

6. Mirziyoyev, Sh.M. "Strategiya Yangi O‘zbekiston" - Shavkat Mirziyoyevning islohotlar va yangi siyosiy yo‘nalishlari haqida yozilgan asarlari.

ПРОГРАММНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ, УПРАВЛЯЮЩЕЕ ПРОЦЕССОМ УЧЕТА ХРАНЕНИЯ ПРОДУКЦИИ НА СКЛАДЕ

Толибжон Анарбоев
Гулистанский государственный университет, студент магистратуры «Информационные системы»
E-mail: anorboyevtolibjon2000@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11423511

Аннотация. В упомянутой статье говорится о возможности программного обеспечения, управляющего процессом учета хранения продукции на складе.

Ключевые слова: Складской логистики, управление складом, складской учет, информационной системе, клиенты, техника, персонал, места хранения.

Annotation. The mentioned article talks about the possibility of software that manages the process of accounting for the storage of products in a warehouse.

Key words: Warehouse logistics, warehouse management, warehouse accounting, information system, clients, equipment, personnel, storage locations.

Логистика - это комплексная научная дисциплина, которая занимается управлением потоками материалов, информации и услуг от поставщика до конечного потребителя. Она включает в себя планирование, организацию, контроль и регулирование всех логистических процессов с целью оптимизации затрат и повышения эффективности.

Складская логистика является важной частью общей логистической системы. Она фокусируется на управлении движением товаров и материалов внутри складского комплекса.

Основные задачи складской логистики:

Оптимизация процессов приема, хранения, обработки и отгрузки товаров на складе;

Рациональное использование складских мощностей и площадей;

Повышение скорости и точности обработки грузов;

Минимизация затрат на складские операции.

Ответственное хранение – это сравнительно новая услуга, которая широко распространена на рынке услуг логистики, наряду с арендой склада. В отличие от аренды склада клиент оплачивает только фактически занимаемый грузом объем, а не всю арендуемую площадь, что позволяет экономить финансовые

ресурсы. Именно склады ответственного хранения можно рассматривать как пример активного использования всех элементов складской логистики. Это объясняется высокой интенсивностью товарооборота, оказанием широкого круга услуг, связанных с хранением, необходимостью наиболее эффективного использования всех мощностей склада с максимальной отдачей, ведь это формирует основную прибыль предприятия.

В информационной системе для такого склада должны быть предусмотрены все стандартные возможности системы управления складом:

1. Приемка товара и материалов:

формирование приемочных документов;

проверка соответствия и корректировка данных.

2. Складирование:

настраиваемые правила складирования для максимизации использования складского пространства и/или производительности складских операций;

настраиваемое создание заданий по складированию.

3. Управление заказами и группами заказов:

комплексная группировка заказов;

объединение и разделение партий товаров.

4. Погрузка:

создание сопроводительных документов;

создание заданий по отгрузке.

5. Управление хранением и производственными мощностями:

определение точного места ячейки хранения;

перемещение между местами хранения.

6. Управление человеческими ресурсами:

учет рабочего времени;

отслеживание заданий персоналу.

Разработанное программное обеспечение имеет архитектуру «клиент-сервер». Пользователь взаимодействует с клиентской частью системы, которая разработана на языке программирования C# в среде программирования Microsoft Visual Studio 2012. На сервере развернута база данных, которая наполнена таблицами, содержащими всю необходимую ин-формацию для автоматизации управления складом. Обработка данных осуществляется с помощью хранимых процедур. В роли сервера выступает СУБД Microsoft SQL Server 2010.

Основной функционал программного обеспечения:

1. Ведение справочников: клиенты, техника, персонал, места хранения.
2. Приемка товара на склад временного хранения.
3. Размещение товара на постоянное хранение.
4. Перемещение товара внутри склада.
5. Формирование заданий персоналу.
6. Отслеживание выполнения заданий.

Для начала работы с программой пользователю необходимо пройти процедуры идентификации и аутентификации. Программный продукт ориентирован на работу трех типов пользователей:

менеджер по работе с клиентами склада – пользователь, обладающий правами просмотра, добавления и изменения данных о клиентах, оформления заказов на хранение, формирования договоров на хранение;

диспетчер – пользователь, который регулирует процессы на складе, оформляя задания персоналу, отслеживая свободные места хранения на складе, а также свободных сотрудников и технику;

кладовщик – пользователь, отслеживающий выполнение заданий персоналом непосредственно в складских помещениях и передающий информацию о статусе задания в базу.

После того как пользователь успешно прошел процедуру авторизации он переходит к главной форме, вид которой зависит от его роли (рис. 1; 3; 4).




Рис. 1. Главное рабочее окно менеджера по работе с клиентами.

Как видно из рисунка 1 форма менеджера по работе с клиентами позволяет оформлять заказ на хранение, изменять данные о клиенте,

осуществлять поиск клиента по ИНН, а также просматривать историю заказов по выбранному клиенту с указанием даты заказа и содержанием заказа. При оформлении нового заказа у менеджера существует возможность добавить нового клиента, если такового еще нет в базе данных. Иначе менеджер может просто выбрать клиента из предложенного списка. Помимо данных о клиенте при оформлении нового заказа также указываются данные о товаре и сроке хранения (Рис. 2). После оформления заказа у менеджера есть возможность автоматически сформировать и вывести на печать договор ответственного хранения, в котором будут зафиксированы реквизиты клиента и данные о заказе. Далее формируются и печатаются штрих коды для каждого контейнера для хранения.

Для заполнения справочника клиентов могут использоваться Microsoft Excel-файлы.




Рис. 2. Главное рабочее окно «Оформление заказа» товара.

На форме диспетчера отображаются таблицы «Места хранения», «Заказы», «Техника» и «Сотрудники» (Рис. 3).




Рис. 3. «Диспетчер» — главное рабочее окно сервера.

Просматривая данные таблицы, диспетчер отслеживает работу склада. Основной задачей пользователя в лице диспетчера является формирование заданий персоналу. Для оформления нового задания диспетчер нажимает на кнопку «Добавить задание», после чего ему необходимо заполнить открывшуюся форму. На форме задания фиксируются штрих коды контейнеров и номер зоны, номер стеллажа, номер яруса, номер ячейки, куда нужно эти коробки разместить. Диспетчеру также необходимо указать сотрудника и номер технического средства, которые будут участвовать в процессе размещения. Для удобства занятый и свободный персонал и техника отображаются разными цветами. Также диспетчер имеет возможность следить за наличием и количеством свободных ячеек нужного размера, нажав на кнопку «Поиск свободных ячеек».

На форме кладовщика отображаются задания, сформированные диспетчером. Все задания имеют один из трех возможных статусов: «Выполнено», «В процессе», «Не назначено». Для удобства и наглядности каждый тип имеет свой цвет в таблице заданий. Информация о заданиях обновляется каждые 60 секунд. Кладовщик следит за поступившими заданиями и оповещает ответственных за выполнение задания сотрудников, а затем изменяет статус зада-ния на соответствующий. После выполнения задания сотрудником кладовщик заносит ин-формацию об этом в базу, указывая точное время завершения и конечные номера ячеек хранения.




Рис. 4. Главное рабочее окно Складского делопроизводителя.

В заключение следует отметить, что разработанное программное обеспечение снижает материальные затраты на организацию процессов на складе ответственного хранения, кроме того, сокращается время обработки документов, позволяет эффективно использовать складские мощности, повышает скорость обработки грузов.

Использованная литература:

1. Логистика снабжения: учебник для бакалавриата и магистратуры/ В.И.Сергеев, И.П.Эльяшевич; под общ. ред. В.И.Сергеева.—2-е изд., перераб. и доп.—М.: Издательство Юрайт, 2014.—523 с.—Серия: Бакалавр и магистр. Академический курс.-ISBN 978-5-9916-4129-6.

2. Курнякова Т.А., Красноплахтова Л.И. Характеристика и критерии отбора инвестиционных проектов // Сборник материалов III-международной научно-практической конференции«Экономика и управление: актуальные вопросы теории и практи-ки»,2016,с.182-186.

3. Пахомов Б.И. C/C++ и MS Visual C++ 2012 для начинающих. — Санкт-Петербург.: БХВ-Петербург, 2013.-512 с:ил.

4. Пахомов Б.И. C/C++ и MS Visual C++ 2012 для начинающих. 2-е изд., перераб. и доп. — Санкт-Петербург.: БХВ-Петербург, 2015.-528 с:ил.

5. Шилдт, Герберт. C# 4.0: полное руководство.: Пер. с англ. — М.: ООО "И.Д. Вильяме", 2011.

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN JINSIY ZO‘RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING SUBYEKTIV TOMON TAHLILI

Xadichaxon Abdurasulova Ravshanbek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
e-mail: xadichaabdurasulova06@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11423533

Annotatsiya: Mazkur maqolada xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning subyektiv tomon xususiyatlari bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan. Muallif tomonidan mazkur turdagi jinoyatlar faqat to‘g‘ri qasddan sodir etilishi asoslab berilgan. Ammo ayrim hollarda xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan moddalarning og‘irlashtiruvchi qism bandlarida keltirilgan holatlar ehtiyotsizlik orqasidan ham sodir etilishi mumkinligi to‘g‘risidagi masalalar olimlar fikrlari asosida tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 118 va 119-moddasi 3-qismi “a”-bandida nazarda tutilgan “voyaga yetmagan shaxsga nisbatan” jinoyat sodir etishda aybdor tomonidan jabrlanuvchining yoshini bilgan yoki bilmaganlik faktining jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’siri qay darajada ekanligi batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur masala yuzasidan muallifning shaxsiy fikrlari bayon etilgan. Bundan tashqari, xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning asosan aybdor tomonidan ko‘p hollarda jinsiy xohishlarini qondirish motiv va maqsadlarida sodir etilishi to‘g‘risidagi fikrlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: zo‘rlik, jinsiy zo‘rlik, xotin-qizlarga nisbatan zo‘rlik, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan, xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar.

Аннотация: В данной статье проанализированы вопросы, связанные с субъективными особенностями преступлений, совершаемых с применением сексуального насилия в отношении женщин. Автор обосновывает, что данный вид преступлений совершается исключительно прямым умышленным путем. Но вопросы о том, что в отдельных случаях ответственность за преступления, совершенные с применением сексуального насилия в отношении женщин, может быть возложена и на отягчающие обстоятельства, перечисленные в пунктах отягчающих обстоятельств установленных статей, были проанализированы на основе мнений ученых. “В отношении

несовершеннолетнего”, предусмотренного пунктом “а” части 3 статей 118 и 119 Уголовного кодекса Республики Узбекистан виновным в совершении преступления освещается влияние факта знания или незнания возраста потерпевшего на квалификацию преступления. Также изложено личное мнение автора по данному вопросу. Кроме того, были проанализированы мнения о том, что преступления, совершаемые с применением сексуального насилия в отношении женщин, в большинстве случаев совершаются виновным по мотивам и целям удовлетворения своих сексуальных желаний.

Ключевые слова: насилие, сексуальное насилие, насилие в отношении женщин, преступления против несовершеннолетних, совершенные с использованием сексуального насилия в отношении женщин.

Abstract: This article analyzes the issues related to the subjective characteristics of crimes committed with the use of sexual violence against women.

The author substantiates that this type of crime is committed exclusively by direct intentional means. But the questions that in some cases responsibility for crimes committed with the use of sexual violence against women can also be attributed to the aggravating circumstances listed in the aggravating circumstances paragraphs of the established articles were analyzed based on the opinions of scientists. Section 118 and 119 (3) of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan provide detailed coverage of the effect of the fact of knowing or not the age of the victim on the qualification of the crime by the guilty of committing a crime “in relation to a minor” provided for by paragraph A. The author’s personal opinion on this issue is also presented. In addition, opinions were analyzed that crimes committed with the use of sexual violence against women, in most cases, are committed by the perpetrator for reasons and purposes of satisfying their sexual desires.

Keywords: violence, sexual violence, violence against women, crimes against minors, sexual violence against women.

Kirish

Bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish, ular uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini, shu jumladan og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini ta’minlash juda ham dolzarb muammo hisoblanadi.

Xotin-qizlarning haq-huquqlarini ta’minlash, ularni zo‘ravonlikdan himoyalashga qaratilgan ishlar muayyan vaqt va tadbirlar bilan chegaralanib qolmaydi.

Shu sababli ham yurtimizda ayollar huquqlarini himoya qilish, ularni zo‘rlik va zo‘ravonlikdan himoya qilish yuzasidan mavjud qonunchilikni takomillashtirish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan turli xil chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Jumladan, 2023-yil 11-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 829-sonli Qonuni imzolandi.

Hujjat bilan 18 yoshga to‘lmagan shaxsni jinsiy aloqada bo‘lish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq holda jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik jinoyatini sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish chorasi qo‘llanilmasligi va shunga o‘xshash jinoyat qonunchiligimizga o‘nlab o‘zgartirishlar kiritildi.

Xotin-qizlarga nisbatan zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi islohotlar o’tkazilishi va qonunchilik normalari takomillashtirilishiga qaramay, bu turdagi jinoyatlar sodir etilishi ko‘payib bormoqda. 2021-2023-yillarda birgina nomusga tegish va nomusga tegishga urinish holatlari yuzasidan statistik ma’lumotlarga nazar soladigan bo‘lsak, mazkur jinoyat 1,5 baravarga (2021-383, 2022 – 361, 2023 – 452) o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin [1].

Bu ko‘rsatkichlar esa, o‘z navbatida xotin-qizlar huquqlari yetarlicha himoya qilinmayotganligi va qonunchiligimizda mavjud normalarni takomillashtirish zaruriyati mavjudligidan dalolat beradi.

Shu sababli ham xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning jinoiy-huquqiy belgilarini to‘g‘ri aniqlash, jinoyatchining qasdini to‘g‘ri belgilash va o‘xshash jinoyatlardan farqlash uchun xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning subyektiv tomon belgilarini batafsil tahlil qilib, uni o‘rganishimiz lozim.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqoladagi mavzuni tadqiq qilishda qonunchilik normalari va huquqshunos olimlar A.I.Rarog, A.Motin, A.A.Bimbinov, R.S.Danelyana, O.A.Gonochenko, E.Kotelnik, M.A.Voronin, P.S.Yani, R.E.Zaton va V.G.Romanovlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullari qo‘llandi.

Tadqiqot natijalari

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda aybdorning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan ichki ruhiy munosabati hisoblanuvchi jinoyatning subyektiv tomonini aniqlash zarur. Shu sababli ham jinoyat huquqida qilmishning subyektiv tomonini o‘rganishga katta e’tibor beriladi.

Jinoyatning subyektiv tomonini aniq belgilash shaxsning ayb darajasini hisobga olgan holda adolatli jazo tayinlashga va jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishga asos bo‘ladi. Shu tufayli ham xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning subyektiv tomoni bilan bog‘liq masalaning to‘g‘ri hal qilinishi jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish, asosiysi obyektiv belgilariga ko‘ra o‘xshash jinoyatlardan farqlash imkonini beradi.

Jinoyatning subyektiv tomoni aybdor sodir etgan qilmishiga ruhiy munosabatining tavsifiga binoan uch belgini o‘z ichiga oladi: ayb, motiv va maqsad.

Ayb – sodir etilgan barcha jinoyatlarda mavjud bo‘lishi shart bo‘lgan element hisoblanadi. Shu sababli xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning subyektiv tomon tahlilini undan boshlaganimiz ma’qul. Aybning mazmuni aybdorning muayyan jinoyatga bo‘lgan qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ruhiy munosabatini tashkil etadi.

Xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlar qasddan sodir etiladigan jinoyatlar hisoblanadi. Mazkur jinoyatlarning obyektiv tomondan tuzilishi va uni amalga oshirilishining o‘zi ehtiyotsizlik natijasida sodir etilishini inkor etadi. Chunki aybdor ehtiyotsizlik orqasidan jabrlanuvchiga zo‘rlik ishlatib, qo‘rqitib yoki ojizligidan foydalanib jinsiy ehtiyojini qondirishi yoki 16 yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan zo‘rlik ishlatib uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 118 va 119-moddalarida keltirib o‘tilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etayotgan shaxs jabrlanuvchiga nisbatan zo‘rlik ishlatib, qo‘rqitib yoki ojizligidan foydalanib jinsiy aloqaga kirishayotganligini anglaydi, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko‘zi yetadi va uning yuz berishini istaydi. Shu sababdan xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni tahlil qilish orqali aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 118, 119, 121 va 129-moddalarida nazarda tutilgan qilmishlar faqat to‘g‘ri qasddan sodir etiladi.

Ammo ba’zi tadqiqotchilar bu turdagi jinoyatlar egri qasddan ham sodir etilishi mumkin deb hisoblaydi. A.I.Rarog bu fikrga qo‘shilmaydi va formal tarkibli jinoyatlarda egri qasdning mavjud bo‘lishi mumkin emas deb ta’kidlaydi.

A.Motin bu turdagi jinoyatlar tuzilishi jihatidan formal tarkibli jinoyatlar hisoblanadi va ularni sodir etish natijasida biror bir oqibat kelib chiqishi shart emas, shu sababli bu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan modda dispozitsiyasida nazarda tutilgan xatti-harakat faqat to‘g‘ri qasddan sodir etilishi mumkin, deb keltirib o‘tadi [3].

Biroq jinoyatlarning faqat to‘g‘ri qasddan sodir etilishi to‘g‘risidagi yondashuv xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan moddalarning og‘irlashtiruvchi qism bandlarida keltirilgan holatlar bilan hamisha ham muvofiqlik kasb etmaydi.

Misol uchun, nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojini g‘ayritabiiy usulda qondirish jinoyatini sodir etish natijasida jabrlanuvchiga OIV/OITS yuqadigan bo‘lsa, bu qilmish aybdorning ehtiyotsizligi natijasida kelib chiqmoqda. Mazkur holatda shaxs to‘g‘ri qasddan shaxs bilan jinsiy aloqa qilgan bo‘lsa, beparvolik natijasida OIV yoki OITS yuqishiga sababchi bo‘lmoqda.

Jinoyat qonunchiligimiz bo‘yicha agar mazkur jinoyatlarning sodir etilishi natijasida jabrlanuvchiga OIV yoki OITS yuqadigan bo‘lsa, bu holat JK 118-moddasi uchinchi qismi “e” bandi yoki 119-moddasi uchinchi qismi “e” bandida nazarda tutilgan “og‘ir oqibatlar” degan band bilan jinoyatni kvalifikatsiya qilishga olib keladi.

Shu sababdan adabiyotlarda og‘ir oqibatlar mazkur kvalifikatsiya qilinadigan jinoyat tarkiblarida faqat ehtiyotsizlikdan sodir bo‘ladimi yoki qasddan sodir etilishi ham mumkinmi, degan savol mavjud. Olimlarning mazkur savolga javoblari har xil bo‘lib, ba’zi olimlar ham qasddan [4], ham ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin deb hisoblasa, yana boshqa bir olimlar og‘ir oqibatlar faqat ehtiyotsizlikdan kelib chiqishi mumkin [5], deb ta’kidlaydi.

A.Motin og‘ir oqibatlar faqat ehtiyotsizlikdan bo‘lishi mumkinligi va agar bu kabi holatlarda ayb shakli ehtiyotsizlik emas qasddan bo‘ladigan bo‘lsa, bunday holat alohida sodir etilgan qilmish sifatida bu toifadagi jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi modda bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilinishi lozim deb hisoblaydi [3;2].

Bizningcha, A.Motinning mazkur fikrlari maqsadga muvofiq bo‘lib, shaxsning qilmishida ikki qasdning mavjudligi har bir qilmish bo‘yicha aybdorga ushbu qilmishlarni qamrab oluvchi moddalar bilan javobgarlik belgilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Jinoyat subyektiv tomonini tahlil etishda olimlar duch keladigan yana bir muammolardan biri bu – shaxsning voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jinoyat sodir

etganda jabrlanuvchining voyaga yetgan yoki yetmaganligining aybdorga ma’lum yoki ma’lum bo‘lmaganligi masalasi hisoblanadi. Jinoyat kodeksi 118, 119, 121-moddalarining uchinchi qismlari “a” bandida o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan jinoyat sodir etilishi jinoyatni og‘irlashtiruvchi holat sifatida keltirilgan bo‘lib, mazkur masalaning to‘g‘ri hal qilinishi bevosita jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’sir etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining 20.11.2023-yildagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ma’muriy huquqbuzarlik hamda jinoyat ishlari bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 30-son qaroriga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 29.10.2010-yildagi “Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojini g‘ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 13-son qarorining 14-bandi yangi tahrirda qabul qilindi.

Unga ko‘ra, sudlar shuni inobatga olishlari lozimki, o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan (JK 118-moddasi uchinchi qismi “a” bandi yoki 119-moddasi uchinchi qismi “a” bandi) yoki o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan (JK 118-moddasi to‘rtinchi qismi yoki 119-moddasi to‘rtinchi qismi) shaxsga nisbatan nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish jinoyatini sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik, aybdor jabrlanuvchining yoshini bilgan yoki bilmaganligidan qat’iy nazar kelib chiqadi.

Demak, endilikda qonunchiligimizga ko‘ra, aybdor jabrlanuvchining yoshini bilgan bilmaganligidan qat’iy nazar JK 118-moddasi 3-qism “a” bandi bilan javobgarlikka tortiladi. Ammo mazkur norma yangi tahrirda qabul qilinishidan oldin aybdor jabrlanuvchining yoshini ya’ni jabrlanuvchining voyaga yetganligini bilgan taqdirdagina mazkur band bilan javobgarlikka tortilishi mumkin edi.

Xususan, mazkur normaning oldingi tahririga nazar soladigan bo‘lsak, u quyidagicha tavsiflangan: sudlar shuni inobatga olishlari lozimki, o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan (JK 118-moddasi uchinchi qismi “a” bandi yoki 119-moddasi uchinchi qismi “a” bandi) yoki o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan (JK 118-moddasi to‘rtinchi qismi yoki 119-moddasi to‘rtinchi qismi) shaxsga nisbatan nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish jinoyatini sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik, faqat, aybdor jabrlanuvchining yoshi to‘g‘risida mazkur jinoyatlarni sodir etgunga qadar aniq bilgan (qarindosh, tanish, qo‘shni bo‘lgan va h.k.) holda

yoki jabrlanuvchining tashqi qiyofasi uning yoshidan aniq dalolat bergan holda kelib chiqadi.

Jabrlanuvchi o‘zining yoshiga nisbatan ulg‘ayganroq ko‘rinishi asosida kelib chiqqan insofli yanglishish aybdor shaxsga nisbatan mazkur kvalifikatsiya belgilari qo‘yilishini istisno etadi.

Bu kabi norma Rossiya Federatsiyasi Oliy Sudining 04.12.2014-yil “Shaxsning jinsiy erkinligi va jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 16-sonli qarori 22-bandida nazarda tutilganini ko‘rishimiz mumkin [6]. Demak, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga ko‘ra, aybdor jabrlanuvchining voyaga yetmaganligini bilgan taqdirdagina mazkur tahlil etilayotgan band bilan javobgarlikka tortilishi mumkin.

Bizningcha, jinoyat huquqi nazariyasida subyektiv tomon xususiyatlarini inobatga olib kvalifikatsiya qilish qoidalari jihatidan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qasdi qaratilmagan shaxsni mazkur band bilan javobgarlikka tortish maqsadga muvofiq emas. Chunki JK 118-moddasi 3-qismi “a” bandida keltirilgan sanksiyaga nazar soladigan bo‘lsak, o‘n yildan o‘n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Demak, agar shaxs qasdi voyaga yetmagan shaxsga nisbatan bo‘lmasdan, jabrlanuvchining tashqi ko‘rinishi natijasida aybdor yanglishishi tufayli u bilan jinsiy aloqa qiladigan bo‘lsa, mazkur band bo‘yicha tayinlanadigan jazo adolatsiz hisoblanadi.

Ammo masalaning yana bir tarafi ham mavjud, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatilishi uning sog‘ligiga va psixologiyasiga yomon ta’sir etishi bu esa o‘z navbatida uning kelajagiga ta’sir qilishi nuqtai nazaridan aybdorning voyaga yetmagan shaxsga nisbatan mazkur qilmishlarni sodir etishda uning yoshini bilgan yoki bilmaganligidan qat’iy nazar ushbu band bo‘yicha javobgarlikka tortilishi lozim.

Shuningdek, amaliyotda aybdorning qasdi voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qaratilgan yoki qaratilmaganligini aniqlash masalasi murakkab bo‘lib, mazkur belgini kvalifikatsiya qilishda yanglishish, bu turdagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning qilmishiga yarasha jazo tayinlanishidan qutilib qolishiga sabab bo‘ladi.

Aybdorning qasdi voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qaratilganini aniqlashda uning yoshini bilgan yoki bilmaganligi masalasi jinoyat huquqida doimo bahsli bo‘lgan. R.S.Danelyana [7], O.A.Gonochenko [8] va A.A.Bimbinov [9] aybdor jabrlanuvchini voyaga yetmaganligini bilishi kerakligi to‘g‘risidagi talabni jinoyat qonunchiligidan chiqarib tashlashni juda ham to‘g‘ri deb hisoblashadi. Bunga asos sifatida mazkur talabning yo‘q bo‘lishi bu kabi jinoyatlarga qarshi samarali kurashish

va jabrlanuvchilarning jinoyat qonunchiligidagi huquq va erkinliklarini ta’minlashga xizmat qiladi, deb ko‘rsatib o‘tishadi.

Bu fikrga qarama-qarshi tarzda O.Burkin, E.Kotelnik [11], M.A.Voronin [12] va V.G.Romanovlar [13] bu talabning yo‘q bo‘lishi aybdorning ichki subyektiv ruhiy holatini hisobga olmasdan, uning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi voyaga yetmagan shaxsga qaratilganligini aybdor bilmaganligi sababli jinoyatning subyektiv tomoniga to‘g‘ri baho bermasdan shaxsga nisbatan adolatsiz jazo tayinlanishiga olib kelishi mumkin deb hisoblashadi. Xususan, agar shaxsning qasdi voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jinsiy aloqa qilishga qaratilmagan bo‘lsa, uni mazkur band bilan javobgarlikka tortmaslik kerak deb ta’kidlashadi.

P.S.Yani esa ushbu talabni chiqarib yuborilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlarni aybdorni qasdi voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qaratilganligini isbotlash majburiyatidan ozod etmaydi deb hisoblaydi [14].

Subyektiv tomonning belgilaridan motiv va maqsadni aniqlash jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va aybdorga nisbatan jazo tayinlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning tuzilishida motiv va maqsad jinoyat subyektiv tomoning zaruriy belgisi sifatida keltirib o‘tilmagan. Mazkur jinoyatlarda motiv va maqsad jazoni og‘irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlar sifatida inobatga olinishi mumkin, ammo ijtimoiy xavfli qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta’sir etmaydi.

Jinoyat qonunchiligimizda xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning motiv va maqsadi aniq belgilab qo‘yilmagan. Odatda ushbu turdagi jinoyatlarning motiv va maqsadi jinsiy xarakterga ega bo‘ladi.

Xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar rashq, xasad qilish, qasd olish, bezorilik, shaxsni sha’ni va qadr-qimmatini yerga urish motiv va maqsadlarida sodir etilishi mumkin.

R.E.Zaton va A.A.Bimbinov shaxsning qadr-qimmatini tahqirlash, o‘zini kuchli xis qilish, achinish, turmush o‘rtog‘i bilan munosabatlarni saqlab qolish, pornografik materiallar ishlab chiqarish mazkur turdagi jinoyatlarning motiv va maqsadi bo‘lishi mumkin deb hisoblashadi [15].

O‘rganilgan hukmlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘p hollarda mazkur jinoyatlar jinsiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida sodir etilgan.

O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz buzuq harakatlar sodir qilish aybdorning jinsiy qiziqishlarini yoki voyaga yetmagan shaxsda jinsiy munosabatlarga qiziqish uyg‘otish maqsadida sodir etilishi mumkin.

Ko‘p hollarda voyaga yetmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etishda ifodalangan jinoyatlarning motiv va maqsadini belgilash masalasida turli bahslar kelib chiqadi. Ba’zi olimlar mazkur jinoyat uchun motiv va maqsad zaruriy belgi deb hisoblasa [16], yana boshqa birlari bu turdagi jinoyatni sodir etish usuli har xil bo‘lganligi bois uning motiv va maqsadi har xil bo‘lishi mumkin deydi[17].

Xulosa

Xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning subyektiv tomon belgilarining tahlili so‘ngida shuni aytishimiz mumkinki:

1. Mazkur turdagi jinoyatlar faqat to‘g‘ri qasddan sodir sodir etiladi.

2. Ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan moddalarning og‘rlashtiruvchi qismida belgilangan “og‘ir oqibatlarga olib kelgan bo‘lsa” bandi subyektiv tomon ayb shaklining ehtiyotsizlik orqasidan sodir etiladi.

3. Aybdor tomonidan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan taqdirda aybdor jabrlanuvchining voyaga yetgan yoki yetmaganligini bilishi zarur emas va aybdor jabrlanuvchining yoshini bilgan yoki bilmaganidan qat’iy nazar mazkur band bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

4. Tahlil etilayotgan toifadagi ijtimoiy xavfli qilmishlarning sodir etish motiv va maqsadlari jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga ta’sir etmaydi. Ammo jazo tayinlashda yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi mumkin.

5. Xotin-qizlarga jinsiy zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning motiv va maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin. Ammo ko‘p hollarda ushbu turdagi ijtimoiy xavfli qilmishlarning motiv va maqsadi aybdorning jinsiy ehtiyojini qondirish xohishi hisoblanadi.

References:

1. O‘zbeksiton Respublikasining 2023 yil yanvar-dekabr oylarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini tavsiflovchi O‘zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining nashri. file:///C:/Users/asus/Downloads/17.XUQUQBUZARLIK%20(1).pdf

2. Rarog A.I. Kvalifikatsiya prestupleniy po subyektivnim priznakam. SPb., 2002. S. 98–99.

3. Motin Anatoliy Vladimirovich. Kvalifikatsiya prestupleniy protiv polovoy neprikosnovennosti i polovoy svobodi lichnosti: dissertatsiya ... kandidata Yuridicheskix nauk: 12.00.08 / [Mesto zashiti: FGBOU VO «Rossiyskiy gosudarstvenniy universitet pravosudiya»], 2019.

4. Ugolovnoye pravo. Osobennaya chast: Uchebnik dlya vuzov / Otv. red. I.Ya. Kozachenko, Z.A. Neznamova, G.P. Novoselov. M., 2001. S. 180. Kaxniy M.V. Osobo kvalifitsirovanniye vidi iznasilovaniya: problemi teorii i pravoprimeneniya // Sovremennoye pravo. 2007. № 9. S. 62–64). Tidikova N.V. Ugolovno-pravovaya xarakteristika i voprosi kvalifikatsii nasilstvennix polovix prestupleniy. M., 2013. S. 170).

5. Andreyeva L.A. Kvalifikatsiya iznasilovaniy: Uchebnoye posobiye. SPb., 1999. S. 49; Naumov A.V. Rossiyskoye ugolovnoye pravo: Osobennaya chast (glavi I - X). Kurs leksiy: V 3-x t. T. 2. M., 2007. S. 178.

6. Rossiya Federatsiyasi Oliy Sudining 04.12.2014 yil “Shaxsning jinsiy erkinligi va jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 16-sonli qarori 22-bandi. https://www.zakonrf.info/postanovlenie-plenum-verkhovnogo-suda-rf-16-04122014/

8. Ensiklopediya ugolovnogo prava. V 35 tomax. T. 15. Prestupleniya protiv polovoy neprikosnovennosti i polovoy svobodi lichnosti. SPb., 2011. S. 484, 489

9. Gonochenko O.A. Ugolovno-pravoviye sredstva zaщiti nesovershennoletnix ot seksualnogo sovraщyeniya i seksualnoy ekspluatatsii: dis. ... kand. yurid. nauk. Stavropol, 2004. S. 21–22.

10. Bimbinov A.A. Ukaz. soch. S. 106–110.

11. Burkina O., Kotelnikova E. Priznaki poterpevshego v ugolovnom zakone (analiz novoy redaksii st. 134 i 135 UK RF) // Ugolovnoye pravo. 2010. № 2. S. 22.

12. Voronin M.A. Vopros isklyucheniya priznaka “zavedomosti” iz dispozitsii stati 134 Ugolovnogo kode ksa Rossiyskoy Federatsii // Mejdunarodniy nauchno-issledovatelskiy jurnal. 2013. № 4-2 (11). S. 112.

13. Romanov V.G. Ukaz. soch. S. 130.

14. Yani P.S. Voprosi kvalifikatsii polovix prestupleniy // Zakonnost. 2013. № 5. S. 20.

15. Zatona R.Ye. Ukaz. soch. S. 56; Bimbinov A.A. Ukaz. soch. S. 111–112; Romanov V.G. Ukaz. soch. S. 135.

17. Pestereva Yu.S., Shaglanova A.N. Osobennosti motivatsii lis, sovershivshix razvratniye deystviya // Psixopedagogika v pravooxranitelnix organax. 2013. № 4 (55). S. 92; Ishigeyev V.S., Valzdorf E.V. Aktualniye voprosi protivodeystviya prestupleniyam protiv polovoy neprikosnovennosti nesovershennole

TERGOV SUDYASI INSTITUTINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Sadoqat Xolmatova Salimjon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
e-mail: sadoqatxolmatova8@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11423551

Annotatsiya: Ushbu maqolada tergov sudyasi instituti tushunchasi va mohiyati, ushbu institutni joriy etish zaruriyati, tergov sudyasi maqomini belgilash muammolari yoritib berilgan. Shuningdek, ishni sudga qadar yuritish bosqichida sud nazoratini amalga oshirish tamoyilidan kelib chiqib tergov sudyasining maqomini belgilash masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. Jinoyat protsessining xolisligi va adolatliligini oshirish maqsadida tergov sudyasi institutini O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligiga joriy etish taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: jinoyat protsessi, tergov sudyasi, taraflarning tortishuvi, huquqiy maqom, sud nazorati, protsessual maqom, protsessual vakolat, sud nazorati.

Аннотация: в статье исследуется понятие и сущность института следственных судей в уголовномсудопроизводстве.Так же необходимость введения этого института, проблемы установления статуса следственного судьи. Затронуты также вопросы установления статуса следственного судьи исходя из принципа осуществления судебного контроля на этапе досудебного производства по делу. В целях повышения объективности и справедливости уголовного процесса предложено ввести институт следственного судьи в уголовно-процессуальное законодательство Республики Узбекистан.

Ключевые слова: институт следственных судей, следственный судья, уголовный процесс, следственный судья, правовой статус, судебный контроль, процессуальный статус, процессуальная компетенция.

Annotation: The article discusses the issue of reviving the institution of investigating judges in criminal proceedings. Various points of view on the admissibility of the introduction of this institution, the features of its legal regulation are analyzed. It is concluded that it is necessary to include investigating judges in the modern criminal process in order to increase the objectivity and fairness of criminal proceedings.

Key words: Investigating judge, legal regulation, preliminary investigation, criminal proceedings, judicial control.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda odil sudlov sohasida “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo‘naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda BMTga a’zo barcha davlatlar tomonidan himoyachi huquqlarini kengaytirish, advokatura institutini yana-da kuchaytirish borasida ko‘plab sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Ishni sudga qadar yuritish va sud jarayonlarida himoyachi huquqlarining amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi inson huquqlari va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoyasiga xizmat qiladi. Shu sababli «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlardan biri qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etishga qaratildi. Ushbu vazifalar doirasida tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish masalasini alohida sudyalar — tergov sudyalari tomonidan ko‘rib chiqish tartibini joriy etish vazifasi belgilandi.

Bugungi kunda tergov sudyasi instituti dunyoning ko‘plab davlatlarida faoliyat olib bormoqda. Xususan, Italiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Gretsiya, Iroq, Ispaniya, Niderlandiya va Xorvatiya davlatlarida, ayniqsa Fransiyada o‘z faoliyatini muvaffaqqiyatli amalga oshirib kelmoqda hamda bir qator MDH davlatlarida ham tergov sudyasi instituti jadallik bilan joriy etilgan. Xorijiy mamlakatlarda 2002 yilda Litvada, 2003 yilda Moldaviya va Estoniyada, 2005 yilda Latviyada, 2013 yilda Ukrainada, 2015 yilda esa Qozog‘iston, Gruziya va Qirg‘izistonda ushbu institut joriy etilgan.

Material va metodlar.

Mazkur ilmiy maqoladagi mavzuni tadqiq qilishda qonunchilik normalari va huquqshunos olimlar G‘.Abdumajidov, Z.F.Inog‘omjonova, B.X.Po‘latov, F.M.Muxitdinov, D.M.Mirazov, G.Z.To‘laganova, S.M.Raxmonova, U.A.Tuxtasheva, O.M.Madaliyev, S.M.Mamadiyev, M.Utepbergenov, G‘.Shodiyev va boshqalarning ilmiy ishlarida ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullari qo‘llandi.

Tadqiqot natijalari.

Ko‘pgina zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, sudyaning ayblov tomondan to‘plangan dalillarni baholashga kirishishi jinoyat ishini ko‘rib chiqish va hal qilishda xolisligiga shubha tug‘diruvchi jiddiy tahdid bo‘lib, gumon qilinuvchi,

ayblanuvchini qamoqqa olish asoslarini belgilagan sudya uning aybliligi masalasini hal qilishi mumkin emas**.**

Sudning protsessning boshlang‘ich bosqichidagi har qanday xulosasi u yoki bu tarzda aybdorlik masalasiga borib taqaladi, bu masalani hal qilarkan, sudya qonunda berilgan ko‘rsatmadan qat’iy nazar, jinoiy ta’qibga daxldor bo‘lib qoladi [1].

Sud nazoratini amalga oshirish jarayonidagi, sudyaning har qanday xulosasi sudyaning xolisligiga qandaydir darajada ta’sir qilishini inkor etib bo‘lmaydi.

Sud nazoratini amalga oshirgan sudyaning ishni mazmunan ko‘rishda qatnashishi masalasi ham munozarali.

Ma’lumki, amaldagi JPKga muvofiq, sudyaning ishni sudga qadar yuritish uchun mas’ul organlarning iltimosnomalarni ko‘rib chiqishi ishni mazmunan ko‘rishiga monelik qilmaydi.

Rossiya Federatsiyasining sud nazoratini joriy qilish bo‘yicha tajribasidan aynan tashkiliy masala ya’ni sudyalar sonining cheklanganligi JPKdagi mazkur tartibga o‘z ta’sirini o‘tkazganligini ko‘rish mumkin. Ya’ni, tergov sudyasini joriy qilish zarurati e’tirof etilsada, obyektiv sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqib shunday yechim topilgan.

Ushbu masaladagi noaniqlik, sud nazoratining maxsus subyektini umumyurisdiksiya sudlaridan uzoqlashtirish zaruriyatini, uning vakolatlari va prokuror, dastlabki tergov organlari va surishtiruvning faoliyat doirasiga aralashish chegaralarini ilmiy asoslantirishning dolzarbligini oshiradi [2].

Faqatgina, ishni mazmunan ko‘rish va hal qilish majburiyatidan ozod etilgan sudyagina sud nazoratini xolis amalga oshirishi mumkin. Qozog‘iston Respublikasi 54-moddasi 3-qismiga muvofiq, tergov sudyasi – tegishli birinchi instansiya sudining raisi tomonidan tayinlanadigan, sudga qadar tergovga jalb qilingan shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari ta’minlanishi ustidan sud nazoratini amalga oshirishga vakolatli sudyadir.

Xalqaro ekspertlar ham ishni sudga qadar yuritish ustidan sud nazoratini kengaytirish, shuningdek ishni mazmunan ko‘rishni ishga sudga qadar yuritish bosqichida sud tomonidan hal qilinadigan masalalarni ajratish, ishni sudga qadar yuritish bosqichida inson huquqlarini ta’minlash bo‘yicha sudlar tizimi yaratilishini talab qilishini qayd qilganlar [3].

Yuqoridagilarga asosan tergov sudyasini –ishni sudga qadar yuritish bosqichida, ishni sudga qadar yuritish uchun mas’ul organlarning iltimosnomalari va manfaatdor shaxslarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish va hal qilish orqali shaxslarning huquq va

erkinliklari, qonuniy manfaatlari ta’minlanishi ustidan sud nazoratini amalga oshirishga vakolatli sudya sifatida ta’riflashimiz mumkin.

Sud nazorati doirasining samaradorligi yurisdiksiyaviy nazoratni amalga oshirishga ixtisoslashgan jinoyat protsessual faoliyatning mustaqil subyekti- tergov sudyasining jinoyat protsessidagi ishtirokini taqozo etadi.

Sud nazoratini tergov sudyasi tomonidan amalga oshirilishi, ishni sudga qadar yuritishda haqiqiy tortishuv muhitini yaratadi, sababi, himoyachining iltimosnomasini endi jinoiy ta’qib va ishni hal qilish funksiyasini bir vaqtda bajaruvchi ishni sudga qadar organlar hal qilmaydi, kuchlar muvozanati yaratiladi. Bu o‘z navbatida, jinoyat protsessida himoyachining mavqei oshishiga, uni isbotlash jarayonida qatnashish huquqini real ta’minlashga xizmat qiladi. Sababi, dalillarni topish va mustahkamlash yuzasidan asosli iltimosnomasi rad qilingan hollarda, tergov sudyasi unga mazkur huquqidan foydalanish imkonini kafolatlaydi, shu bilan birga uning keyinchalik ishni mazmunan ko‘rish majburiyatidan xalos etilishi uning ichki mustaqilligini ta’minlaydi ya’ni qabul qilgan qaroriga kelgusida bog‘lanib qolishini oldini oladi.

Shunday qilib, ishni sudga qadar yuritishda bir tomondan taraflar tortishuvi prinsipi kiritilsa, ikkinchi tomondan dalillarning haqqoniyligi kiritiladi, bular birgalikda birinchi instansiya sudida taraflar o‘rtasidagi ehtimoliy nizolarni bartaraf etilishini ta’minlaydi.

Tergov sudyasi ishni sudga qadar yuritish jarayonida kelib chiqadigan masalalar yuzasidan xolis va mustaqil xakam bo‘lishi mumkin, chunki keyingi sud instansiyasilarida odil sudlovlarni amalga oshirishdan chetlatilgan [4]. JPKning 377-moddasi jinoyat ishi tamomlangandan keyin undagi materiallar bilan tanishib chiqqandan so‘ng qo‘shimcha tergov harakatlari o‘tkazish haqida iltimosnoma berish huquqini kafolatlasada, 99% hollarda tergovchi tomonidan iltimosnoma asossiz rad qilinadi. Binobarin, dastlabki tergov davomida, himoyachining deyarli barcha iltimosnomalarini qanoatlantirilmasdan qoladi, himoyalanuvchining foydasiga vajlarga yetarli e’tibor qaratilmaydi, himoya huquqi rasmiyatchilik bilan amalga oshiriladi.

Ya’ni, tergov sudyasi dalillarni bir yoqlama to‘plash amaliyotiga barham beradi, dalillar tortishuv muhitida to‘plansa ularning haqqoniyligi va ishonchliligi ta’minlanadi, haqiqatni aniqlashga xizmat qiladi.

“Sud nazoratini amalga oshirish uchun shuncha sudyani qayerdan olish mumkin” kabi e’tirozlar dastlabki tergov ustidan sud nazoratidan voz kechish uchun asos bo‘lishi mumkin emas [5].

Tergov sudyasi institutining joriy qilinishi, nafaqat konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi tergov harakatlari, balki dalillarni to‘plashning jarayonida protsessual qonun normalariga to‘liq rioya qilinishi ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish imkonini beribgina qolmasdan, surishtiruv va tergov jarayonida o‘z yechimini topmayotgan muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Adilov S.A. tergov sudyasining vakolatlaridan kelib chiqib faoliyatining quyidagi yo‘nalishlarni ajratgan:

1) ishni sudga qadar yuritish uchun mas’ul organlarning qarorlariga sud ruxsatini berish yo‘li bilan ishni sudga qadar yuritish ishtirokchilarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya qilinishi va himoya qilinishini ta’minlovchi;

2) ayrim tergov harakatlariga ruxsat berish yo‘li bilan jiniy ta’qib funksiyasini lozim darajada amalga oshirilishini ta’minlovchi;

3) ishni sudga qadar yuritish jarayonining zarur harakati va ishtirokchilarining o‘zini zarur darajada tutishini ta’minlovchi;

4) tergov sudyasining ish holatlarini har tomonlama, to‘liq va xolisona o‘rganilishi prinsipi amalga oshirilishini ta’minlash, unga taqdim qilingan materiallar maqbul yoki nomaqbul ekanligini haqida ichki ishonchini shakllantirishga qaratilgan qaratilgan boshqa vakolatlari .

Tergov sudyasi nafaqat konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni cheklovchi tergov va protsessual harakatlarga ruxsat berish masalasi(yurisdiksiyaviy nazorat), balki ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash, protsess ishtirokchilarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish kabi bir qator funksiyalarni bajarishi mumkin. [6]. Bular jumlasiga:

ishni sudga qadar yuritish uchun mas’ul organlar mansabdor shaxslarining qarorlari va harakatlariga nisbatan shikoyatlarni ko‘rib chiqish;

prokurorning iltimosnomasiga asosan protsessual majburiyatlarini bajarmagan protsess ishtirokchilariga nisbatan jarima solish masalasini hal qilish;

JPKning 84-moddasiga asosan tugatilgan jinoyat ishlari bo‘yicha, olib qo‘yilgan mol-mulk va ashyoviy dalillar masalasini hal qilish;

himoyachining o‘z vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilinganligi yuzasidan shikoyatlarni ko‘rib chiqib, taraflar tengligi prinsipini ta’minlash;

obyektiv sabablarga ishni mazmunan ko‘rish jarayonida qatnasha olmaydigan guvoh va jabrlanuvchilarning ko‘rsatuvlarini deponentlash;

Biroq, mazkur vakolatlar tergov sudyasining isbotlash va ishni hal qilish jarayonida bevosita qatnashishini anglatmasdan, faqatgina taraflar o‘z funksiyalarini to‘liq va qonuniy bajarishlarini ta’minlashga qaratilgan.

Ma’lumki, himoyachi jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni to‘plash va taqdim etishga haqli bo‘lsada, dalillarni to‘plash bo‘yicha uning vakolatlari cheklangan va ishni sudga qadar yuritish uchun mas’ul organlardan farqli ravishda davlatning majburlov kuchi bilan ta’minlanmagan. Mazkur holat taraflarning tengligi prinsipini amalda ishlashiga to‘sqinlik qiladi.

Masalan, advokatning ekspertiza tayinlash yoki haqiqatni aniqlashga qaratilgan boshqa asosli iltimosnomalari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan asossiz rad qilingan hollarda, mazkur masala sud nazoratining predmeti bo‘lishi mumkin.

Sud nazoratini Qozog‘iston Respublikasi sud amaliyotida amalda qo‘llash natijalariga ko‘ra nazorat doirasini yana-da kengaytirish, ya’ni, advokatlarning har qanday iltimosnoma bilan tergovchiga murojaat qilish mexanizmiga chek qo‘yib, mazkur iltimosnomalarni tergov sudyasi tomonidan ko‘rib chiqilishi amaliyotini joriy qilish taklif qilinmoqda [7].

Mazkur taklif taraflarning tengligi va o‘zaro tortishuv prinsipini ta’minlashga qaratilganligi bilan ham muhim.

Tergov sudyasiga ham dastlabki tergovga rahbarlik qilish ham uni nazorat qilish funksiyasini berilishi, sud nazoratining maqsadini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Shu sababli tergov sudyasiga, jinoyat-protsessual faoliyatning mustaqil subyekti sifatida amalga oshirilishi ishni sudga qadar yuritishda shaxsning konstitutsion huquqlarini buzilishi ehtimoli bilan bog‘liq nizoli holatlar bilan bog‘liq yurisdiksiyaviy xarakterdagi vakolatlar berilishi kerak [8].

Xulosa.

Birinchidan, xorijiy tajribaga tayangan holda, aytish joizki, tergov sudyasi institutining milliy qonunchilikda joriy qilinishi shaxs konstitutsiyaviy huquqlarni cheklovchi tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarining o‘tkazilishida protsessual qonun normalariga to‘liq rioya qilinishi ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish isbotlash jarayoni sifatini oshirish bilan birgalikda dalillar to‘plashda taraflarning teng huquqliligini ta’minlash, ko‘rsatuvlarni deponentlash kabi ishni sudga qadar yuritish bosqichida o‘z yechimini topmayotgan muammolarni hal qilishga ham xizmat qiladi. Mazkur sud nazoratini funksiyasini mustaqil protsessual subyekt - tergov sudyasi tomonidan amalga oshirilishi taklif qilinadi.

Ikkinchidan, ishni sudga qadar yuritishda sud nazorati funksiyasini ishni mazmunan ko‘rish majburiyatidan ozod etilgan tergov sudyasi amalga oshirishi

maqsadga muvofiq bo‘lib, mazkur institutning to‘laqonli samaradorligi va xolisligini ta’minlashini hisobga olib, JPKning 76-moddasida ishni sudga qadar yuritishda sud nazoratini amalga oshirganligi fakti, birinchi instansiya sudida ushbu sudyani rad qilish uchun asos sifatida belgilanishi zarur.

References:

1. Смирнов А.В. Модели уголовного процесса. СПб. 2000.-С. 52

2. Муратова Н. Г. Система судебного контроля в уголовном судопроизводстве: вопросы теории, законодательного регулирования и практики. Автореф. дисс. ... д-ра юрид. наук. Екатеринбург, 2004.

3. Предложения по концепции совершенствования системы уголовного и уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан https://www.unodc.org/documents/centralasia//2018/UNODC_Criminal_justice_reforms_in_Uzbekistan_Apr_2018_EN.pdf

4. Адилов С.А. Правовое положение следственного судьи в уголовном процессе Республики Казахстан. Дисс..на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М. 2018

5. Калинина Н.С. Правовые и организационные основы реализации судебной власти в Российской Федерации. Автореф. дис…к.ю.н., М., 2014.

6. Мўминов Б.А. Жиноят ишларини судга қадар юритиш устидан суд назорати. Юр.ф.доктори ... диссер. Тошкент. 2020. Б. 249

7. Ахмеджанов Ф.Р., О мерах по расширению пределов судебного контроля в досудебном производстве// Вестник Института законодательства РК. 2017. №2.

8. Ковтун Н.Н. О понятии и содержании термина «судебный следователь» (следственный судья) //Российский судья. – 2010. – № 5.

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA MARKAZIY OSIYO OLIMLARINING ILMIY MEROSIDAN FOYDALANISH

Zilola Joniqulova Baxriddin qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti Xorijiy tillar fakulteti talabasi Zomin tumani 50-maktab o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11423579

Annotatsiya. Ushbu maqolada Fizika fanini o‘qitishda Markaziy Osiyo olimlarining tabiiy fanlar sohasida olib borgan ilmiy meroslaridan foydalanishda O‘rta Osiyoda qadimdan fizika, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, to‘qimachilik va me’morchilik sohasida olib borgan ilmiy ishlaridan o‘quv jarayonida keng foydalanish.

Kalit so‘zlar: O‘rta asr olimlari, tabiy fanlar, fizika, astronomiya, matematika, o‘quv jarayoniga tadbiq qilish.

Abstract: This paper illustrates the use of scientific legacies of Central Asian scientists in the natural sciences in teaching physics is widely used in Central Asia since ancient times in the field of physics, astronomy, mathematics, medicine, chemistry, textile and architecture.

Keywords: Medieval scientists, physics, astronomy, mathematics, implementation in the learning process.

Mustaqillik sharofati bilan buyuk ajdodlarimiz nomi va ularning jahon ilm-fani va madaniyatiga qo‘shgan ulkan merosini o‘rganish uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘ldi.

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati, fan-texnika taraqqiyoti tarixini o‘rganish katta ilmiy ahamiyatga egadir. Markaziy Osiyoda qadimdan fizika, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, to‘qimachilik, me’morchilik, ma’danshunoslik, kulolchilik, falsafa, musiqa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik keng rivojlangan. Ayniqsa, aniq va fundamental fanlar sohasida ijod etib biz uchun o‘lmas ilm sohiblari bo‘lgan Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Abu Nasr al-Farobiy (873-950), Abu-Rayhon Beruniy (973-1050), Abu Bakr Ar Roziy (865-925), Ahmad Farg‘oniy, (790-865) Abu-Ali Husayn Ibn Sino (980-1037), Umar Xayyom (1048-1123), Mirzo Ulug‘bek (1394-1449), Ali Qushchi (1403-1474) kabi buyuk allomalarni aytib o‘tish joizdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida fizika fanini oliy o‘quv yurtlari, akademik-litsey, kasb-hunar kollejlarida ta’lim-tarbiya jarayonini milliylashtirish uchun Sharqda yashab va ijod etgan olimlarni fizika, astranomiya va boshqa tabiiy fanlar sohasida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarini o‘quvchilarga o‘rgatish katta ahamiyatga egadir. Mazkur maqolada ularning ilmiy natijalarini hozirgi fizika kurslaridagi o‘rnini ko‘rsatib berish bayon etiladi. Masalan, Mexanika qonunlarini o‘rganishda Abu Ali Ibn Sinoning “Donishnoma” kitobidagi quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: “Har qanday harakatda qarama - qarshi teng holat mavjud deb ta’kidlaydi. Agar kuch yo‘qolsa, shu sabab vujudga keltirilgan oqibat ham tura olmaydi, bir xil sharoitda nima kichik bo‘lsa tezkor harakat qilishi, nima katta bo‘lsa sekinroq harakat qilishi kerak”. Uning bunday iborasi ingliz olimi Nyuton ta’rifiga asosan, “massa jismning inersiya o‘lchovidir”, degan fikrni tasdiqlaydi. Tezlik va tezlanishni massaga teskari proparsionalligini bildiradi.

Og‘irlik kuchi to‘g‘risida Ibn Sino shunday mulohaza yuritadi: “Agar kimdir ishkom ostidagi ustunni tortib olsa, u ishkomni qulatdi deydilar, aslida esa, u ishkomni qulatmaydi, balki ishkom o‘zi uchun xos bo‘lgan og‘irlik kuchi ta’sirida qulaydi. Ustun asli qulashga imkon bermay turgan edi. Ustun ishkom ostidan tortib olinishi bilan og‘irlik kuchi o‘z ishini qiladi.”

Olimning bu g‘oyasi, Nyuton tomonidan butun olam tortilish qonunining kashf etilishi bilan yana bir marta isbotlandi. Zero, Nyuton ham olmaning yerga uzilib tushish sababini, olmaning yerga tortilishi kuchidan iborat deb izohlaydi.

Jahonga tabobat ilmining sultoni bo‘lib tanilgan Abu Ali Ibn Sino qomusiy bilim sohibi bo‘lib, u birinchilardan bo‘lib fizikani alohida fan sifatida shakllantirdi. Uning “Fizika” va “Mexanika” deb nomlangan asarlari fizika fanining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Abu Ali Ibn Sinoning fizika faniga bergan ta’rifi, harakat va harakat turlari, harakatning nisbiyligi, inersiya, kuch, massa va tezlanish orasidagi bog‘lanish, aylanma harakat, markazga intilma kuch, chiziqli tezlik kabi mavzularga tegishli bo‘lgan mulohazalari hozir ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

Abu Ali Ibn Sino harakat sabablarining asosan 3 xil turini eslatib o‘tadi:

1. Tabiiy harakat. Tabiiy harakatni jismlarning o‘z tabiiy o‘rinlariga intilishidan deb izohlaydi. Tabiiy harakatning to‘g‘ri chiziqli yoki aylanma harakat shaklda bo‘lishi mumkinligini qayd etadi.

2. Majburiy harakat. Majburiy harakat jismlarning o‘z-o‘zidan yuz beradigan harakati emas, balki tashqi ikkinchi bir kuchning ta’sirida vujudga keladigan harakat deb izohlaydi.

Aksidensiyalik (nisbiy) harakat. Bunda bir jismning ikkinchi bir jismga nisbatan harakatini ko‘zda tutadi.

Sharqning buyuk olimi, o‘z davri ilg‘or falsafiy fikrining asosiy prinsiplarini o‘z ijodida aks ettirgan mutafakkir Abu Nasr Muhammad al-Farobiydir. Biz uning dunyo qarashida o‘z davrining ma’naviy intilishlari ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotining yutuqlarini yorqin ifodalanganligini ko‘ramiz. Farobiy bizga juda boy va rang-barang ilmiy meros qoldirgan, turli sohalarga oid 160 dan ortiq asarlar yozgan. Farobiyning fizika, optika haqida yozgan asarlarida “Vakuum haqida risola”, “Fizika haqida risola” kabi asarlarini misol keltirish mumkin. Farobiyga qadar “Fizika tabiat haqidagi fan” deb qaralib, boshqa tabiiy fanlar bilan birga o‘rganib kelingan. Farobiy fizika faniga ta’rif berib, uni boshqa fanlardan ajratdi va alohida fan sifatida shakllanishiga zamin yaratib berdi. Farobiyning moddiyat materiya va shakl, tovush tezligi, tovushning to‘lqin tabiati, to‘lqinning uzunliligi va shularga asoslanib yaratilgan musiqa notasi, shuningdek, optikaga oid yana ko‘p ishlari jahon fanining rivojlanishiga qo‘shgan hissasidir. U -“materiyani oxiri yo‘q cheksiz va chegaralanmagan deydi”. Bu bilan materiyaning abadiyligini ta’kidlaydi. Farobiy osmon jismlari bilan yerdagi hodisalar o‘rtasidagi tabiiy aloqa borligi bulutlar va yomg‘ir paydo bo‘lishini quyosh issiqligi ta’sirida bug‘lanishga sababiy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Mutafakkirlarimizdan yana biri, Abu-Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniyning ilmiy merosi alohida o‘rin tutadi. Abu-Rayhon Beruniy 200 dan ortiq asar va risolalar yozgan. Asarlarida tabiat qonunlari haqida fikr yuritgan. Butun olam tortishish qonuni mavzusida Abu Rayhon Beruniy hamda Abu Ali Ibn Sino jismlarning yer markaziga tortishishi haqidagi yo‘riqnomasidan quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: “Yer shar shaklida bo‘lgani uchun jismlarning og‘irligi hamma tomondan yerning markaziga tomon tortilib turadi, bundan tashqari Abu Rayhon Beruniy yerning radiusi, aylana uzunligi, sathi va hajmini o‘ziga xos usulda o‘lchash bilan birga globusni ixtiro qilgan. Geliotsentrik sistema to‘g‘risidagi fikrlari bilan fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Abu Rayhon Beruniy 50 dan ortiq moddaning solishtirma og‘irligini hozirgi zamon aniqlash darajasida o‘lchashga piknometrga o‘xshash maxsus idish yordamida 18 ta suyuq moddaning solishtirma og‘irligini aniqlagan”. Abu Rayhon Beruniy atmosfera bosimini o‘lchaydigan zamoniga xos bir qancha asboblar yaratdi, masalan avtomat sug‘org‘ich asbobi hozir ham parrandachilik xo‘jaliklari va boshqa joylarda qo‘llanilmoqda.

Favvoralardan (fontan) suvlarning yuqoriga otilib chiqishining sabablarini Beruniy quyidagicha bayon etadi:

“Agar suv yer sathidan balandroq suv omboridan olinayotgan bo‘lsa, qisiladi va yuqoriga otilib chiqadi.

Agar suv ombori yer sathidan quyiroq bo‘lsa, suv tamoman yuqoriga ko‘tarilmaydi.

Ba’zan suv ombori minglarcha gaz baland tog‘larda bo‘lganda, o‘shanda suvni qal’alarga va minoralar tepasiga olib chiqsa bo‘ladi”.

Daryolarning dengizga quyiladigan joylarining kemalar uchun havfli bo‘lishi, undagi suvning mazasiga (chuchukligi) bog‘liqligidir. Mazali (chuchuk) suv og‘ir narsalarni sho‘r suv ko‘targandek ko‘tara olmaydi”. Demak, Beruniy suyuqliklarning o‘ziga botirilgan jismga nisbatan ko‘rsatadigan itarish kuchi haqidagi Arximedning qarashlarini sho‘r va chuchuk suvlarning solishtirma og‘irliklarini aniqlash yo‘li bilan izohlaydi.

Bu olimlarning atom fizikasi bo‘limida modda tuzilishi (atomistik nazariya) to‘g‘risida quyidagicha: - “Atomning ham bo‘linishi mumkinligini, bo‘lingan bo‘lakchalar orasida bo‘shliq va o‘zaro ta’sir kuchlari hamda bu zarrachalarning harakatlari mavjudligi” fikrlarini bildirganlar. Beruniyning “Geodeziya”, “Qonuni Mas’udiy” va “Yulduzlar ilmi” asarlari astronomiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda Quyosh, Oy va planetalarning harakatlariga doir ko‘plab ma’lumotlar, Yer radiusini o‘lchashning o‘sha zamonda ma’lum bo‘lgan bir necha usullari keltirilgan.

Beruniyning izdoshi Umar Hayyom ham Koinot haqida bir qator falsafiy fikrlar bildirib, nihoyatda katta aniqlikka ega bo‘lgan Quyosh kalendarini ishlab chiqqan. Keyinchalik Umar Hayyom kalendari deb nom olgan bu taqvimda kabisa yili, 33 yilda 8 marta kelib (rimliklar taqvimida 32 yilda) dastlabki 7 tasi har to‘rtinchi yilda, oxirgi 8-si esa 5-yili keladigan qilib qabul qilindi. Boshqacha aytganda, 33 yillik davrning 4-, 8-, 12-, 16-, 20-, 24-, 28- va 33- yillari kabisa yillari sanalib, 366 kundan qilindi, qolgan 25 yili 365 kundan edi.

Umar Hayyom kalendarida yilning o‘rtacha uzunligi 365833=365,24242 kunga teng bo‘lib, tropik yilning haqiqiy uzunligidan atigi 0, 00022 sutkaga, ya’ni 19,5 sekundgagina uzun edi, xolos. Bu xatolik shu qadar kichik ediki, u yig‘ilib-yig‘ilib 4500 yil o‘tgandan so‘nggina 1 kunga yetardi. Biz ishlatayotgan grigoryan kalendarining xatosi bir kunga yetishi uchun 3300 yil kerak bo‘ladi. Umar Hayyomning bu kalendari, ayni vaqtda Eronda ishlatiladigan Jaloliy kalendarining asosini tashkil etadi.

Abdul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kashr al-Farg‘oniy ham astronomiya, geografiya, matematika fanlari bilan shug‘ullangan. Farg‘oniy Quyosh tutilishini oldindan hisoblab chiqqan. Yerning zoldirsimon ekanligini ilmiy isbotlagan, meridian

uzunligini hisoblagan, Nil daryosining oqimini o‘lchash uchun asbob yasagan va unga doir risolalar yozgan. Uning “Yulduzlar ilmi va samoviy harakatlar haqida to‘plam” nomli qomusiy asari bir necha tillarga tarjima qilingan.

Ulug‘ allomalardan biri Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning 1437-yilda “Ziji Kuragoniy” (“Ulug‘bek ziji”) astronomik katalogi muhim ahamiyatga egadir. Bu katalog “Ulug‘bekning yulduzlar javdvali” nomi bilan mashhur bo‘lib, 1018 ta yulduzning o‘rni ko‘rsatilgan. Ulug‘bekning ko‘p sonli astranomik jadvallari ichida jahondagi 688 ta turli shaharlarning jug‘rofiy koordinatalari berilgan jadvallar diqqatga sazovordir. Asar muqaddimasining maxsus bo‘limida Quyosh, sayyoralarning harakati nazariyasining ifodasi mukammal berilgan va unda Oy va Quyosh tutilgan kunni aniqlanganligi ko‘rsatilgan.

Mashhur astronom Ali Qushchi (Mavlono Alouddin Ali Ibn Muhammad Qushchi, 1403-1474) matematika va astronomiyaga doir risolalar yozgan. U fasllar almashinuvi, Oy va Quyosh tutilishini ilmiy-tabiiy jihatdan to‘g‘ri tushuntirib bergan.

Buyuk mutafakkirlarning tabiiy fanlar, matematika, tibbiyot, falsafa, tilshunoslik sohalaridagi ishlari, kashfiyotlari butun dunyo ilm fanining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi, ayrim fan sohalarining yuqori bosqichga ko‘tarilishiga, yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga olib keldi.

Buyuk bobokalonlarimizning tabiiy fanlarni rivojlantirishda qo‘shgan bebaho hissalarini talaba va o‘quvchilarga yetkazish ularning qalbida buyuk ajdodlarimizga bo‘lgan mehr-muhabbatini oshiradi, ajdodlarga munosib voris bo‘lishga undaydi. Ularning hayoti va ijodini o‘rganish, ulardan saboq olish talaba va o‘quvchilarning ongi va ruhiyatini yuksaltiradi, ayniqsa yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Buyuk bobolar ruhiga yuksak hurmat va ehtiromda bo‘lgan keyingi avlodlar ularning ishlarini munosib davom ettirishmoqda. Bunga O‘zbekistonda fizika va astronomiya taraqqiyoti sohasidagi olib borilayotgan ishlar yaqqol misol bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Usmonov “Fizika tarixidan metodik qo‘llanma” Toshkent -2003.
2. A.Irisov, A.Nosirov, N.Nizomiddinov “O‘rta Osiyolik qirq olim”. Toshkent-1981.
3. M.M.Xayrullaev “Sharq mutafakkirlari”. Toshkent – 1991 yil.
4. “Buyuk siymolar, allomalar” Xalq merosi nashriyoti – Toshkent – 1998 yil.

DEVORIY BEZAKLARDA ANIMALISTIK TASVIRLARNING AXAMIYATI

Abdurazzaqov Sh. Sh.
Sharof Rashidov nomli SamDU Pedagogika ta'limi fakultet talabasi

Ilmiy rahbar San'atshunoslik kafedrasi dots.N.J.Mullajonova
https://doi.org/10.5281/zenodo.11423611

Annotatsiya: Maqolada hozirgi kundagi haykaltaroshlik san'ati sohasida qilinayotgan ishlar va ularning badiiy tahlili haqida fikr mulohazalar yuritilgan. Haykaltaroshlik san'ati haqida o'quvchi yoshlarga ma'lumotlar berish, san'at maktablari, kasb hunar kollejlari hamda tasviriy san'at mashg'ulotlari o'qitiladigan o'quv muassasalarida qo'llash mumkin.

Kalit so'zlar: xaykaltaroshlik, bezak, animalistika,tasvir, kompozitsiya, rassomlar, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik.

O'rta Osiyo tarixini o'rganishda ajdodlarimiz qo'li bilan yaratilgan tasviriy san'at hamda ornamentning noyob namunalari: rasmlar, haykaltaroshlik buyumlari, me'moriy inshootlar, uy-ro'zg'or buyumlari va ulardagi bezaklar muhim o'rin tutadi. Ibtidoiy davrdayoq tasviriy san'at va ornament ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallay boshladi. Odamlar sopol buyumlar va taqinchoqlarga turli o'simliksimon naqshlar chizdilar. Turli xil marosimlarni o'tkazishga mo'ljallangan yirik g'orlarga, qoyatoshlarga diniy marosimlarni, ov va hayvonlar bilan olishuv jarayonlarini o'z davrlariga xos mahorat bilan tasvirladilar. Antik davrga kelib, yirik maqbaralar, saroylar qurish, ularni bezashga katta ahamiyat berila boshlandi. Devoriy suratlar, monumental relyef va haykallarda hukmdorlar, afsonaviy qahramonlar faoliyati ulug'lanadi.

O'rta asrlarda markaziy osiyoliklar san'atning yangi-yangi turlarini kashf etdilar va ularni rivojlantirdilar. Rassomlar, me'morlar, bezakchilar, naqqoshlar, kandakorlar insonning his-tuyg'ulari, diniy e'tiqodlari, tabiat go'zalliklari, mahobat va hashamatni ifoda etuvchi san'at asarlarini yaratdilar. Me'morlar tomonidan qurilgan hashamatli binolar inson aqli, boy tasavvurini o'zida namoyon qilgan bo'lsa, haykaltaroshlik asarlarida insoning go'zalligi, ma'naviy olami badiiy shakllarda o'z aksini topdi. Naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi va kandakorlik namunalari inson aql-zakovatining yuksak namunasi bo'ldi. Saroylar, masjid, madrasa va xonaqohlarda qo'li gul ustalar tomonidan tasviriy san'at va ornamentning takrorlanmas usullaridan foydalanildi.

XIX asrning oxirlariga qadar milliy me’morchilik va tasviriy san’atning yuksak namunalari yaratildi.

Tasviriy san’atning haykaltaroshlik turiga oid mustaqillik yillarida bir qator ajdodlarimizning nomlarini abadiiylashtirish maqsadida, Respublikamizning ko‘pgina markaziy shaharlarida haykallar o‘rnatildi. Mustaqillik yillarida tasviriy san’atning haykaltaroshlik turida salmoqli ijod qilgan, ijod mahsuli sifatida betakror asarlar yaratgan yurtdoshlarimiz taniqli rassom, haykaltaroshlar ijodini o‘rganilib ulardan yosh rassom pedagoglarga haykaltaroshlik san’atidan nazariy hamda amaliy dars mashg‘ulotlarini o‘tishda foydalanishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan. Mustaqillik yillarida yaratilgan I. Jabbarov kabi haykaltaroshlarning bir necha monumental asarlari, badiiy tahlil qilinib ular haqidagi tasniflar mazkur ishda keltirilib o‘tildi. Haykaltaroshlik san’ati qadimdan rivojlanib kelgan. Haykaltaroshlik insoniyat tarixi taraqqiyotining barcha davrlarida shakllanib, rivojlangan. U barcha turlar va janrlarda dunyoning barcha davlatlarida hozirgacha mavjud bo‘lib, rivojlanib bormoqda. Haykaltaroshlik bizni yo‘qolib borayotgan xalqlar hayoti va tarixi bilan tanishtiradi.

Yo‘lda ketayotganimizda, shahardagi xiyobonlarda, markaziy maydonlarda, metro bekatlarida, bog‘larda turli mavzuga bag‘ishlangan haykallar namunalariga duch kelamiz. Ularning namunalari xonadonlarimizda chinni va fayans haykalchalarda, suyakdan yasalgan maishiy shakllar va xalq sopol o‘yinchoqlarida o‘z ifodasini topgan. Haykaltaroshlik o‘zi nima, uning turlari, janrlari maxsus xususiyatlari qanday? Uning ijtimoiy va estetik ahamiyatlari nimadan iborat ekanligini ochish berish. Albatta, biz keltirmoqchi bo‘lgan bu ma’lumotlar umumiy, qisqa bo‘lsa-da, o‘quvchi yoki tomoshabinni haykaltaroshlikka bo‘lgan qiziqishini kuchaytirib, chuqur izlanishlarga murojaat qilishga undaydi..

Haykaltaroshlik insoniyat tarixi taraqqiyotining barcha davrlarida shakllanib, rivojlangan. U barcha turlar va janrlarda dunyoning barcha davlatlarida hozirgacha mavjud bo‘lib, rivojlanib bormoqda. Haykaltaroshlik bizni yo‘qolib borayotgan xalqlar hayoti bilan tanishtiradi. Odamlar tuyg‘ulari va ishonchlarini, Qadimgi Amerikada yashagan olmeklar, inklar, mayya aholisidan qolgan ulkan tosh gavda va bo‘rtmalar, geografik tarxlarda umuman yo‘qolib ketgan G‘arbiy Afrika davlati Benin madaniyati -suyak o‘ymakorligi va bronzadan ishlangan badiiy quymalari, yurtimizning qadim davrlaridagi hayoti va madaniyatiga doir arxeologik topilmalari - quyma va yasama (lepka) haykalchalar, frizlar, ulkan haykallar jahon haykaltaroshligi namunalaridir.

Boshqa san’at turlari kabi, haykaltaroshlik ham doimiy rivojlanishda. Haykaltaroshlik haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, arxeologik topilmalar san’at tarixini kundan kunga yangi ma’lumotlar bilan boyitmoqda.

Tasviriy va me’morchilik san’ati tarixining ilk davri qadim zamonlarga borib taqaladi. G‘ordagi devoriy rasmlar, toshdan va suyakdan yasalgan statuetkalar, tosh plitalardagi va kiyik shoxlari parchalaridagi naqshinkor bezaklar hali inson badiiy ijodiyotini ongli ravishda tasavvur qilishidan birmuncha ilgari yuzaga kelgan. Ilk san’at asarlari o‘zining takrorlanmas sofligi, yorqin ifodaviy kuchi, hayotdagi bilan shu kungacha badiiy ahamiyatini yo‘qatmaganligi hayratlanarlidir. San’atning paydo bo‘lishi va insoniyatning ilk badiiy ijod namunalari ibtidoiy jamoa davriga to‘g‘ri keladi. Chunki, o‘sha davrda jamiyat hayotining ruhiy hamda iqtisodiy asoslari shakllanayotgan edi. Tarixchilar va arxeologlar olib borgan tadqiqotlar san’atning dastlabki yodgorliklari yuqori paleolit davriga oid ekanligini tasdiqlaydi. Bu davr ibtidoiy jamoa tuzumining nisbatan yetilishi, urug‘chilikning shakllanishi, matriarxatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Odam o‘zining jismoniy sifatlari bilan hozirgisidan hech qanday farq qilmas, so‘zlashish, tosh suyak, shox va yog‘ochdan nisbatan murakkab qurol yasash , ov bilan shugullanish malakasiga ega edi. Qadimiy qabilalarning bir necha ming yillar davomidagi taraqqiyoti, ko‘z qarashlari, qo‘l harakatlarining mayinlashuvi, asosiy va xarakterli holatni ko‘rish, his qilish, tabiatdagi xos shakllar uyg‘unligi va g‘o‘zallikni ilg‘ash qoliyatini o‘stiradi. Tabiat bilan chambarchas bog‘liqlik oqibatida odam uni o‘rgandi, o‘zlashtirdi. Natijada “ obraz “ tushunchasi vujudga kelib, ular so‘zda tasvirda, ohanglarda o‘z akini topdi. Atrof muhitdan oylamasdan nusxa ko‘chirish emas , balki tabiatni , hayotiy mahnat tajribalarini ijodiy ifodalsh malakasi paydo bo‘la bordi. Mehnat insonda atrof muhitning boy va ko‘p qirrali jihatlarini ko‘rish qobiliyatini uyg‘otdi. Tosh, yog‘ochdan ishlangan mehnat quroli bilan tanishish, bo‘rtma va yuzaning o‘ziga xosliklarini aniq ilg‘ash hamda uni qabul qilishga o‘rgandilar. San’atning tarixiy rivoji jarayonida uning turlari ham shakllana bordi. Maqola mazmunida tasviriy san’at darslarida haykaltaroshlik asarlarini tahlil qilish vositalari o‘quvchilarni nazariy savodxonligini oshirish samarali ish shakl, usullari aniqlanadi, undan tasviriy san’at o‘qituvchilarning o‘z amaliy faoliyatlarida ijodiy foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda maqola hozirgi kundagi ahamiyati shuni ko‘rsatadiki mustaqillik yillarida yaratilgan bir qator xalq e’tiboriga ega bo‘lgan haykaltaroshlik asarlari tarix salnomalaridan munosib joy olishlari aniq.Chunki bu asarlar o‘zlarida haykaltaroshlikning barcha qonuniyatlari mujassam etgan, xuddi evropa san’atida

uchraydigan ulug‘vor haykaltaroshlik asarlariga o‘xshab ketadi. Bizning taniqli haykaltaroshlarimiz Navoiy bobomizning haykalini Yaponiyaning Tokyo shahriga o‘rnatildi. Ish xususida taklif va tavsiyalar Maktab tasviriy san’at darslarida haykaltaroshlik san’aiti uning rivojlanish tarixi va mustaqillik yillarida yaratilagan haykaltaroshlik asarlari, ijodkorlarni hayoti ijodi ish uslublari haqida o‘quvchilaga ma’lumotlar berish ularda bu san’atga bo‘lgan qiziqish va qobiliyatlarni yuzaga chiqarishda katta omil bo‘lib xizmat qiladi. Mana shularni hisobga olib hykaltaroshlikdagi kompozitsiyalar yaratish qonuniyatlarini ta’limning quyi bo‘ginlaridan boshlab o‘rgata boshlanishi bu san’atning yanada shaklanishida tayanch bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolova D .O‘rta osiyoning ornamenti va tasviriy san’ati tarixi 2021 y.
2. Boymyetov B. Haykaltaroshlik. T.: 200 y.
3. Bulatov S.S. O‘zbyek halq amaliy bezak san’ati. - Mehnat, 1991

TARIXIY JANRDAGI ASARLARNI YARATISHDA KOMPOZITSIYA QOIDALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Yunusov A.Sh.
Sharof Rashidov nomli SamDU Pedagogika ta'limi fakultet talabasi
Ilmiy rahbar San'atshunoslik kafedrasi dots.N.J.Mullajonova
https://doi.org/10.5281/zenodo.11423637

[29] Шорахметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Дарслик. – Тошкент: Адолат, 2007. – 607 б.

[30] Эсанова З.Н. Болалар тарбияси билан боғлиқ низоларни фуқаролик судида кўришнинг процессуал хусусиятлари: Юрид. фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. Тошкент., ТДЮИ. 2010, -32 б.

[31] Михайлова М.И. Представительство: понятие, сущность, условия // Актуальные проблемы экономики иправа, 2017. – № 12. – С.335-339.

[32] Лисневский В.С. Институт представительства в гражданском процессе Российской Федерации: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Томск: Российский государственный профессионально-педагогический университет, 2017. – 27 с.

-Jamiyatdagi subyektlarning huquq va majburiyatlarini o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlaydi;

-shaxslarning o‘z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishga yordamlashadi;

-shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklarini buzilishining oldini oladi;

-subyektlar o‘rtasida o‘zaro huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlash va boshqa vaziyfalarini bajarishi bilan jamiyat taraqqiyotida muhim hisoblanadi.[33]

Hozirgi kunda qonunchiligimizda fuqarolik protsessida vakillikning ikkita turi mavjud : 1) qonuniy vakillik; 2) shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillik.

Qonuniy vakillik – muomala layoqatiga ega bo‘lmagan yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar) himoya qilishidir.

İxtiyoriy vakillik esa ıshonch bildiruvchi o‘z huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha sudda ish yuritishni shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakillikka binoan vakilga topshirishi hisoblanadi. Quyidagilar ixtiyoriy vakil sifatifa sudda ishtirok etishi mumkin:

1) advokatlar;

2) nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan yoki yon shajara bo‘yicha qarindoshlar, shuningdek er (xotin) yoxud uning qarindoshlari;

3) yuridik shaxslarning xodimlari — shu yuridik shaxslarning ishlari bo‘yicha;

4) notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari — shu tashkilotlar a’zolarining ishlari bo‘yicha;

5) qonunga binoan boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqi berilgan notijorat tashkilotlarning vakolatli vakillari;

6) birgalikda ishtirok etuvchilardan biri boshqa birgalikdagi ishtirokchilarning topshirig‘i bo‘yicha;

7) ishni ko‘rib chiqayotgan sud tomonidan ishda jismoniy shaxslarning vakillari sifatida ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilgan shaxslar.[34]

İxtiyoriy vakillik turlari ichida advokatlik instituti alohida o‘ringa ega hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining 27.12.1996 yildagi 349-I-son “Advokatura to‘g‘rısıda” Qonuniga muvofiq oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan va advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi O‘zbekiston Respublikasida advokat bo‘lishi mumkin.

[33] Oqyulov.O Fuqarolik huquq darslik. - T: - 2017: TDYU, 2017. - 125 c.
[34] https://lex.uz/docs/-3517337. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi

Advokatlik institutini rivojlantirish uchun ko‘plab ishlar amalga oshirildi va advokatlik faoliyatiga noqonuniy aralashganlik uchun javobgarlik balgilangan. Advokatlar faoliyatining erkinligi qonunlar bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Yangi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida advokatlarning maqomi yanada mustahkamlandi va bu yo‘ldagi islohotlar jadal davom etmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga Advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish islohoti kiritilgan. Ushbu islohotni amalga oshirishda quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

Advokatura institutini o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish hamda uning davlat organlari va boshqa tuzilmalardan chinakam mustaqilligini ta’minlash.

Advokatlar malakasini oshirishning zamonaviy va xalqaro standartlarga mos keluvchi va muqobillik tamoyiliga asoslangan tizimini joriy etish.

Advokatlar sonini kamida 2000 nafarga ko‘paytirish.

Fuqarolik, ma’muriy va iqtisodiy ishlar bo‘yicha advokatlar hamda sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari o‘rtasida elektron hujjatlar almashinuvi darajasini kamida 50 foizga yetkazish.[35]

Fuqarolik protsessida vakil ishtiroki fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan huquqlarini amalga oshirishda muhim bosqich sanaladi. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda bepul yuridik yordam olish huquqi taminlanishi fuqarolarning huquqiy ongini o‘sishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli vakillik institutining rivojlanishi uchun islohotlarni jadal amalga oshirish muhim sanaladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Шорахметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Дарслик. – Тошкент: Адолат, 2007. – 607 б.
2. Эсанова З.Н. Болалар тарбияси билан боғлиқ низоларни фуқаролик судида кўришнинг процессуал хусусиятлари: Юрид. фанлар доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. Тошкент., ТДЮИ. 2010, -32 б.
3. Oqyulov.O Fuqarolik huquq darslik. - T: - 2017: TDYU, 2017.
4. Лисневский В.С. Институт представительства в гражданском процессе Российской Федерации: Автореф. дис. канд. юрид. наук. – Томск:
5. Российский государственный профессионально-педагогический университет,2017.

[35] https://lex.uz/ru/docs/-6600413. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

6. Михайлова М.И. Представительство: понятие, сущность, условия // Актуальные проблемы экономики и права, 2017. – № 12.
7. https://lex.uz/docs/-6445145. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 01.05.2023 yil.
8. https://lex.uz/docs/-3517337. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi
9. https://lex.uz/ru/docs/-6600413. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

ZOOPLANKTONLAR BILAN OZIQLANTIRILGAN BALIQ LICHINKALARINI KUZATISH

Gulafruz Ne’matova Nasrulloyevna
Buxoro davlat universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439615

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada baliqning inson organizmiga foydalari, va baliqchilik xo‘jaliklarida ozuqa turiga qarab baliq va ularning lichinkalaridagi o‘zgarishlarni laboratoriya sharoitida trofologik kuzatish tahlil va natijalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: biomassa, Ciliophora, Rotatoria, oq amur, akvarium baliqlari, lichinka,sun’iy ozuqa,Asplanchna priodouta, Polyarthra luminoza, Lecone monastyla, Brachfous quadridentus, Naupli, trofologik tahlil.

Abstract: This scientific article describes the benefits of fish to the human body, and the results of trophological monitoring of fish and their larvae in laboratory conditions depending on the type of feed in fish farms.

Keywords: biomass, Ciliophora, Rotatoria, grass carp, aquarium fish, larva, artificial feed,Asplanchna priodouta, Polyarthra luminoza, Lecone monastyla, Brachfous quadridentus, Naupli, trophological analysis.

Baliq inson organizmini tozalovchi, suyak va tishlarni mustahkamlovchi shifobaxsh, oqsil, vitamin, mikroelementlar, omega-3 yog‘ kislotalari mavjudligi, qari va yoshga birdek mos tushishi, yurak, ko‘z, nevrologik va yana boshqa ko‘plab kasalliklarga da’vo bo‘lishi nuqtai nazaridan mol va qo‘y go‘shtidan yuqori turadi. Shu sababli ko‘plab biolog olimlarimiz so‘nggi yillarda baliqchilik xo‘jaliklarini tashkil qilishmoqda. Baliq ko‘paytirish jarayonida baliq chavoqlari yetishtirish jarayoni ayniqsa, ular uchun ozuqa bo‘ladigan birlamchi ozuqa katta rol o‘ynaydi. Jumladan, infuzoriyalar, kolovratkalar baliq chavoqlari uchun oqsilga boy, xlorellaga qaraganda yirikroq hajmli, va yetishtirish kam mablag‘ va minimal sharoit talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Shuningdek, infuzoriyalar, kolovratkalar suv biotsenozlarining ozuqaviy zanjirlarida muhim rol o‘ynaydi. Ular detritus, bakteriyalar, boshqa protozoa, bir hujayrali suv o‘tlarini iste’mol qiladilar; o‘zlari suvda yashovchi umurtqasizlar va baliq chavoqlari uchun oziq hisoblanadi.

Infuzoriyalar (Infuzoria, Ciliophora) -yuksak rivojlangan bir hujayrali hayvonlar tipi. Tanasining uzunligi 12 mkmdan 3 mm gacha. Kolovratkalar

(Rotatoria)-ko‘p hujayrali umurtqasizlar. Tana o‘lchamlari 0,1-0,5 mm. Ushbu kichik o‘lchamlardan baliqchilikda unumli foydalanish juda foydali bo‘lib yirik baliq yetishtirish korxonalari tashqi oziqlanishga o‘tgan baliq lichinkalarini bevosita ushbu hayvonlar bilan boqishlari 90 foizgacha baliq lichinkalarini mazkur o‘tish davridan eson-omon o‘tib olishlariga imkon bersa, kichik o‘lchamga ega akvarium baliqlari (guppi, barbus, danio, skolyariy, gurami, sixlid, neonlar va boshqalar) o‘z rivojlanishining katta qismini ushbu hayvon oziqlari bilan bog‘lashlari muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Baliqlarda ixtioftirius, uy hayvonlari va odamlarda balantidiy parazitlik qilib, katta ziyon keltiradi. Infuzoriya va kolovratkalarni baliq chavoqlari uchun eng “sevimli taom” deb aytsak bo‘ladi. Bu zooplanktonlarni yetishtirish juda katta foyda olib kelishi mumkin. Sababi birinchidan oddiy juda tez bo‘linib ko‘payishi sababli massa tez ortadi. Aniq bir belgilangan sharoitlar(qat’iy temperatura, muayyan yorug‘lik, uzoq muddatli davr, ma’lum bir yashash muhiti) talab qilmaydi. Oddiy uy sharoitida ham yetishtirish mumkin.

Infuzoriya va kolovratkalar uchun optimal sharoit 22-26 gradus. Ozuqasi hamma joyda uchraydigan bakteriyalar, mikroorganizmlar. Infuzoriyalar va kolovratkalarni ariq, zovur, ko‘lmak, akvarium suvlaridan tortib oddiy yomg‘ir suvi ko‘lmaklaridan ham topishimiz mumkin.

Oddiy 3 litrlik shisha idishlarga (plastik idish ham bo‘ladi) akvarium (yoki ko‘lmak) suvidan quyamiz. Va quritilgan banan po‘stloqlaridan 3-4 bo‘lak solamiz. Bunda boshqa sabzavot va mevalarni ham quritib ishlatsa bo‘ladi. Faqat quritilgan bo‘lishi kerak. Chunki quritmasdan ishlatganimizda u yerda bijg‘ish jarayonlari kuchayib, bakteriyalar nihoyatda ko‘payib ketishi natijasida zooplankton massali emas, bakteriya massali idishga aylanib qoladi.

Demak, suv va quritilgan banan po‘stlogi solingan idishimizni ogzini iloji boricha havo kiradigan qilib 20-26 gradusli joyga qo‘yamiz. Bunda bizga yuqorida aytilganday ma’lum yorug‘lik, namlik, joy talab qilinmaydi. Hatto haroratimiz optimal bo‘lmasa ham zooplanktonlarimiz nobud bo‘lmaydi, bo‘linadi. Faqat bunga nisbatan ko‘proq vaqt ketadi. Akvarium suvidan olib bajargan ishimiz uchun o‘rtacha bir hafta vaqt ketadi. Bu muddatni yanada qisqartirishimiz ham mumkin buning uchun 2-3 chimdim achitqi yoki bir necha tomchi sut tomizamiz. Bunda muddat 3-4 kungacha qisqaradi.

Demak, kultura tayyorladik, lekin bu kultura bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri baliq chavoqlarini oziqlantirib bo‘lmaydi. Baliq chavoqlarini oziqlantirishdan oldin kulturani filtrlash kerak. Bo‘lmasa chavoqlar rivojlanayotgan suv tezda buziladi.

Filtrlash uchun kulturani filtr qog‘oz, ipak yoki kapron gazlamadan o‘tkazamiz. Yoki yana bir usuli bor. Og‘zi uzun vz ingichka, torroq(tangadek) keladigan idishlarga kulturamizni idishning ingichka og‘zi boshlanguncha quyamiz. Oshxonada ishlatiladigan idish yuvadigan shimgich(gubka)dan yupqa qilib idish og‘zining diametridan sal kattaroq qilib kesib olib, idishga joylashtiramiz. Va shimgichdan yuqoriga ohistalik bilan idish to‘lguncha toza suv quyamiz. Shimgich pastdagi havo yo‘lini to‘sib qo‘yganligi tufayli, infuzoriyalarga havo yetmay shimgichning ustki qismidagi suvga o‘ta boshlaydi. Shu holda bir muddat qoldiramiz. 10-15 minlardan keyin kuzatsak, shimgichdan yuqoridagi suvda bulutsimon tasvirni ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Endi mana shu filtratdan shpritsda suzib olib chavoqlarni oziqlantirsak bo‘ladi.

Biz tekshirayotgan ichinkalar rivojlanishning A va B(predlichinka) bosqichlarida edi.

A bosqich. Katta sariqlik xaltasiga ega. Suzgich burmasi orqa, dum va qorin qismlarga differensiallasha boshlaydi. Suzgich pufagi havosiz. Chavoqlar uzunligi 4,0-5,0 mm, og‘irligi 2,5 mg.

B bosqich. Sariqlik xaltasi saqlangan. Suzgich burmasi orqa, dum va qorin qismlarga differensiallasha boshlaydi. Suzgich pufagi havo bilan to‘lgan. Uzunligi 5,0-5,5 mm, og‘irligi- 3,0 mg.

Dastlabki lichinkalar (C1-D1) 4-kuni ham topildi.

Lichinkalar o‘stirishning 4-kunida bizda ozuqa yetishmovchiligi muammosi paydo bo‘ladi. Ozuqa yetishmasligining oshishi davom etaveradi. Trofologik tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, zooplankton biomassasining yetishmovchiligi bilan oziqlanish spektri va ichakning to‘ldirilish indeksi pasayar ekan.

Natijada, biz D1 bosqichdan boshlab lichinkalarni sun’iy oziqlantira boshladik. Sun’iy oziqlantirishni kuniga 2 marta: ertalabki soat 10:00 da va tushlikdan keyin soat 17:00 da amalga oshirdik. lichinkalarning ichaklarini tekshirganimizda katta miqdorda, 80-90%gacha un topilgan, qolgan qismi zooplanktonlardan iborat bo‘lgan.

C1 bosqich. Sariqlik xaltasi yo‘q. orqa va dumosti chegaralarida, shuningdek, pastki dumli uchida mezenximaning uncha kata bo‘lmagan qalinlashishi paydo bo‘ladi. Uzunligi 15mm, vazni 10 mg. dastlabki lichinkalar endogen oziqlanishdan ekzogen oziqlanishga o‘tadi. Ularning Ichaklarida infuzoriya va mayda zirhsiz kolovratka, detritlardan iborat ozuqa bo‘laklarini topdik. Ichakning to‘ldirish indeksi-28,9%.

C2 bosqich. Pastki dum uchida birinchi mezenximal nurlar rivojlanadi. Xorda oxiri birmuncha yuqoriga egilgan. Dum va anal suzgichlarda mezenximaning egilish

belgilari yaxshi ko‘rinadi. Uzunligi 18-20mm, og‘irligi 12-13 mg. Ozuqa bo‘laklarida:Asplanchna priodouta, Polyarthra luminoza, Lecone monastyla, Brachfous quadridentus, Naupli va detritlarni topdik.

Ozuqa bo‘lagining asosiy qismi kolovratkalar- 62,3% bo‘lib, ichakning to‘ldirish indeksi-128%.

D1 bosqich. 10-kuni topildi. Xordaning orqa uchi yuqoriga yo‘nalgan, dum suzgichda esa suyak nurlari ko‘rinadi, dum suzgich biroz botiq bo‘lib, uning ustida membranali uch hosil bo‘ladi. Uzunligi-28mm, og‘irligi- 18mg. ushbu bosqichlardagi lichinkalar juda harakatchan va tashqi ta’sirlarga tez javob beradi. Ozuqa bo‘lagida Asplanchna priodouta, Brachfous quadridentus, Naupli va detritlar topdik. Ichakning to‘ldirish indeksi-115%.

Xulosa qilib aytganda, lichinkalar rivojlanishning dastlabki bosqichlarida ekzogen oziqlantirishga o‘tar ekan. Ozuqa bo‘laklari asosan infuzoriyalar, kolovratkalardan iborat bo‘ldi. Ozuqa- lichinkalar vazning 5-6%ini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochil Mavlonov, Shukur Xurramov, Zarif Norboyev “Umurtqasizlar zoologiyasi” Toshkent “O‘zbekiston”2002

2. Natali V.F “Zoologiya bespozvonochnix” M., “Prosveshenei” 1975

3. Averinsev S.V. “zoologiya bespozvonochnix” M., “Sovetskaya nauka” 1962

4. Kuzmetov A.R “Zooplankton ribovodnix prudov Uzbekistana” Tashkent 1998

5. L.A.Kutikova; P.A.Foliyan. “*Biologicheskie osnovi ribnogo xozyaystva vodoyomov sredney azii i Kazaxstana” 1978*

6. Aqvium.ru

7. Foksford.ru

PROFESSIANAL TA’LIMDA TIKUV BUYUMLARINI KOMPUYTERDA LOYIHALASH DASTURLARI ORQALI TIZIMNI TAKOMILLASHTIRISH

Gulzodaxon Murodjonovna Teshaboyeva
Yozyovon tumani 1-son kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi.
gulzodaxonteshaboyeva@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439637

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb-hunar maktablarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarni o‘qitish tizimini raqamli resurslardan foydalanilgan holda eng so‘ngi texnologiyalaga yo‘naltirib, bilim va malakalarini oshirish haqida ma’lumotlar jamlangan.

Kalit so‘zlar: professional ta’lim, ko‘nikma, kasbiy ta’lim, kasb, zamonaviy, amaliy, texnologiya, dastur, kadrlar, ALT, kompuyter, innovatsion, malaka.

Respublikamizda o‘z soxasining mutaxasis kadrlariga ehtiyoj bor ekan, ularga yetarlicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muxim . Demak, professional kadrlarni tayorlash uchun professional ta’lim ishlab chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, yuksak ma’naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayorlash milliy tizimini yaratish maqsadida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur mavjud va bo‘lajak masalalarga umumiy vayaxlit ,o‘zaro bir – biri bilan bosqichma – bosqich amalga oshiriladigan ta’lim tizimini belgilab berish uchun hizmat qiladi. Kundan kunga tez va to‘xtovsiz rivojlanib borayotgan davlatlar bilan bir qatorda turish uchun ta’lim tizimini ham rivojlantirish lozim. Professional ta’lim tizimidagi ushbu amaliy kasbiy ta’lim metodlar ham yuqori malakali mutaxasis tayorlashga yordam beradi. Amaliy kasbiy ta’lim metodlari–o‘qituvchi bilan o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyat usullari bo‘lib, ular yordamida o‘quvchilar tomonidan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilishiga erishiladi, ularda kasbiy maxorat asoslari shakllantiriladi, aqliy va jismoniy kuchla rhamda ijobiy qobilyatlar rivojlantiriladi.

Rivojlanib borayotgan bugungi kun davriga e’tibor beradigan bo‘lsak har bir sohada ayollarni ko‘rishimiz mumkin. Tikuvchilik sohasi ham zamon o‘zgarishlari bilan teng suratlarda rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda barcha kiyim turlarini ishchi kuchini kam sariflagan holda, zamonaviy texnologiyalar yordamida, sifatli korinishda tayyorlash mumkinligi oddiy holga aylanib bormoqda.

Barcha kiyimlarni avtomatlashtirilgan dasturiy ta’minoti (Auto CAD, Gemini CAD) vositasida qurish juda oson va qulay hamdir. Tikuv buyumlarini kompuyterda loyihalash bo‘yicha nazariy va amaliy fanlar tizimini kengaytirib o‘quvchilarni bilimlarini oshirish bilan biz ko‘zlangan maqsadga ko‘proq erishamiz. Yoshlarni kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirish, ularni kelajakda o‘z yo‘llarini topishda bu kabi yangi dasturiy fanlarga oid bilimlar juda ham katta natija berishiga ishonimz.

Yangi sanoat buyumlariga bo‘lgan ehtiyoj katta hajmdagi loyiha ishlarini bajarish, bunda fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan samarali foydalanish iqtisodiy masalalarni hal etishning muhim shartlaridan biri. Loyiha sifatiga, uning tezkor bajarilishiga bo‘lgan talablar loyiha ob’ektlarining murakkabligiga va ularning muhimligiga qarab yanada ortib boradi. Ishchi va xizmatchilar sonini ortishi hisobiga bu talablarni qondirish muammoni hal etmaydi, chunki bu holda loyiha ishlarini parallel ravishda olib borish imkoniyati kam va muhandis kadrlar soni chegaralangandir. Muammoni loyiha jarayonlarini avtomatlashtirish va ishlab chiqarishga informatsion texnologiyalarni joriy etish orqali hal etish yaxshi samara beradi. Axborot texnologiyasi (AT)- hisoblash texnikasini qo‘llab ma’lumotlarni boshqarish va ularga ishlov berish texnologiyalaridir. AT deganda ko‘pincha kompyuter texnologiyalari tushuniladi.AT kompyuterlardan foydalanish,ma’lumot-larni programma vositalari orqali saqlash, o‘zgartirish,hilma xillash, ishlov berish, uzatish va qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi kunda tikuv sanoati korxonalari ishining samaradorligi ko‘p jihatdan ularning yuqori sifatli texnik va programma vositalari bilan ta’minlanganligiga bog‘liq.Bu esa o‘z navbatida texnologik jarayonlarni o‘zaro moslashuvchanligi va ishlab chiqarish bo‘linmalari ishining avtomatlashtirilganligi hamda ularning o‘zaro birgalikda ishlay olish imkoniyati bilan belgilanadi. Zamonaviy kompyuterlashtirilgan tizimlarga avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari (ALT yoki CAD), ishlab chiqarishni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari (ICHBAT), integrallashgan ALT va elektron hisoblash texnikasiga asoslangan zamonaviy texnologik uskunalar kiradi.Bozor iqtisodiyoti sharoitida kiyim ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning modaga mos kiyim ishlab chiqarishida vaqt omili eng muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, yangi mahsulotni o‘z raqobat-chilaridan ikki hafta avval ishlab chiqargan korxona bozorning 50% ulushiga ega bo‘ladi. Zamonaviy kiyimlar ishlab chiqarish uchun extiyoj va talab o‘zgarishini tezkor ravishda hisobga olish, ilg‘or sanoat texnologiyalarini qo‘llash, ishlab chiqarishga yangi modellar joriy etishda mehnat va moddiy harajatlarni kamaytirish va pirovard natijada buyum sifatini oshirish va uning ishlab chiqarishga joriy etish muddatlarini qisqartirish asosan tikuv jarayonlariga avtomatlashtirilgan tizimlarni


joriy qilish evaziga amalga oshiriladi. ALTni joriy etish uchun sarmoya ajratgan buyurtmachini tizimning samaradorligi, texnologiyani o‘zini o‘zi qoplash va joriy etish muddati qiziqtiradi. Shunday ekan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishish birinchi navbatda buyurtmalarning tez suratda bajarilishi va xom-ashyoga ketgan harajatlarning kamayishiga bog‘liq. Avval ancha qiyin bo‘lgan bu masala,hozirda informatsion texnologiyalarni joriy etilishi bilan oson hal etilishi mumkin.



1- rasm.Kichik formatda kesuvchi plotter.



2-rasm.Katta formatda kesuvchi plotter



3- rasm.Chop etuvchi plotter

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O‘zbekiston ,2017 yil,488 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon , demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O‘zbekiston ,2016 yil,56 bet .

3. Mirziyoyev Sh.M.Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, O‘zbekiston ,2017 yil,48 bet.

4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni

Internet saytlari

https://www.amazon.com/Computer-Fashion-Design-Gerber-Technology/dp/1563674327

https://tukatech.com/tuka3d-de/tuka-3d-fashion-design-software/

https://learn.corel.com/wp-content/uploads/2020/03/image3.jpg

https://images.app.goo.gl/yvBGtrN2zt3UaEjSA

NOTARIAT FAOLIYATIDA YUZ BERAYOTGAN HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI

Doniyorbek Qalandarov Ulug‘bek o‘g‘li
Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, Magistratura va sirtqi ta’lim fakulteti, Davlat boshqaruv huquqi mutaxassisligi magistranti
qalandarovdoniyor88@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439663

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy notariat tizimda yuz berayotgan yangiliklar, notarial xizmatlar ko‘rsatish sohasining tezkorligini oshirish, sohani raqamlashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning huquqiy asoslari to‘g‘risida bir qator ahamiyatli ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, sohada yuz berayotgan huquqbuzarliklar hamda ular to‘g‘risidagi ayrim statistik ma’lumotlar hududlar kesimida taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: Notarius, profilaktika, statistika, notarial faoliyat, ma’muriy sudlar, rad etish,

Annotation: This article presents a number of important information about the innovations in the modern notary system, the improvement of the speed of notary services, the reforms implemented in the area of digitization and their legal basis. Also, violations occurring in the field and some statistical information about them are presented in the section of regions.

Key words: Notary, prevention, statistics, notarial activity, administrative courts, refusal,


Аннотация: В данной статье представлен ряд важных сведений о нововведениях в современной нотариальной системе, повышении скорости оказания нотариальных услуг, реформах, реализуемых в сфере цифровизации и их правовой базе. Также в разделе регионы представлены нарушения, происходящие на местах, и некоторая статистическая информация о них.

Ключевые слова: Нотариус, профилактика, статистика, нотариальная деятельность, административные суды, отказ

Kirish

So‘ngi yillarda mamlakatimizda notariat institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta’minlash hamda fuqarolarga malakali huquqiy xizmatlar ko‘rsatish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020 – yildan xususiy

notariuslar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi (bugungi kunda ularning soni 1000 dan oshdi), 48 turdagi notarial xizmatlar ko‘rsatilishi, Adliya vazirligi tomonidan yagona axborotlashtirilgan elektron notarius (e-notarius.uz) portalning yaratilishi, shubhasiz sohani yanada rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi[36]. Mazkur tizimning ishga tushirilishi fuqarolar va yuridik shaxslarga notarial xizmatlarni tezkor, ortiqcha ovoragarchiliksiz, masofadan turib ko‘rsatish imkonini bermoqda. Mazkur islohotlar sabab, sohada yuz berayotgan qonun doirasidan chetga chiquvchi hatti – harakatlar soni ham sezilarli darajada kamaymoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 – yilda respublika miqyosida ma’muriy sudlar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish yoki notariusning harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi jami 93 ta ma’muriy ishlar ko‘rilgan. Tegishli ravishda mazkur ko‘rsatgich 2022 – yilda 110 tani tashkil etganligini hisobga olgan holda, o‘tkazilayotgan profilaktik tadbirlar samarali natija berayotganligini ko‘rishimiz mumkin.




Mazkur taoifadagi ishlarning tumanlararo sudlari bo‘yicha hududlar kesimidagi tahliliga ko‘ra, eng ko‘p ko‘rsatgich Toshkent shahariga (16 ta) to‘g‘ri keladi. Eng kam ko‘rsatgich Urganch shahri hissasiga to‘g‘ri keladi. 2022 – yilda Urganch tumanlararo sudida 12 ta notarial harakatlarni amalga oshirish yoki notariusning harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to‘g‘risidagi ishlar ko‘rilgan bo‘lsa,

[36] D.Qalandarov – “E – notarius” (Belorus international scientific research conference . Minsk – 2024) 83 – bet.

2023 – yil holatiga ko‘ra Urganch tumanlararo sudida mazkur toifadagi ishlar biror marta ko‘rilmaganligi albatta quvonarli holat hisoblanadi[37].

E – notarius online platformasi orqali notarial xizmatlar foydalanuvchilari qonunga zid hatti – harakatlarga duch kelganda, ular uchun saytda maxsus ishonch telefonlari orqali murojaat qilish imkoniyati yaratilgan[38]. Mazkur imkoniyat ham nafaqat murojaat qiluvchilar, balki notarial xizmat ko‘rsatuvchi notariuslarga ham xizmatlardan qonuniy tartibga foydalanish uchun imkoniyat yaratib beradi.

Ma’muriy sudlar tomonidan notarial harakatni amalga oshirish rad etilganligi yoki notariusning harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan 23 ta ariza qanoatlantirilgan, 47 ta ariza qanoatlantirilishi rad etilgan. Statistik ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, 2023 – yilda qanoatlantirilgan arizalar soni 2022 – yildagiga nisbatan 29 tadan 23 taga kamaygan. (20,7 foizga) Arizani rad etish holatlari ham 62 tadan 47 taga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. (24,1 foizga)



Ma’muriy organ yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashishda, javobgar sifatida arizada (shikoyatda) harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilinayotgan tegishli yuridik shaxs va mansabdor shaxsning o‘zi ko‘rsatiladi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 – yil 19 – maydagi “Ma’muriy ishlarni

[37] Sud.uz
[38] E - notarius

ko‘rishda birinchi instansiya sudi tomonidan prosessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 15-sonli qarorning 5-bandida tushuntirilgan[39].

Shu munosabat bilan, agar arizada harakatlari shikoyat qilinayotgan mansabdor shaxs ko‘rsatilmaganligi, ariza ish yuritishga qabul qilingandan keyin aniqlansa, sud ushbu shaxsni ma’muriy sudda ish yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 41-moddasiga asosan ishga jalb qilishi lozim. Biroq, ayrim hollarda sudlar tomonidan harakati shikoyat qilinayotgan mansabdor shaxslar jalb qilinmasdan ishni mazmunan ko‘rib chiqish holatlari uchramoqda.

Xulosa sifatida, sudlarning e’tibori talab sudga taalluqlilik qoidalari buzilgan holda ma’muriy sudga taqdim etilgan bo‘lsa, ariza (shikoyat) taalluqliligiga ko‘ra fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga yoki iqtisodiy sudga ko‘rib chiqish uchun o‘tkazish lozim. Agar bildirilgan talab ma’muriy, fuqarolik yoki iqtisodiy sudga taalluqli bo‘lmasa, u holda arizani MSIYutK 133-moddasi birinchi qismining 1-bandiga asosan qabul qilishni rad etilishi zarur.

Foydalanilgan manbalar:

1. [1]D.Qalandarov – “E – notarius” (Belorus international scientific research conference . Minsk – 2024) 83 – bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018 – yil 19 – maydagi “Ma’muriy ishlarni ko‘rishda birinchi instansiya sudi tomonidan prosessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 15-sonli qarori

Internet resurslar:

Sud.uz

E – notarius.uz

Lex.uz

[39] Lex.uz

TARIX FANINI INNOVATSION O‘QITISH ORQALI YOSHALARDAGI VATANPARVARLIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Jahongir Yunusaliyev Ortiqbayevich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439689

Annotatsiya: Maqolada tarix fanini innovatsion o‘qitish orqali yoshalardagi vatanparvarlik dunyoqarashini rivojlantirish masalalari, o‘quv-amaliy faoliyati og‘zaki-ko‘rgazmali o‘qitish usuli bilan bog‘liq har xil jihoz va mexanizmlar vositasida qiladigan ishlari, har xil topshiriqlarni bajarishlari, ijodiy tadqiqot ishlaridan iboratdir. Bu esa tarix darslarida amaliy metod asosida amalga oshirish, O‘zida aniq tarixiy voqeliklarni aks ettiruvchi buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi, ilmiy-tarixiy asarlari bir qator didaktik imkoniyatlarga ega ekanligi aniq misollar orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ahmad Farg‘oniy, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, ilmiy meros, Renasans davri, Yangi O‘zbekiston, zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar, Markaziy Osiyo sivilizasiyasi.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития патриотического мировоззрения молодежи посредством инновационного преподавания истории, их учебно-практической деятельности с помощью различного оборудования и механизмов, относящихся к устно-наглядному методу обучения, и выполнения ими различных задач. , состоит из творческих исследовательских работ. Это делается на занятиях по истории на основе практического метода и на конкретных примерах показывается, что научное наследие наших великих предков, научно-исторические труды, отражающие конкретные исторические реалии, обладают рядом дидактических возможностей.

Ключевые слова: Ахмад Фаргани, Имам Бухари, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Мирза Улугбек, научное наследие, период Возрождения, Новый Узбекистан, современные специализированные школы, центральноазиатская цивилизация.

Annotation: In the article, the issues of developing the patriotic worldview of young people through innovative teaching of history, their educational and practical activities with the help of various equipment and mechanisms related to the oral-visual teaching method, and their performance of various tasks , consists of creative

research works. This is done in history classes based on a practical method, and it is shown through concrete examples that the scientific heritage of our great ancestors, scientific-historical works, which reflect specific historical realities, have a number of didactic possibilities.

Key words: Ahmad Farghani, Imam Bukhari, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, Mirza Ulugbek, scientific heritage, Renaissance period, New Uzbekistan, modern specialized schools, Central Asian civilization.

Hozirgi kunda tarix fanini o‘qitishni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan konsepsiya doirasida ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur jarayonda tarixiy xotirani sog‘lomlashtirish, unda buyuk ajdodlar merosini o‘qitish tizimini zamonaviylashtirish, yangicha yondashuvlar va eng so‘nggi ma’lumotlar bilan boyitishga harakat qilinmoqda. Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida yoshlarda buyuk ajdodlar shaxsiyatiga munosib voris bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish orqali ularni ilm-fan, texnika-texnologiya taraqqiyotiga, jamiyatning rivojlanishiga o‘z ulushini qo‘shadigan mutaxassislar qilib tarbiyalash dolzarblik kasb etmoqda. Mana shu jarayonda yoshlarda buyuk ajdodlar ilmiy merosi asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Zero, «donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi»[40]. Buning uchun «biz «Yangi O‘zbekiston maktab ostonsidan boshlanadi» degan ulug‘ g‘oya asosida mamlakatimizda maktab ta’limini umummilliy harakatga aylantirish bo‘yicha boshlangan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish»[41]imiz, yurtimizda mutlaqo yangi mazmun va shakldagi zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini yaratish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqsh talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da milliy ta’lim jarayonini tashkillashtirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning konseptual asoslari, maqsadlari, ularni hal qilish bilan bog‘liq muammolarni yechish vazifalari va yo‘llari aniq hamda ravshan belgilab berilgan. Jamiyatimizning asosini tashkil etuvchi yoshlarni bugungi kunda jamiyat qiyofasini belgilash, millat oldidagi mas’uliyatini his etish, ular dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishga qaratilgan tarbiya jarayonlarini takomillashtirish mamlakatimizning bugungi kun ta’lim tizimida kechayotgan muhim tarbiyaviy jarayondir.

[40]Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2021. –Б. 225.
[41]Ўша асар. –Б. 226.

Mazkur paragrafda buyuk ajdodlarimiz merosi vositasida tarix fanini o‘qitish tizimini takomillashtirish, pedagogik jarayonda buyuk ajdodlar merosini to‘g‘ri va obyektiv tushuntirish va real asoslar bilan dalillash asosida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va ularda ilm-fan, ilmiy faoliyat hamda izlanishlarga yo‘naltirishning shart-sharoitlari tadqiq etilgan.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo sivilizasiyasi shakllanishi va rivojlanishida uning “yuragi” hisoblangan O‘zbekiston hududi muhim o‘rin tutgan. Mamlakatimizda joylashgan tarixiy-madaniy meros obyektlari, «Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv hamda bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi»[42]. Bunday ilmiy merosni va uni yaralishiga yuksak hissa qo‘shga mutafakkirlarning asarlari, ilmiy g‘oyalari va qarashlarini o‘quvchilarga o‘rgatish, ularga motivatsiya berish va qiziqtirish orqali ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Hech bir millat tarixiy xotirasiz o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilab ololmaydi. Shuning uchun ham jamiyatimizda tarix fani vakillari zimmasiga ulkan vazifalar yuklatilmoqda. Ular tarixni o‘qitishda yuksak mas’uliyatni anglagan holda tarixiy dunyoqarashni shakllantirish bilan birga o‘quvchilarda o‘tmish ajdodlar merosiga munosib bo‘lish hissini shakllantirish ham muhim vazifalardan biridir.O‘tgan davr ichida, Ahmad Farg‘oniy, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi o‘nlab allomalarimizning xalqaro miqyosda o‘tkazilgan tavallud sanalari, ularning qadamjolarini obod etish va asrab-avaylash borasidagi ulkan ishlar xalqimizning, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitibgina qolmasdan, buyuk o‘tmishimizdan meros bebaho ma’naviy mulkining jahon miqyosida yanada chuqurroq tushunilishi va keng e’tirof etilishiga xizmat qildi. Ayniqsa, o‘rta asrlarda yurtimiz zaminidan o‘nlab buyuk olim-u shoirlar,buyuk mutafakkirlarning matematika, fizika, kimyo,astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi tabiatva jamiyatshunoslik fanlarining barcha sohalariga oid asarlari faqat O‘rta Osiyo xalqlarining emas, balki butun dunyo xalqlarining ma’naviymulkidir.Mana shu ilmiy meros vositasida o‘quvchi-yoshlar ongiga ta’sir

[42]Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент.: Маънавият, 2008. – Б. 30-31

ko‘rsatish, ularni tarbiyalash asosida ilmiy dunyoqarashini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Tarixdan ma’lumki, mamlakatlarning jadal taraqqiy etishi sabablaridan biri millat tarbiyasini tashkil etishni o‘z vaqtida anglagan va to‘g‘ri amalga oshirganligi hisoblanadi. Shubhasiz, O‘zbekistonda ham shunga o‘xshash puxta o‘ylangan ta’lim tizimi mavjud. Biroq uni amalga oshirishning asosiy mazmuni, ta’limning barcha sohalarini, birinchi navbatda, tarix ta’limini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni, jumladan, tarixiy merosimizdan, buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosidan to‘g‘ri foydalanish, tarixiy bilimlar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy bilimlariga doir tasavvur va tushunchalari tizimini kengaytirish talab etildi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlili, «Sharq mutafakkirlari qoldirgan qadriyatlar, ularning qarashlari vositasida o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda bir qator pedagogik yondashuvlarga amal qilish lozimligini ko‘rsatdi. Ular quyidagilar: tarbiya jarayonida o‘quvchilar ma’naviyatini Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan qadriyatlar asosida shakllantirishga qaratish; tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy hayot va kasbiy mehnat sirlarini egallash bilan uyg‘unlashtirish; hurmat qilish; o‘quvchilarni ma’naviy-madaniy yuksaltirish jarayoniga nisbatan talabchanlik, hushyorlik bilan yondashish; o‘quvchilarda Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy meros va asarlar asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi, yaxlitligiga erishish; o‘quvchilarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash, sezgirlik, ogohlik ko‘nikmalarini tarkib toptirish»[43]va hokazo.

Tarix fanining o‘qitish metodlari tizimini tashkil etgan ko‘rgazmali, og‘zaki, matnlar vositasida o‘qitish va amaliy metodlar bir-biri bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan. Ularning o‘rtasidagi bog‘lanish, o‘qitish usullari va ularga muvofiq fikrlash faoliyat turlarining o‘zaro aloqasi va bir-biriga ko‘rsatgan ta’siriga asoslanadi. Bu borada buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini aniq va tushunarli qilib yetkazib berish tarix fanini o‘qitish samaradorligini oshirishning qo‘shimcha va ishonchli didaktik imkoniyati sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy merosidan ratsional foydalanish, pedagogik jarayonning ta’sirchanligini oshirishda buyuk mutafakkirlarning asarlari, ilmiy merosini ko‘rgazmalilik vositasida tanishtirish, o‘qishga va o‘rganishga sharoit yaratish ham

[43]Жалилов З. IX-XII асрларда Шарқ мутафаккирлари яратган тарбиявий қадриятлардан олий педагогик таълим жараёнида фойдаланиш технологияларини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент.: ТДПУ. –Б. 10.

samarali bo‘ladi. Bu borada pedagogik jarayondagi ko‘rgazmalilik metodi ham juda foydali bo‘ladi. Tarixni o‘qitishning ko‘rgazmalilik vositalarining didaktik ahamiyati N.Andrevskaya va V.Bernadskiylar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning fikricha, «ko‘rgazmali obrazlarsiz o‘quvchilarda o‘tmish to‘g‘risida mazmunli tasavvur yaratib bo‘lmaydi. O‘qituvchining so‘zi, hujjatlardan olingan parcha yoki tarixiy roman yozuvchi badiiy tasvirlari qanchalik yorqin va ravshan bo‘lmasin, o‘quvchilar ongida o‘tmish zamonlardagi hayot to‘g‘risida to‘g‘ri va aniq tasavvur hosil qilish uchun so‘zning birgina o‘zi kifoya qilmaydi[44]. Shunday ekan, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda tarix fanini o‘qitishdagi ko‘rgazmalilikni oshirish, ajdodlarning ilmiy merosi bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa bir olim I.Gittas o‘zining “Tarixdan boshlang‘ich ta’lim metodikasi” asarida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishini ko‘z bilan ko‘ringan tarixiy obraz orqali tushuntirib beradi. Uning fikricha, «faqat ko‘z bilan ko‘rib tushunishgina tarixiy obrazning hamma xususiyatlari bilan birgalikda haqiqatni aniq va to‘g‘ri bo‘lishini ta’minlaydi»[45]. Demak, tarix fani orqali o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ko‘rgazmalilik metodi yuqori samaradorlikka ega. Bu metodddan buyuk ajdodlarimizning boy merosi vositasida o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirish bilan birga ilmiy dunyoqarashini oshirishga yo‘naltirish muhim vazifalardan biridir. Tarix fanini o‘qitishda ko‘rgazmalilik og‘zaki metodga, og‘zaki metod ko‘rgazmali metodga asoslangandek, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilganamaliy faoliyati ham o‘qituvchining og‘zaki va ko‘rgazmali tasvirlariga suyanadi. Zero, «ta’lim-tarbiya jarayonida ajdodlarimiz yaratgan bebaho ma’naviy-pedagogik merosdan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

[44]Андрилская Н.В. Етти йиллик мактабда тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1950. – Б. 182-183.
[45]Джумаев. К.Д. Бухарская традиционная вышивка концаXX начало XX века. Автореф.– Ташкент:2003. –С. 28

BUXORO AMIRLIGI DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI QUSHBEGI ARXIVI MISOLIDA

Samandar Salimov Saydullo o‘g‘li
TDShU stajyor-o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439707

O‘tmish tariximizga nazar solsak milliy davlatchiligimizning turli davrlardagi kelajak va inqirozi, fojialariga daxldor tarixiy voqea va jarayonlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotiga qanchalik ta’sir etganligi yanada ravshanroq namoyon bo‘ladi.Buxoro xonligi tarixida (1885yil amir Shoh Murod davridan boshlab amirlik) mang‘itlar sulolasi hukmronligi alohida ahamiyatga molik davlat boshqaruv tizimiga egaligi bilan ajralib turadi.

Buxoro amirligi tarixida mang‘itlar sulolasi hukmronligi tarixi 1756 yilda boshlanib, 1920 yilga qadar davom etdi. Mang‘itlarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan davlat boshlig‘i avval xon, so‘ngra yuqorida aytganimizdek amir deb yuritila boshlandi, xonlik esa amirlik deb atala boshlandi.Amirlikda qimmatbaho narsalar va amir savdo qiluvchi mollar saqlanadigan «yuqori omborxona» (omborxonayi bolo) mavjud bo‘lib, uni «yuqori qushbegi» (qo‘shbegiyi bolo) boshqargan. Zakotdan tushgan narsalar saqlanadigan omborxona «quyi omborxona» deb atalgan bo‘lib, uni «quyi qo‘shbegi» (kushbegiyi poyon) boshqargan.

Buxoro shahridagi jamoat tartibini saqlash mirshablarga topshirilgan bo‘lib, odatda ular shahar mirshabboshisiga bo‘ysunishgan. Shu narsani ta’kidlash kerakki, Buxoro shahri mirshabboshisiga bir vaqtning o‘zida amirlikdagi boshqa barcha shaharlar mirshablari ham bo‘ysunishgan.Buxoro shahrida odamlar harakati xufton nomozidan so‘ng, ya’ni qorong‘u tushgandan ozgina vaqt o‘tgach to‘xtagan.Aynan shu paytda Buxoro shahrining 11 (o‘n bir) darvozasi vato‘pchiboshi o‘tirgan ark darvozasi qulflangan va barcha darvozalar kaliti qo‘shbegiga tonshirilgan.Shaharning har bir darvozasiga ikki qo‘riqchi darvozabon qo‘yilgan. Shahar mirshabboshisi kechasi shaharni aylanib yurib, o‘z odamlaridan shaharning qaysi mavzesi va qaysi uyda bazm va man etilgan o‘yinlar o‘ynalayotganligi to‘g‘risida ma’lumotlar olib, ushbu ma’lumotlar asosida o‘z xizmatchilari bilan borib gunohkorlarni ushlab, ularga nisbatan jarima belgilab jazolashgan. Jarima tO‘lashga qurbi yetmaganlar qamoqqa tashlangan.Shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, Buxoroda hatto to‘y va ruxsat berilgan bazmlar ham belgilangan vaqtda tugashi shart bulgan va ayrim sabablar bilan ushlanib qolgan to‘y yoki bazm ishtirokchilari shu xonadonda tonggacha

qolishlari shart edi.Buxoro amirligidagi markaziy davlat boshqaruvida amirlik poytaxti hisoblanmish Buxoro shahri alohida o‘rin tutgan. Jumladan, Buxoro shahri hokimi amirning biriichi vaziri va boshqa viloyat boshliqlari boshqaruvchisi hisoblangan. Buxoro shahri mirshablari boshlig‘i esa, o‘z navbatida, barcha bekliklardagi mirshablar ishini boshqargan.Poytaxt oliy qozisi, ya’ni qozikalon-amirlikning barcha qozilari boshlig‘i hisoblangan.Mana shu holat asosida Buxoro amirligida juda katta markazlashuv vujudga kelgan[46].

Yana shuni ta’kidlash lozimki, Buxoroda o‘sha davrda qo‘shbegi, qozikalon, bosh rais va Buxoro shahri mirshabboshisini birgaliqda «chor hokim», ya’ni «to‘rt hokim» deb yuritilgan.[47] P. Shubinskiy ma’lumotlariga qaraganda amir huzurida o‘sha davrda din, fuqarolik va harbiy sohalar vakillaridan iborat kengash faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu kengashda qo‘shbegi, bosh zakotchi, to‘pchiboshi va boshqa oliy amaldorlar ham ishtirok etishgan. Ushbu kengash doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatmagan bo‘lsa kerak, negaki birorbir arxiv hujjatlari yoxud mahalliy tarixchilar asarlarida va boshqa manbalarda ushbu kengash to‘g‘risida deyarli ma’lumotlar uchramaydi va fikr bildirilmaydi. Bizningcha, ushbu kengash birorbir muhim islohot o‘tkazilayotgan paytda va o‘ta muhim masala yechimi qidirilgan paytda chaqirilgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida, davlat boshqaruvidaharbiyma’muriy vadin peshvolariningtutgan o‘rni ham o‘ziga xos bo‘lgan.Buxoro amirligida din vakillari juda ko‘p bo‘dgan va ular ta’sirli kuchga ega bo‘lishgan. Din vakillri aksariyat hollarda imtiyozli guruxlardan-sayyid va xo‘jalardan tashkil topgan edi.

Amirlikdagi yuqori diniy amaldorlardan biri hisoblangan shayxulislom XVII-XVIII asrlarda davlatda eng oliy toifali din vakili hisoblangan. Ammo biz ko‘rib chiqayotgan davrda uning vazifalari ancha torayib, asosan, arzlar va Payg‘ambar hamda uning xalifalari bilan bog‘liq muammolarga bag‘ishlangan masalalarni ko‘rib chiqishdan iborat bo‘lib qolgan.XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida shayxulislom o‘rnini qozi kalon egallaydi.Amir huzuridagi kengashda din vakillaridan qozikalon, shayxulislom, naqib va rais (muhtasib) qatnashgan.Buxoro amirligi tarixi, davlat tuzumi to‘g‘risida tadqiqot olib borishgan ko‘p olimlar diniy unvonlar to‘g‘risida tuxtalishganda ba’zan muftiy, qozi va boshqalarni ham ko‘rsatib o‘tishgan. Aslida bu noto‘g‘ri. Boshqacha qilib aytganda, ular unvon bilan amalni chalkashtirib yuborishgan.

[46] Трепавлов Вадим Винцерович. Тюркские народы средневековой евразии. Казань: ООО «Фолиант», 2011. – 252 с

[47] Холикова Р. Марказий давлат бошкаруви тарихига бир назар. // Мулокот, 2004, 1-сон, 42 бет.

Aslida esa Buxoro amirligida rasman uchta diniy unvon: 1) o‘roq, 2) sudur va 3) sadr mavjud bo‘lgan.Tarixiy ma’lumotlar shundan guvohlik beradiki, madrasani tugatgan shaxs mulla, qozi, rais amadparini egallashlari mumkin bo‘lgan. Yuqoridagi amallarda bir necha yil ishlagandan so‘ng, fiqh sohasida qo‘lga kiritgan yutuqlari asosida unday shaxslarga dastlab o‘roq, keyin sudur va so‘ngra sadr unvonlari beriltan.[48]Eng oxirgi - yuqori diniy unvon sohibi bo‘lgan shaxs qozi kaloi, muftiy a’lam, oxun kabi diniy amallarni egallashi mumkin bo‘lgan.Buxoro amirligida din vakillarining kuchi va ta’siri ancha salmoqli bo‘lgan. Bu to‘g‘rida A. A. Semenov to‘xtalib o‘tib, «din vakillari ko‘p holatlarda amirning u yoki bu qarorlariga o‘z e’tirozlarini bildirib, ularni o‘zgartirishga majbur qilganlar, bu esa amirni noqulay ahvolga solib qo‘ygan»[49], deb ko‘rsatib o‘tgan. Buxoro amirligida din vakillari sudni, odamlar xulqini, ta’limni nazorat qilib, uni boshqarishga mas’ul hisoblangan.Buxorodagi barcha fuqaro sudi (mahkamasi) shariat bo‘yicha boshqarilgan va bu boshqaruv «qozi»deb ataluvchi shaxslar qo‘lida bo‘lgan.Bosh qozi, ya’ni qozi kalon poytaxt bosh qozisi va ayni paytda amirlikdagi boshqa barcha qozilar boshlig‘i hisoblangan.Amirlikda harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning shikoyatlarini shu masala bo‘yicha shug‘ullanuvchi maxsus amaldor, ya’ni qozi askar ko‘rib chiqqan. Ushbu turdagi jinoyatlarga fatvo tayyorlash muftiy askar zimmasida bo‘lgan.Bundan ko‘rinib turibdiki, amirlikdagi harbiylar va fuqarolik jinoyat ishlari alohidaalohida mahkamalar tomonidan ko‘rib chiqilgan.Buxoro amirligi boshqaruv tizimida o‘ziga xos o‘rinni «rais» egallagan.Ushbu amal yarim diniy, yarim tartibotchi usulida edi.Buxoro amirligida bosh rais odatda eshon rais yoki rais ushshariat deb atalgan. Bosh raisga barcha mahalliy raislar bo‘ysungan. Bosh rais ularni amir oldida tekshiruvdan o‘tkazib turgan.Amir Muzaffar (1860-1885 y.y.) mang‘itlar sulolasida taxtga o‘tirgan oltinchi amir hisoblanadi. Ushbu davrga kelib mang‘itlar hukmronligi asosida davlat boshqaruvi siyosiy tuzumining o‘ziga xos bo‘lgan tizimi yuzaga kelib bo‘lgan edi.Davlat rahbari - Amir Muzaffar cheksiz hokimiyat egasi hisoblangan.Amirlikda.ijro hokimiyati amirlik tomonidan tayinlangan quyidagi lavozimlardagi amaldorlar tomonidan amalga oshirilgan.Amirning birinchi vaziri, ya’ni qo‘shbegiyi bolo eng katta lavozim bo‘lib, amir oshxonasi boshlig‘i - bovurchiboshi devonbegi, xazinachi, miroxo‘rboshi, shogirpesha, amir oshxonasining nazoratchisi, bakovulboshi, mahramboshi, saroydagi ozodalik, osoyishtalik va

[48] Холикова Р. Амирликда амалуунвонлар.//Фан ва турмуш, 2000, 4-сон, 14-бет.

[49] Семенов А. А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени.с.66.

tartibga javobgar farroshboshi, zakotchi mirzaboshi bevosita uning tasarrufida va nazorati ostida bo‘lgan.Bosh vazir ularning ishini borishini nazorat qilish va tashkil etish bilan shug‘ullangan.Amirning ikkinchi vaziri - qo‘shbegiyipoyon ba’zan mirpoyon deb atalgan bo‘lib unga yasovulboshi, miroxo‘rboshi, xazinachi, mirzalar, bakovulboshi, zakotchi bo‘ysungan.Undan keyingi yirik amal - bu to‘pchiboshiyi askar hisoblanib, u amirlikning harbiy qo‘mondoni hisoblangan. Unga yasovul boshi, mirza, mahramboshi, bakovulboshi, devonbegi, o‘n ikkita sarkarda, sarkardalarga bo‘ysunuvchi sarbozboshilar bo‘ysungan.Davlat tizimidagi keyingi amaldor bu artilleriya boshlig‘i to‘pchiboshiyi askar hisoblangan[50]. Uning qo‘l ostida shogirdpesha, mirza va merganlar bo‘lgan.Keyingi amaldor amirlikda bosh qozi - qozi kalon hisoblangan. Qozi kalon devoniga devonbegi, olamiyon, tergovchi, mahramboshi, miroxo‘rboshi, tarakachi, muharrir, mulozimlar, mirzalar, shotirlar, tilmoch va dahboshi (o‘nboshi) kirgan.Qozi kalondan keyin turadigan amaldor raisi kalon hisoblangan. U eshonrais deb ham yuritilgan.Uning apparatiga vaqtincha o‘rinbosarlik qiluvchi xalifa, noib, durradast, mulozimlar, mirzalar, miroxo‘rboshi, devonbegi, tarakachi, tergovchi, shahar mirobi kirgan.Shuningdek, ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi lavozimlar qatoriga shahar xavfsizligiga javobgar bo‘lgan mirshab va uning qo‘l ostidagilar, suv ta’minotiga javobgar shaxs bo‘lgan mirob va uning qo‘l ostida ishlaydiganlar kirgan. Mirshab qo‘l ostida yasovulboshi, devonbegi, mahramboshi, mirzalar, dahboshi, tungi qorovul hisoblangan shabgardlar, farroshboshi va miroxo‘rboshi faoliyat ko‘rsatgan.Mirob tasarrufida esa mahram, mirzalar, bakovullar, miroxo‘rlar, suv tarmoqlari nazoratchilari, arboblar, mahalla, mavze va qishloq oqsoqollari bo‘lishgan. Amir Muzaffar huzurida yuqorida keltirilgan yuqori mansabdorlar bilan birga quyidagi amaldorlar ham xizmat qilishgan. Amir farmonlarini yetkazuvchi parvonachi, amirga doimo hamroh bo‘lib yuruvchi hidoyachi, amir maslahatchisi va xorijiy mehmonlarni kutib oluvchi shig‘ovul, amir osoyishtaligi va tinchligini muhofaza qiluvchi tongotar, amirga qaratilgan barcha salom va ta’zimlarni qabul qiluvchi va javob beruvchi salom og‘asi, amir dasturxoniga javobgar dasturxonchi, amir safari chog‘ida namozga chorlovchi - imomi jilov, amir safari chog‘ida qonun bilan shug‘ullanuvchi - mufti jilov, amir maslahatchilari guruhi-jam’g‘a shular jumlasidandir.Buxoro amirligida qo‘shin tuzilmasi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan. Shu narsani aytish joizki, Buxoro amirligida amir Nasrullohga (1828-1860 y.y.) qadar doimiy (muntazam) qo ‘ shin bo

[50] Трепавлов Вадим Винцерович. Тюркские народы средневековой евразии. Казань: ООО «Фолиант», 2011. – 252 с

‘lmagan.[51]Amir Muzaffar davrida amir qo‘shinlariga amirilashkar, ya’ni askarboshi rahbarlik qilgan.Qo‘shinda mufti askar mansabi mavjud bo‘lgan. XIX asrning 60 yillarida amir qo‘shinlarining amirilashkari Usmonbek degan shaxs bo‘lgan. U rus armiyasidan qrchib kelgan kazaklardan bo‘lgan. Buxoro qo‘shinlarining asosini «otliq»lar tashkil etgan. Piyodalar ozchilikni tashkil etgan. Amir qo‘shinining eng yaxshi qismi bu yollangan afg‘onlar bo‘lgan.Amir Muzaffar davrida ham amirlik bekliklarga bo‘lingan bo‘lib, beklar amir tomonidan tayinlangan. Bekliklarning eng yaqin yordamchilari yasovulboshi rahbarligida yasovullar bo‘lgan. Beklik hududidagi qo‘shinlarga beklar o‘zi rahbarlik qilishgan. Beklarning qushini bir necha yuz kishidan iborat otliqlardan iborat bo‘lib, ular har oyi bek hisobidan 20 tangadan maosh olishgan.Bek qo‘shinida yuzaboshi, ellikboshi, o‘nboshi unvoniga taqlid qilingan holdagi bo‘linish mavjud bo‘lgan. Bek qo‘shinida miroxo‘r lavozimi bo‘lib, u butun bek qo‘shiniga rahbarlik qilish huquqiga ega bo‘lgan.Bekliklar o‘z navbatida, quyi ma’muriy boshqaruv tizimlariga bo‘lingan bo‘lib, ularni oqsoqollar boshqarishgan, qishloq joylarda esa amin lavozimi joriy etilgan bo‘lib, ular beklikning suv xo‘jaligini boshqargan Davlatni boshqarish, uni rivojlantirish xalqning farovonligini ta’minlash, ularning osoyishta hayotini ta’minlab berish ko‘p jihatdan shu davlat tizimiga, unga rahbarlik qilgan tarixiy shaxsga, davlat boshqaruvining to‘g‘ri tashkil etilganligi va ushbu tizimning kimlar tomonidan va qanday usulda boshqaruviga bevosita bog‘liqdir[52].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кисляков Н. А. Патриархальнофеодальнме отношения среди оседлого сельского паселения Бухарского ханства в конце XIX - начале XX века. М., Л., 1962.

2. Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофсий. Тожик тилидан таржима. суз боши ва изохлар муаллифлари Шодмон Вохидов, Зоир Чориев. - Т., Акадсмия, 2001.

3. Семенов А. А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени.с. 1957.

[51]Кисляков Н. А. Патриархальнофеодальнме отношения среди оседлого сельского паселения Бухарского ханства в конце XIX - начале XX века. М., Л., 1962.; Холикова Р. XIX асрда Бухоро амирлиги. 70-71 бетлар; Вохщдов Ш.Х.. Холикова Р. Урта Осиё хонликларида давлат бошкаруви. - Т.: Янги аср авлоди, 2006. 35 бет.

[52] Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофсий. Тожик тилидан таржима. суз боши ва изохлар муаллифлари Шодмон Вохидов, Зоир Чориев. -Т., Акадсмия, 2001.

4. Трепавлов Вадим Винцерович. Тюркские народы средневековой евразии. Казань: ООО «Фолиант», 2011. – 252 с

5. Холикова Р. Марказий давлат бошкаруви тарихига бир назар. // Мулокот, 2004, 1-сон, 42 бет.

ЗАРДУШТ ШАХСИ ВА МАЪНАВИЙ ДУНЁСИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Samandar Salimov Saydullo o‘g‘li
TDShU stajyor-o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439733

Зардуштийлик – Марказий Осиё ҳудудида вужудга келган қадимий диний эътиқод ҳисобланади. Зардуштийлик дини ўз номини ушбу диннинг асосчиси ҳисобланган, пайғамбар Зарадуштра (юнонча Зароастр)нинг номидан олинган. Зардуштийлик таълимотининг асослари бизгача қисман сақланиб қолган бу диннинг муқаддас китоби “Авеста”да акс этган.

Кўплаб диний таълимотлар каби зардуштийлик ҳам ўзига хос диний атамаларига эга. Биринчи навбатда *зардуштийлик* атамасининг мазмун моҳиятига эътибор қаратамиз.

Бир гуруҳ тарихчилар бу диний эътиқодни умумий ном – зардуштийлик атамаси билан ифодалашади. Аммо буни истисно этувчи нуқтаи назарлар ҳам мавжуд. Баъзан “зардуштийлик” атамаси “Авеста” қадиймий “Гат”ларидаги пайғамбар Зардушт таълимотларига нисбатан ҳам ишлатилади[53]. Бошқа нуқтаи назарга кўра зардуштийлик атамаси сосонийлар даври “зардуштийлиги”га нисбатан ҳам ишлатилади[54]. Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш лозимки “зардуштийлик” атамаси ўрнида бир қанча синонимлар: “маздавийлик” , “оташпарастлик”, “парсийлик (парсизм)” ҳам қўлланилади. Айниқса “зардуштийлик” ва “маздавийлик (маздаизм – бу сўз тангри Аҳура Мазда номидан келиб чиққан.)” атамалари ўртасидаги муносабат ниҳоятда муҳимдир. Гарчи бу атамалар баъзида маънодош атамалар сифатада қўлланилса ҳам, кўплаб машҳур тадқиқотчилар бу икки сўзнинг мазмунини бир-бирига тўла мос келмаслигини таъкидлаб, уларни бошқа-бошқа атамалар сифатида тавсифлашада, бунда “маздавийлик” нинг келиб чиқиши масаласи аҳамиятлидир[55].

[53] Дандамаев М.А. (рец. на кн.) Дьяконов И.М. История Мидии от древнейших времен до конца IV в. до н.э. М - Л.: 1956. // ВДИ. 1958. №3.С.172-176.
[54] Дьяконов И.М. История Мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э. М - Л.: Изд. АН. СССР, 1956. 485 С.
[55] Грантовский Э.А. Иран в Конце VI - середине I тыс. до н.э. Манейское царство. Мидийская держава. // ИИ. С.26 - 46.

Шу жиҳатларни ҳисобга олиб муаллиф бу атамани ҳам “оташпарастлик” (зардуштийликда олов култининг топиниши асосида вужудга келган) атамаси каби фойдаланишдан истихола этади. Араблар босқинидан сўнг зардуштийлик жамоаси аъзоларига нисбатан қўлланилган “парсийлик” атамаси ҳам бу дин номини тўла ифодалай олмагани учун ушбу ишда бу ном ҳам ишлатилмади. Шундай вазиятда зардуштийликнинг вужудга келиши билан боғлиқ мунозарали саволлар унинг асосчисининг ҳаёт-фаолияти билан чамбарчас боғлиқ эканлигини билдирди. Зардуштий таълимотига кўра Заратуштра ёки юнонча Зароастр деб номланувчи шахс диннинг асосчиси ва пайғамбари сифатида маълум. Умуман олганда зардуштийлик таълимотида пайғамбар Зардушт ҳақида (реал ва бадиий) маълумотлар сақланиб қолинган.

Заратуштра ўттиз ёшида ўз истеъдодини намоён этиб, Аҳура Мазда пайғамбари сифатида фаолиятини бошлаши, 42 ёшида Кави Виштаспа билан учрашуви, Заратуштранинг кейинги ҳаёти ҳақида уннинг уч марта уйлангани, 77 ёшида душманлари тамонидан уюштирилган суиқасд қурбони бўлгани ҳақидаги хабарлар берилган[56]. Заратуштра ҳаёт-ижоди ҳақидаги нисбатан батафсилроқ маълумотлар И.Брагинский[57], Пянкова И.В.[58] ва бошқа тадқиқотчилар томонидан ўрганилган.

Олимлар Заратуштра ҳаёти ва шахсиятини ўрганишда бир қатор муаммоли масалаларга дуч келишади. Улардан Заратуштра шахсининг тарихийлиги ва у билан чамбарчас боғлиқ пайғамбар исмининг этимологияси, яшаган даври санаси ҳамда туғилиб ўсган жойи билан боғлиқ муаммолар энг муҳимлари ҳисобланиб келмоқда. Мана шу масалаларга нисбатан билдирилган илмий-тарихий талқинлар ва билдирилаётган ёндашувларни қуйида келтириб ўтамиз.

Биринчи навбатда эътиборимизни Заратуштра шахсининг тарихийлиги муаммосига қаратамиз. Ҳақиқатдан ҳам бир қатор тарихчилар ўз даврида шу исм остидаги инсоннинг тарихий шахс эканлигини мавжуд ҳаётда яшаганлиги, айнан унинг ваъзлари зардуштийликнинг муқаддас китоби “Авеста”нинг энг қадимий қисми – “Гат”ларга асос бўлганини таъкидлашган. Токарев С.А, Василев Л.С, ва Ямполский З.И кабилар ўз ишларида Заратуштра шахсиниг

[56] Авеста в русских переводах (1861 - 1996). Сост., общ. ред., примеч., справочный раздел И.В. Рака. Изд. 2-е, исправл. СПб.: «Журнал «Нева»», «Летний Сад», 1998.С.324.
[57] Брагинский И. Двенадцать миниатюр. Изд. 2-е, дополн.. М.: Худож. Лит., 1976.С.61.
[58] Пьянков И.В. Зороастр в истории Средней Азии: проблема места и времени (опыт исторической реконструкции). // ВДИ. 1996. №3. С. 3-23.

афсонавийлини таъкидлашса Дяконов М.М ва Брагинский И[59] каби тадқиқотчилар ўз тадқиқотларида Заратуштранинг тарихий шахс бўлиши мумкинлиги ҳақида фикр билдиришган бўлса ҳам Заратуштранинг тарихий шахс эканлиги ҳақидаги муаммо очиқлигича қолиб кетди. Никитина В.Б. зардуштийлик дини пайғамбари Заратуштра шахсини ўрганишда агар мавжуд манбаларга суяниладиган бўлса, унда у яримафсонавий (яъни бадиийлаштирилган) характерга эга[60]. Худди шунингдек, Ридер Д.Г. ҳам Заратуштра шахсини қисман асотирий (полумифической) деб ҳисоблайди[61]. С.Н.Соколованинг фикрига кўра пайғамбар Заратуштра шахсиятининг тарихи аниқ тарихий манбалар бўйича ўрганилмасдан, пайғамбар ҳаётига оид танқидий-қиёсий мантиаий таҳлил асосида ўрганилган. Ҳақиқатда ҳам Заратуштра шахсининг тарихийлигини ўрганувчи тадқиқотчилар ўз тадқиқотларида маълумотларни атрофлича комплекс тарзда таҳлилсиз фақатгина пайғамбар ҳаётига оид умумий маълумотлар берувчи фактлардан фойдаланиш билан чекланиб қоладилар. Кўпчилик тарихчилар зардуштийликка оид диний матнлари асосида Заратуштранинг тарихий шахсини ўрганадилар. Бу ёндашув кўпроқ “Гат”ларда Заратуштранинг реал мавжуд тарихий шахс ва тарихий жараённинг марказидаги обект сифатида тасвирланганлиги билан изоҳланади. Матнларнинг кейинги қисмларида Зардушт сахсининг мифик тасвирланишини С.Н.Соколов даврлар ўтиши натижасида юз берган қаҳрамоннинг бадиийлаштирилиши таъсири деб баҳолайди[62].

Заратуштра шахсининг тарихийлиги билан бевосита унинг исмининг этимологияси ҳам катта мунозарага сабаб бўлмоқда. М.М.Дяконов Заратуштра исмининг этимологиясини “(товланувчи) тилларанг (ёки бақувват) туя”[63], В.М.Массон ўз вақтида бу сўзнинг маъносини “туя етакловчи” деб таъкидлади[64]. Умуман олганда ‘”уштра” – “туя” сўзининг Заратуштра исмининг ўзагини ташкил этишининг ажабланарли жойи йўқ. Б.А.Литвинский ва И.Р.Пичикиянлар қайд этганидек, туя “Авеста”да эъзозланган жонивор

[59]Брагинский И.С. Древнеиранская литература. // История всемирной литературы.Т. 1. М.:.Наука, 1983.С.10.
[60] Никитина В.Б. Древнеиранская литература. // Литература Древнего Востока. Под ред. И.С. Брагинского и Н.И. Конрада. М: Изд. Москов. Университета, 1962. С.117.
[61] Редер Д.Г. Зороастризм. // КНАС. С. 219.
[62] Соколов С.Н. Зороастризм. // Авеста в русских переводах (1861 - 1996). Сост., общ. ред., примеч., справоч. раздел И.В. Рака, изд 2 -е, исправл.. СПБ.: «Журнал «Нева»», «Летний Сад», 1998. С.8.
[63] Дьяконов И.М. История Мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э. М - Л.: Изд. АН. СССР, 1956.С.385.
[64] Массон В.М. Средняя Азия в III - I тысячелетия до н.э.. // ИДВ. С.300.

сифатида тилга олинган ва диний амалларни бажаришда муҳим саналган[65], шунинг учун ҳам қадимги эроний антропонимикада кўплаб сўзларнинг ўзагида “уштра”(туя) сўзи учраб туради. Буларнинг қаторига пайғамбар Заратуштранинг исми ҳам киради[66]. Заратуштранинг исмининг ўзаги кўпинча “қари туя” (яъни – “қари туя еклаган киши”, “қари туя етакловчи” ёки “туя етаклаган оқсоқол(донишманд)”) шаклида учрайди.

Юқоридаги таҳлиллар шундай хулоса берадики, Заратуштра исми одатий оддий чорвадор аҳолига мансуб исм ҳисобланиб, ўз эгасининг вужуди ва руҳиятини ёвуз руҳлардан асраш маъносида кучли, муқаддас жонзот номи ишлатилган. Инсоннининг ҳаёт ва фаолиятини, унинг камолотида муҳим таъсир этишига ишора этувчи исмлардан ҳозиргача Марказий ва Ўрта Осиё ҳудудидаги аҳоли фойдаланиб келиши зардуштийлик дини асосчисининг исми билан боғлиқ муаммо ечимини осонлаштиради[67]. Заратуштра исмининг юқоридаги таржимасининг қўлланилиши ҳақида олим Стеблин-Каменский унинг ота-онасининг исмларида ҳам шундай мақсадлар қўлланилгани билан боғлиқлигини таъкидлайди[68].

“Зардушт таълимотининг асосида инсоннинг жамият ва табиат олдидаги масъуллиги масаласи алоҳида ўрин тутади. Инсоннинг эътиқоди, ният, сўз ва амалда эзгуликка таяниши, ростлик, ҳақиқат учун фидокорлик каби ҳислатлар улуғланади. Зардушт шахсида дунёни билиш, уни илоҳий асосларда талқин қилиш етакчидек кўринади. Лекин зардуштийликнинг кундалик ҳаёт билан боғлиқ оддийлиги ҳам борки, бу ҳусусиятни табиат фалсафаси деб юритилади. Табиатни шунчаки эъзозлаш эмас, Зардушт таълимотида табиатни бойитиш, унинг неъматларини кўпайтириш орқали инсоннинг тўқ ва фаровон ҳаётини таъминлашга алоҳида эътибор берилади”[69]. Бу ҳусусиятлар инсониятнинг, айниқса ёшларни маънавий баркамол инсон сифатида шакллантиришга хизмат қилади.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[65] Гафуров Б.Г. Избранные труды. М.: Наука, 1985.С.109.
[66] Литвинский Б.А., Пичикян И.Р. Золотые пластины из Храма Окса (Северная Бактрия). // ВДИ. 1992. №3. С.109.
[67] Гаты Заратуштры. Вступление, перевод с авест. и комментарии И.М. Стеблин - Каменского. // ВДИ. 2000. №2. С.291.
[68] Гаты Заратуштры. Вступление, перевод с авест. и комментарии И.М. Стеблин - Каменского. // ВДИ. 2000. №2. С.291.
[69] Авесто. “Видевдот” китоби. М.Исҳоқов таржимаси Т.: 2007 й

1. Брагинский И. Двенадцать миниатюр. Изд. 2-е, дополн.. М.: Худож. Лит., 1976.

2. Грантовский Э.А. Иран в Конце VI - середине I тыс. до н.э. Манейское царство. Мидийская держава. // ИИ. С.26 - 46.

3. Дандамаев М.А. (рец. на кн.) Дьяконов И.М. История Мидии от древнейших времен до конца IV в. до н.э. М - Л.: 1956. // ВДИ. 1958. №3.С.172-176.

4. Дьяконов И.М. История Мидии от древнейших времен до конца IV века до н.э. М - Л.: Изд. АН. СССР, 1956. 485 С.

5. Пьянков И.В. Зороастр в истории Средней Азии: проблема места и времени (опыт исторической реконструкции). // ВДИ. 1996. №3. С. 3-23.

6. Никитина В.Б. Древнеиранская литература. // Литература Древнего Востока. Под ред. И.С. Брагинского и Н.И. Конрада. М: Изд. Москов. Университета, 1962. С.117.

7. Массон В.М. Средняя Азия в III - I тысячелетия до н.э.. // ИДВ. С.300.

8. Редер Д.Г. Зороастризм. // КНАС. С. 219.

9. Соколов С.Н. Зороастризм. // Авеста в русских переводах (1861 - 1996). Сост., общ. ред., примеч., справоч. раздел И.В. Рака, изд 2 -е, исправл.. СПБ.: «Журнал «Нева»», «Летний Сад», 1998.

“YEVGENIY ONEGIN” SHE’RIY ROMANINI GENDER NUQTAI NAZARIDAN O‘RGANISH TAMOYILLARI

Nargiza Jumaqulova Sunatulla qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
njumakulova0708@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439763

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiy asarlarda gender jihatlarining aks etish usullari va uni matnni tushunishga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Shuningdek gender aspektlarining adabiyot bilan o‘zaro bog‘liq jihatlari haqida so‘z yuriltilgan.
Kalit so‘zlar: gender aspektlari, gender va adabiyot nazariyalari, idrok.

Adabiyotda gender rolini o‘rganish ijtimoiy konstruksiya nazariyasiga asoslanadi, u gender sotsializatsiya jarayoni va sotsial-madaniy muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish orqali shakllanadi, shuningdek, gender tengsizliklarini aniqlaydigan va tahlil qiluvchi feministik adabiy tanqidga asoslanadi. Bu kontekstdagi asosiy tushunchalardan biri Judit Batler tomonidan kiritilgan “gender ijrochiligi”dir. Uning ta’kidlashicha, gender rollari tug‘ma emas, balki xatti-harakatlar, identifikatsiya qilish va ifoda etish orqali yaratiladi va saqlanadi.

Gender tamoyillarining adabiy asarda tutgan o‘rnini A.S.Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she’riy romani orqali ko‘rib chiqiladi. Taniqli tanqidchi olim I.V.Kiyevskiy (“ rus adabiyotning birinchi falsafiy sharh muallifi”) o‘zining “Московский вестник” jurnalida chop ettirgan maqolasida, yozuvchining ushbu romanini “so‘z bilan ta’riflanmaydigan nimadir”ga ega ijod namunasi, deb baholagan. Maqolada shuningdek, “Yevgeniy Onegin” asarining syujeti, qurilishi, voqealar rivoji, obrazlar tahlili, xarakterlarning yoritilishi, yozilish uslubi, “Onegincha still” tarafdorlari haqida ham fikrlarni ko‘rish mumkin. Taniqli olim V.G.Belinskiy 11 qismdan iborat “Aleksandr Pushkin haqida insho”da ijodkorni “rus xalqi va hayoti haqida eng katta ensiklopediya” deb ta’riflagan. Shuningdek A.V.Drujinin, A.Grigoryev (mashhur “Pukin-bizning borimiz” formulasi muallifi), V.Boryusov, F.Sologub, G.O.Vinokura, B.O.Tomashevskiy, N.L.Brodskiy, A.Y.Taxarova, Yu.M.Lotman, V.V.Nabokov, S.G.Bocharov, N.N.Skatov, I.Surat, V.S.Nepomnyashiy, Yu.N.Chumakov, S.S.Averintsev, V.K.Kantor va boshqa olimlar o‘zlarining bir qator kitoblarida roman va uning mualliofi haqida izohlar

berishgan. Berilgan izohlarda Pushkinni xalq ijodkori deyilgan ta’rifdan, diniy alqashlargacha bor. Aynan gender streotiplari haqida ochilgan , fikr bildirilgan ishlar deyarli yo‘q. Olimlar orasida bosh qahramonlardan Tatyananing xarakteri, tasvirlari haqida yozganlar mavjud bo‘lsada, bu gender yondashuvni asoslab yoki yoritib berish uchun yetarli emas.

Gender tamoyillarga tayangan tahlilda yuqorida sanalgan matn turi, muallifning subyektiv fikrlariga qo‘shimcha ravishda qahramonlardagi psixofiziologik farqlarining hamda har bir o‘quvchining individual shaxs sifatidagi o‘ziga xosligini inobatga olish nazarda tutiladi. Bu nafaqat asardagi qahramonlarni butunligicha, boricha ko‘rish kerakligini, balki o‘quvchining ham potensialini inobatga olgan holda genderni talqin metodikasi bo‘yicha taqdim qilish kerakligini anglatadi. Bu nafaqat ayollar haiqda yozilgan asarlar, ayol qahramonlar haqida o‘qitish balki, ikki jins vakillarini ham teng tomondan tahlil qila olish , balki yozuvchilarni tasvir uslublaridagi farqlar va nomutanosibliklar haqida ham o‘rganish va o‘rgatish kerakligini anglatadi.

Birgina Pushkinning she’riy romani boshqa qahramoni sifatida yaratgan Onegin obrazi o‘sha davrning ayni tipik vakili sifatida taqdim etilgan. Zodagoncha hayot, ballar, hayotiy takror kunlar, samimiylikka va dadillikka qodir emas, atrofga befarq “ko‘rinishda kitobxon qarshisiga chiqariladi”. Ko‘rinishi ham turmush tarziga ko‘ra zamonaviy:“…Для роскоши, для неги модной, —Все украшало кабинет Философа в осьмнадцать лет”

“Духи в граненом хрустале;
Гребенки, пилочки стальные,
Прямые ножницы, кривые
И щетки тридцати родов
И для ногтей и для зубов”.

Ideal №1: Boy xonadon farzandlari, asosan o‘g‘il bolalar yengil o‘yli, jiddiy bo‘lmagan xarakterli bo‘ladi. Ularning hayotida o‘qish, ilm olish uchun qanchalik ko‘p imkoniyat borligiga qaramasdan, bunday oiladagi yigitlar Pushkinning tili bilan aytganda “ehtiros ilmi”ning (“была наука страсти нежной”) bilimdoni bo‘lishadi.:

“Как рано мог он лицемерить,
Таить надежду, ревновать,
Разуверять, заставить верить,
Казаться мрачным, изнывать,
Являться гордым и послушным,
Внимательным иль равнодушным!

Как томно был он молчалив,
Как пламенно красноречив,
В сердечных письмах как небрежен!
Одним дыша, одно любя,
Как он умел забыть себя!
Как взор его был быстр и нежен,
Стыдлив и дерзок, а порой
Блистал послушною слезой!”

Oneginga qarshi tarafda uni to‘ldiruvchi qahramon- samimiy,haqiqiy obrazda kelishi kerak edi. Ayni shu jihatdan, Pushkin Tatyanani ham romantik, ham bir ishni albatta, oxiriga yetkazib qo‘yadigan qilib tasvirlagan. Bunday “+” jihatlari mavjud qizlarning oilasini standartlashtirilgan tamoyillarga ko‘ra (jamiyat tomonidan) o‘rtacha yoki o‘rtadan pastroq darajada ko‘rsatlishi ayni muddao.

Ideal №2:Oilasi o‘rtamiyona yoxud past tabaqada yashaydigan insonlarning hayot tarzi qalban samimiy, farzandlari esa, asosan qizlar, hayotga qiziquvchan va mustaqil o‘rganish qobilyatiga egadirlar.

“Простая, русская семья,
К гостям усердие большое,
Варенье, вечный разговор
Про дождь, про лен, про скотный двор…”

Asarga o‘z izohlarini bergan , yuqorida sanab o‘tilgan adabiyotshunoslarning fikricha, bosh qahramonlar bir-biriga qarama-qarshilikda yaratilgan va bu bejizga emas. Chunki munosabatlarning eng “omadlisi”- ikki nafar bir-birini to‘ldiruvchi qismdan tashkil topganidir. Keltirgan 2 ta ideallarimiz jamiyatda mavjud streotipning muallif yaratig‘iga ko‘chishidir yoki ko‘pchilikning fikridagi “estetik munosabat” tasviri deyish mumkin. Bu haqida filologiya fanlari nomzodi, dotsent Vorobyova Svetlana Yuryevna “К вопросу о типологии женских образов в творчестве А.С. Пушкина: гендерный аспект” maqolasida shunday degan: “Tatyananing shaxsiy ongining uyg‘onishi, uning o‘zi va ‘uchrashuvi” haqida faol fikr yuritishi aynan shu paytdan boshlanadi: u kelin bo‘lishni shaxs sifatida yashash deb biladi, ya’ni u o‘zini o‘zini xotinlikda, onalikda his qiladi”. Odatda, muallifning hayoti, shaxsiy xususiyatlari qahramonlarga qisman yoki to‘liqligicha ko‘chisi tahlil jarayonlarida ko‘p aytiladi. Adib Oneginni “qizlarni ko‘nglini zabt etuvchi”, “muloqotga kirishuvchan” , “atrofidagi ayollarni alohida shaxs sifatida ko‘ra oladigan” qilib

tasvirlagan bo‘lsada,Tatyana tili bilan bir jumlada mavjud yana bir idelani yozib qoldirdi:

“…то в высшем суждено совете, то воля неба: я — твоя!”

Ideal №3: Qizlar “kelin bo‘lish” uchun katta qilinadi!

Romanning “Tatyananing maktubi” qismini tatqiqotimizning eng xos nuqtasi deyish mumkin . Chunki gender jihatdan tatqiqotlarni o‘rganish jarayonida yana bir bor Pushkinning bir qarashda hammasi yengil, oddiy bog‘lanishlar bo‘lib tuyilsada, aslida “estetik munosabatlar”dan “real dinamikali hayot” tasviriga naqadar mohirlik bilan o ‘ta olganining guvohi bo‘ldim. Ya’ni asar boshida yigit boy oiladan, ilm olishga emas yengil hayotga qiziquvchan, muloqotga kirishuvchan, zamonaviy ko‘rinishli, beqaror , qiz esa ayni teskarisi odamlar bilan unchalik tez kirishuvchan bo‘lmagan, kiyinishga ko‘p ham e’tibor qaratmaydigan, ammo mas’uliyatli , shuningdek mehmondo‘st va samimiy bir oilaning farzandi bo‘lib kirib kelishadi. Gender biologik tamoyillarining ifodasi o‘laroq, yigit qizga emas, balki qiz yigitga birinchi bo‘lib ko‘ngil qo‘yadi va hislarini izhor qiladi.

Bir tomondan nazar tashlaganda, qiz individual shaxs, hislarini oshkor eta oluvchi shaxs, qarorini ortida tura oladigan shaxs bo‘lishda davom etmoqda. Xo‘sh , aslida-chi? Boshqa tomondan qaralganganda esa, Tatyana jamiyatning haligacha mavjud streotiplaridan bo‘lmish “rafiqa bo‘lish uchun” “kelin bo‘lish” uchun ulg‘ayganini maktubidagi gaplar orqali bilish mumkin va qahramon aqlan buni qabul qilgan:

Я к вам пишу – чего же боле?
Что я могу еще сказать?
Теперь, я знаю, в вашей воле
Меня презреньем наказать.
Но вы, к моей несчастной доле
Хоть каплю жалости храня,
Вы не оставите меня.
Сначала я молчать хотела;
Поверьте: моего стыда
Вы не узнали б никогда,
Когда б надежду я имела
Хоть редко, хоть в неделю раз
В деревне нашей видеть вас,
Чтоб только слышать ваши речи,

Вам слово молвить, и потом
Все думать, думать об одном
И день и ночь до новой встречи.
Но, говорят, вы нелюдим;
В глуши, в деревне всё вам скучно,
А мы… ничем мы не блестим,
Хоть вам и рады простодушно.
Зачем вы посетили нас?
В глуши забытого селенья
Я никогда не знала б вас,
Не знала б горького мученья.
Души неопытной волненья
Смирив со временем (как знать?),
По сердцу я нашла бы друга,
Была бы верная супруга
И добродетельная мать.
Другой!.. Нет, никому на свете
Не отдала бы сердца я!
То в вышнем суждено совете…
То воля неба: я твоя;
Вся жизнь моя была залогом
Свиданья верного с тобой;
Я знаю, ты мне послан богом,
До гроба ты хранитель мой…

Roman o‘quvchilarga taqdim qilingandan hozirgacha ham “Tatyananing maktubi” eng romantik izhor sifatida ta’kidlansada, ijodkor shu yerda biroz mubolag‘ali, haddan oshiq yondashganini aytib o‘tish joiz. Bu bilan “ayol qahramon” o‘rni tushishiga sabab bo‘lgan. Shu qatorda, qiz bolaning kelajakka qaragandagi hayoli muallif yozgandek faqatgina “sadoqatli rafiqa” va “oqko‘ngil ona” bo‘lish bo‘lsa, qarshi taraf uchun zerikarli va keyinchalik ikkilanishlar, qisman afsuslar orasida qolishi, “yoshlik ehtiroslari”ga berilish qizlarda hayotning keyingi bosqichlarida atrofdilaraga butunlay ishonchsiz va e’tiborsiz bo‘lib qolishi mumkinligini ko‘rsatib bergan. Ko‘plab o‘zgarishlardan so‘ng Onegin tomonidan qilingan izhorga ham shu tufayli ishonch bildirmaydi. Ideallar dinamikasi nafaqat har bir asarda turlicha bo‘lishi mumkin, balki bir asar ichida ham o‘zgarib boradi.

Shuning sabab, ijodkor asar oxirida qahramoni uchun“qalban hislarga qaramlikni yo‘qotgan” “ichki qoidalarini yengib o‘tgan”qilib tasvirlasada, tabiatan, ayollik tabiatiga ko‘ra “dunyo qonuniyatlarini kechib ketgan” qilib emas, unga o‘z ongi va yuragining birligi bilan javob qaytarish yo‘lini tanlaydi:

Перед хозяйкой легкий вздор
Сверкал без глупого жеманства,
И прерывал его меж тем
Разумный толк без пошлых тем,
Без вечных истин, без педантства,
И не пугал ничьих ушей
Свободной живостью своей.

Quyidagicha xulosalar ketma-ketligini taqdim qilish mumkin:

Ayollarning roli: Romanda o‘sha davr ayollarining cheklangan ijtimoiy imkoniyatlariga e’tibor qaratiladi. Ular, qoida tariqasida, erkaklarga bo‘ysunadilar, ularning asosiy maqsadi turmush qurishdir. Tatyana va Olga o‘z davrining odatiy ayol obrazlari sifatida taqdim etilgan: biri xayolparast va romantik, ikkinchisi quvnoq va ochiqko‘ngil.

Erkak qahramonlar: Romandagi erkaklar, shu jumladan Oneginning o‘zi ham jamiyatda ko‘proq erkin imkoniyatlarga ega. Ular sayohat qilishlari, o‘z manfaatlarini ko‘zlashlari va hatto noz-karashma va aldashlariga ruxsat berishlari mumkin.

Qarama-qarshi va bir-biriga o‘xshash rollar: Tatyana va Oneginning Sankt-Peterburgdagi uchrashuvi ularning turli xil hayot yo‘llari va dunyoga qarashlarini ta’kidlaydi. Tatyana o‘zining samimiyligi va samimiyligini saqlab qoladi, Onegin esa ‘hafsalasi pir bo‘lgan aristokrat obrazini ifodalaydi.

Ijtimoiy me’yorlar va ularning buzilishi: Roman shuningdek, ijtimoiy me’yorlarni buzish mavzusiga, ayniqsa, sevgi munosabatlari kontekstida qaratilgan. Onegin ham, Tatyana ham o‘z harakatlari va qarorlari bilan belgilangan me’yorlarni buzadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. https://obrazovaka.ru/sochinenie/evgeniy-onegin/harakteristika-onegina.html.
2. Https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/48996/1/iurg-2017-163-09.pdf
3. **https://rustih.ru/aleksandr-pushkin-pismo-tatyany-k-oneginu/**

4. Евгений Онегин, роман в стихах. Сочинение Александра Пушкина. Санктпетербург. В типографии Александра Смирдина. 1833 (рус.). Электронные публикации Института русской литературы (Пушкинского Дома) РАН. Дата обращения: 22 октября 2010. Архивировано 18 мая 2012 года.

DORIVOR ARPABODIYON *PIMPINELLA ANISUM L* O‘SIMLIGINI TURLI TUPROQ IQLIM SHAROITIDA UNUVCHANLIGI

Ilyosjon Zahriddinov Ilhomjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti Biotexnologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Oydina Abdulatipova Nozimjon qizi
Namangan davlat universiteti, Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi 2-bosqich talabasi
E-mail: zahiriddinovilyosbek3@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439787

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq tabobatida, zamonaviy tibbiyotda va oziq ovqat sanoatida keng qo‘llaniladigan dorivor *Pimpinella Anisum L* o‘simligini labaratoriyada urug‘ unuvchanligini turli tuproq iqlim sharoitida o‘rganish ishlari amalga oshirildi. Olib borilgan tajriba natijasida yurtimizning turli xil muhitdagi tuproqlarda *Pimpinella Anisum L* yetistirishga tavsiya ishlab chiqish asosiy maqsad qilib belgilab olingan. urug‘lari ishtaxa ochuvchi, yel haydovchi, balg‘am yumshatuvchi vosita sifatida ishlatiladi. O‘simlik ilmiy tibbiyotda ham keng qo‘llaniladi. *Pimpinella Anisum L* antioksidant, antibakterial, zambrug‘larga qarshi, viruslarga qarshi, laktogen xususiyatga ega ekanligi zamonaviy tibbiyotda ham isbotlangan.

Kalit so‘zlar: Pimpinella Anisum L, Urug‘ unuvchanligi, elita, tuproq, mexanik tarkib, efir moyi , anetol, bronxit, tuxumsimon, Labaratoriya tahlili

Аннотация. В данной статье в лабораторных условиях проведено исследование всхожести семян лекарственного растения *Pimpinella Anisum L*, широко используемого в народной медицине, современной медицине и пищевой промышленности, в различных почвенно-климатических условиях. В результате проведенного эксперимента основной целью была разработка рекомендаций по выращиванию фенхеля в различных климатических условиях нашей страны. Семена фенхеля используются как закуска, ветрогонное и отхаркивающее средство. Растение также широко используется в научной медицине. В современной медицине доказано, что фенхель обладает антиоксидантными, антибактериальными, противогрибковыми, противовирусными и лактогенными свойствами.

Ключевые слова: Фенхель, всхожесть семян, элита, почва, механический состав, эфирное масло, анетол, бронхит, яйцевидный, Лабораторный анализ

Annotation. In this article, the study of the seed germination of the medicinal plant Pimpinella Anisum L, which is widely used in folk medicine, modern medicine and food industry, was carried out in the laboratory under different soil and climate conditions. As a result of the conducted experiment, the main goal was to develop a recommendation for the cultivation of fennel in different environments of our country. Fennel seeds are used as an appetizer, carminative, and expectorant. The plant is also widely used in scientific medicine. It has been proven in modern medicine that fennel has antioxidant, antibacterial, antifungal, antiviral, and lactogenic properties.

Key words: Seed germination, elite, soil, mechanical composition, essential oil, anethole, bronchitis, ovoid, Laboratory analysis

KIRISH

Maqolaning asosiy maqsadi *Pinpinella Anisum L* ya’ni dorivor arpabodiyon o‘simligining dorivorlik xususiyati va kimyoviy tarkibini o‘rganib, uni mexanik tarkibi turli bo‘lgan tuproqlarda o‘sish va rivojlanishini o‘rganishdir. *Pinpinella Anisum L* selderdoshlar-*Apiaceae* (soyabonguldoshlar-Umbelliferae) oilasiga kiradi. Poyasi tik o‘suvchi, tukli, ko‘p qirrali. Pastki barglari buyraksimon (yoki uch bo‘lakli), yirik arra tishli, yuqoridagilari ipsimon bo‘lakchalarga bo‘lingan. Gullari mayda, oq, murakkab soyabonga to‘plangan. Mevasi qo‘shaloq pista. Iyun-iyul oylarida gullaydi, mevasi avgustda yetiladi. Geografik tarqalishi. Arpabodiyon o‘simligining vatani Turkiya. Voronej va Belgorod viloyatlarida, Volga bo‘yida, Shimoliy Kavkazda, O‘rta Osiyoda o‘stiriladi. Seleksioner olimlar tomonidan hosili mo‘l va efir moyiga boy bo‘lgan navlarini (Alekseeviskiy N 38 va boshqalar) ni yetishtirdilar. Shu navlar xo‘jalik dalalarida o‘stirilmoqda.

Pinpinella Anisum L o‘simligining dorivorlik xususiyati meva tarkida mavjud bo‘lib, kimyoviy tarkibida 1.2- 3.2 % (ba’zan 6% gacha) efir moyi, efir moyi tarkibida 90% gacha anetol bo‘ladi. Bundan tashqari 8-28.4 % gacha yog‘ va oqsillar mavjud. Tayyor mahsulotning tashqi ko‘rinishi sariq-kulrang yoki qo‘ng‘ir-kulrang qo‘shaloq pistadan iborat. Mevasi uzun bandli, tuxumsimon yoki teskari noksimon asos qismi keng bo‘lib, uchki qismiga qarab torayib boradi. Meva uzunligi 3-5 mm, eni (asos qismi bo‘yicha) 2-3 mm. Tibbiyotda yoki xalq tabobatida preparatlari va efir moylaridan bronxit kasalligida balg‘am ko‘chiruvchi, ichak faoliyatini yaxshilovchi, ich yumshatuvchi, yel haydovchi, farmatsevtikada esa dori mazasini

yaxshilovchi vosita sifatida ishlatiladi. Bundan tashqari ko‘krak qafasi og‘rig‘ida ham qo‘llash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

1."Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o‘simliklarning plantatsiyalarini barpo etishni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, kasalliklarni oldini olish va davolashda dorivor o‘simliklarni keng qo‘llash maqsadida" O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 20-mayda PQ-251-sonli qarori qabul qilindi. Respublikada yillarda dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o‘simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

2. M. Mamajanova "Dorivor o‘simliklar biotexnologiyasi"(o‘quv-uslubiy majmua) Namangan-2023 100 bet. Ushbu majmuada dorivor o‘simliklar biotexnologiyasi haqida keng miqyosda ham nazariy ham amaliy ishlar haqida ma’lumot berib o‘tilgan. Ya’ni dorivor o‘simliklarni qaysidir qismidan labaratoriya sharoitida yetishtirish va qayta ishlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berib o‘tilgan.

3. E.T. Berdiyev, E.T. Ahmedov "Tabiiy dorivor o‘simliklar" (o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2018. 187 bet. Bu o‘quv qo‘llanmada dorivor o‘simliklar tarkibidagi biofaol moddalar haqida, shuningdek, ana shu biofaol moddalarning turlariga ko‘ra qaysi o‘simliklarda yig‘ilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

4. R.H.Ayupov "Dorivor o‘simliklar va ulardan foydalanish" (3 qismli kitob).Ushbu kitobda dorivor o‘simliklar haqida keng ma’lumot berib o‘tilgan. Hamda ularni qanday kasalliklarga qo‘llash usullari ya’ni foydalanish haqida yozib o‘tilgan.

5. G.Mirsharipova "O‘simlikshunoslik" (uslubiy qo‘llanma) Guliston-2018. 42 bet. Bu qo‘llanmada o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ularni parvarish ishlari haqida ma’lumot berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.



Pinpinella Anisum L ning urug‘larining unuvchanligini 3 xil mexanik tarkibga va 3 xil pH muxitga ega bo‘lgan tuproqda kuzatuv ishlari olib borildi. Labaratoriya sharoitida pH metr va Kachinskiy metodi sodda va osonroq. Ya’ni Kachinskiy tasnifi qum, qumloq, soz kabi tuproqlarni mexanik analiz natijasida

olingan ma’lumotlar asosida ajratadi va Sibirtsev taklif etgan “fizik loy”, “fizik qum” metodidan foydalanildi.Dala sharoitida mexanik tarkibni turli yo‘llar bilan aniqlash mumkin. Bular quruq uslub, loyli halqachalar va elakchalar yordamida aniqlash. “Quruq uslub” da aniqlash uchun ozgina tuproq olib,qo‘lning kafti ustida yaxshilab eziladi, so‘ngra yengil puflab kaftda qolgan chang zarralari miqdori orqali tuproqning mexanik tarkibi to‘g‘risida mulohaza yuritiladi. Agar, tekshirilayotgan maydon tuprog‘ining mexanik tarkibi qancha og‘ir bo‘lsa, kaftda qolgan zarracha shuncha ko‘p bo‘ladi.” Loy halqachalar” buning uchun 3-5 gr tuproq kaftga olinadi va biroz suv qo‘shish orqali xamirsimon loy tayyorlanadi. Undan halqalar yasalib, uning tashqi holatiga qarab, mexanik tarkibi ajratiladi. Na’muna uchun olingan urug‘lar tozaligini tekshirish va urug‘dagi begona aralashmalar. Urug‘dagi begona aralashmalar chiqindilar deyiladi. Chiqindilar 2 xil 1. O‘lik chiqindilar 2.Tirik chiqindilarga bo‘linadi:



O‘lik chiqindilar (somon, xas-cho‘p, tosh va mayda kesaklar) bo‘lishi mumkin. Tirik chiqindilar esa (begona o‘tlar, yoki boshqa ekinlarning yashovchan urug‘lari, hattoki, hasharotlarning lichinkalari) bo‘lishi ham mumkin. Urug‘ tozaligini tekshirishdan maqsad shuki, keyinchalik dala maydonlarini turli begona o‘tlardan asrash, hosilni sifati va miqdorini tushib ketishini oldini olish va urug‘larni yaxshi ya’ni sifatli saqlash hisoblanadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko‘ra loy halqachalarning holatiga qarab olingan tuproq na’munalari: Olingan tuproq na’munalarini 4 tadan jami 12 ta petri idishlariga maxsus belgilar bilan ajratildi. Ishning tartibi bo‘yicha undirilmoqchi bo‘lgan dorivor arpabodiyon urug‘ini 1000 dona vazni o‘lchandi. 1000 dona urug‘ vazni 6,18 gr ni tashkil etdi. So‘ng mana shu 1000 dona urug‘ning tozalik darajasi aniqlandi. Urug‘ni tekshirilganda, 96 foiz tozalikka ega ekanligi aniqlandi. Keyingi qilinadigan ish urug‘larning unuvchanligini tekshirish bo‘lib, biz 1000 dona

urug‘ni mahalliy usul bilan ya’ni suvga ivitish usuli bilan bajardik. Bu usulda unuvchanligi past yoki puch bo‘lib qolgan urug‘lar suv yuzasiga chiqadi. Unuvchanligi yuqori ko‘rsatkichda bo‘lgan urug‘lar esa suvga cho‘kadi. Tekshiruvimiz natijasida 1000 dona urug‘dan 125 tasi ya’ni 12.5 % unmaydigan urug‘lar ekanligini aniqladik. Urug‘larning unuvchanligini aniqlash, keyinchalik


ekinning ko‘chat qalinligiga o‘simliklarning bir yo‘la qiyg‘os rivojlanishi hamda boshqa belgilariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Na’munadagi tuproq pH ko‘rsatkichlari

(1-jadval)

	Tuproq na’munasi	Tuproq pH muxiti
	Yengil qumoq	Ph-7,3
	Og‘ir qumoq	Ph-6
	Soz tuproq	Ph-6,5

Urug‘ning unuvchanligi harorat, yetarli bo‘lgan namlik va ekilgan sharoitlari bilan uzviy bog‘liq. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlarni inobatga olgan holda urug‘ni



ekish uchun tayyor holatga keltirib oldik. Ajratilgan 1000 dona urug‘dan o‘zimizga kerakligini ya’ni 300 tasini (1,85 gr) ni ajratib oldik. Tuproq na’munalari solingan 12 ta petri idishlariga har biriga 25 donadan ekdik va ularni oddiy suv bilan namladik (hech qanday ozuqa muhitisiz). Ish tartibi bo‘yicha urug‘ni labaratoriya sharoitida unuvchanligini tekshirish ya’ni fenologik kuzatuv asosida olib borildi. Urug‘ni unib chiqishi ekilganidan 4 kun o‘tgandan keyin yuz berdi.


Urug‘larning turli tuproq sharoitida o‘sish tezligi

2-jadval

	Yengil qumoq				Og‘ir qumoq				Soz tuproq			
Sana	08.05.24	10.05.24	11.05.24	13.05.24	08.05.24	10.05.24	11.05.24	13.05.24	08.05.24	10.05.24	11.05.24	13.05.24
				5			14	18			12	17
	0	4	7	2			17	19			4	16

	1		2	1			14	18			3	15
		2	4	3			18	18			1	14

Yuqoridagi jadvalda olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki yengil qumoqda 1-nazorat idishda 25 ta *Pinpinella Anisum L* urug‘lari 2-nazoratda 22 ta 3 - nazoratda



21 ta 4- nazoratda 23 ta unib chiqdi va o‘rtacha unuvchanlik 91 % ni tashkil qildi. Og‘ir qumoqda 1-nazoratda 18 ta 2-nazoratda 19 ta 3-nazoratda 18 ta 4-nazoratda 18 ta unib chiqdi o‘rtacha unuchanlik 73 % unuvchanlik. Soz tuproqda 1-nazoratda 17 ta, 2-nazoratda 16 ta, 3-nazoratda 15 ta, 4-nazoratda 14 ta unib chiqdi va o‘rtacha unuvchanlik 62 % ni tashkil etdi. Mexanik tarkibi yengil pH muvit 7.3 va chirindiga boy bo‘lgan tuproqdagi variantimizda unuvchanlik yuqori ko‘rsatkich berdi.

Xulosa

Olib brogan tajribamizda kuzatuvdan so‘ng shuni aytish mumkinki, gumusli yengil qumoq tuproq na’munasiga ekilgan urug‘lar yaxshi rivojlandi. Xulosa qilinganda, dala maydonlari tuproqlarining mexanik tarkibi ham ekilgan o‘simliklar uchun juda katta muhim ahamiyatga ega. Ya’ni birgina tuproqning mexanik tarkibi uning issiqlik, suv o‘tkazuvchanlik, zichlik, kapillyarlik, suvni o‘zida saqlash, struktura holati va undagi pH muxiti va boshqa jarayonlar bilan uzviy bog‘liq. Birgina mexanik tarkibini yaxshilashga qaratilgan ishlar tuproqda juda katta ijobiy holatni vujudga keltiradi. *Pinpinella Anisum L* xosildorligini oshirish va dorivorlik xususiyati yaxshilashda mexanik tarkibi yengil bo‘lgan tuproqda eng samarali xisoblandi. Mexanik tarkibi qoniqarli bo‘lmagan ya’ni yorilishi va suv tutib tura

olmasligi kuchli bo‘lgan tuproqlarga ekilgan madaniy ekinlar nobud bo‘lishi ko‘p kuzatiladi. Chunki endigina ildiz hosil qilayotgan payt yorilish vujudga kelib, ildizlarni qismlarga bo‘lib tashlaydi. O‘simlikning asosiy nish urishi esa ildizidan bo‘ladi. Shikastlangan ildizdan o‘simlik unishi juda qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. J. Tojibayev, G.Abdullayeva N.Sharobitdinov "Mikrosuvo‘tlarni ekinlar xosildorligini oshirishda qo‘llash" "Lesson Press" nashriyoti Toshkent-2023 41-49- betlar.
2. O‘zb.Res.Prezidentining 2018- yil 17-iyuldagi O‘zb.Res.Fanlar akademiyasi Botanika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida N-PQ-3861 sonli qarori.
3. Pankratova E.M."Tuproqlarning azot balansida ko‘k-yashil suvo‘tlarining ishtiroki//SSS qishloq xo‘jaligi mineral va biologik azot "1985- yil 221-228-betlar.
4. Bolshev N.V. "Suvo‘tlari va ularning tuproq hosil bo‘lishidagi o‘rni" "Moskva" nashriyoti 1968- yil 83-bet.
5. Turg‘unov M., Zahiriddinov I. "Tuproqshunoslik va agrokimyo" Namangan-2023 21-23- betlar.
6. Gollerbax M. M, Shtina E.A. "Tuproq suvo‘tlari" 1969- yil 228- bet.
7. Musayev K.Y. "Sug‘oriladigan tuproqlarning suvo‘tlari va ularning tuproq unumdorligini oshirishidagi ahamiyati" Toshkent "Fan" nashriyoti 1960- yil 182- bet.
8. Odilov I. "Dehqonchilik va melioratsiya asoslari" Namangan-2023 10-15- betlar.
9. Ermakov I.P. "O‘simliklar fiziologiyasi" Universitet talabalari uchun darslik "Akademiya" nashriyoti 2005- yil 640- bet.
10. Samarkand branch of Tashkent State Agrarian University. Bir hujayrali mikrosuvo‘ti scenedesmus spni laboratoriya sharoitida ko‘paytirish va biomassa olish *Shaxnoza Muptullayevna Xushnazarova [2019-yil Samarqand]*
11. Zahriddinov, I. I. o‘g‘li, & Tursunova, N. S. qizi. (2024). Teri kasalliklarida foydali bo‘lgan xalq tabobati dorivor o‘simliklari bo‘yicha tavsiyalar. Educational Research in Universal Sciences, 3 (1), 213–218. Retrieved from
12. Usmonov Tokhirjon, & Zahiriddinov Ilyosjon. (2023). Medicinal Plants of the Lamiaceae Family in Namangan Region. *International Journal of Scientific*

Trends, *2*(4), 24–31. Retrieved from

13. QO‘SH EKINLAR PARVARISHLASHNING TUPROQ HAJM OG‘IRLIGIGA TA’SIRI. Tursunov A.A, Ergasheva N.X, Zahriddinov I.I 606/ 29-bet

14. Dorivor zubturum o‘simligining zamonaviy tabobatda qo‘llashning samarali
usullari Zahriddinov I.I., G‘ulomova G. M., Abdubannayeva X.G‘ 1409/243-bet

15. Prezidentining qarori, 20.05.2022 yildagi PQ-251-son. [Toshkent 2022 y]

16. “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda etishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-4670-sonli qaror qabul qilindi. [Toshkent 2020 y]

17. E.T Berdiyev, E.T Ahmedov "Tabiiy dorivor o‘simliklar" (o‘quv qo‘llanma) Toshkent, O‘zRFA Minitipografiyasi, 2018.113-114 bet.

18. Musayev K.Y. "Sug‘oriladigan tuproqlarning suvo‘tlari va ularning tuproq unumdorligini oshirishidagi ahamiyati" Toshkent "Fan" nashriyoti 1960- yil 182- bet.

19. Educational Research in Universal Sciences Zahriddinov Ilyosjon Ilhomjon o‘g‘li, Abdulatifova Oydina Nozimjon qizi DOI: **https://doi.org/10.5281/zenodo.11177686**

20. Sh. Xoliqulov, P.Uzoqov, I.Boboxo‘jayev. [Tuproqshunoslik] Toshkent-2011 3-571-bet

ФРАКТАЛ РЕКУРСИВ АЛГОРИТМ АСОСИДА ВИЗУАЛ БАҲОЛАШ ТИЗИМИ

Асқар Умрзоқов Абдуқаюмвич
Гулистон давлат университети, « Ахборот тизимлари» магистатура мутахассислиги талабаси
E-mail: anorboyevtolibjon2000@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439811

Аннотация: Фрактал рекурсив алгоритмлар асосида янги визуал баҳолаш тизимини ишлаб чиқиш ва унинг самарадорлигини таҳлил қилишдан иборат.Фрактал тизимлар табиатда кенг тарқалган бўлиб, уларни моделлаштириш ва визуаллаштириш муҳим аҳамиятга эга.Мақолада фрактал назарияси ва рекурсив алгоритмлар таҳлил қилинди.Фрактал рекурсив алгоритмлар асосида янги визуал баҳолаш тизими ишлаб чиқилди. Бу тизим қуйидаги босқичларни ўз ичига олади: фрактал моделларни танлаш ва уларнинг параметрларини аниқлаш, рекурсив алгоритмларни ишлаб чиқиш ва уларнинг самарадорлигини таҳлил қилиш, олинган натижаларни визуаллаштириш учун графика дастурларидан фойдаланиш, тизимнинг ишлаш самарадорлигини баҳолаш ва уни такомиллаштириш.Ишлаб чиқилган визуал баҳолаш тизими табиий ҳодисаларни аниқ ва реалистик тасвирлаш, визуал маълумотларни осон қабул қилиш ва тушуниш, вақт ва ресурсларни тежаш, мураккаб ҳодисаларни тадқиқ қилиш имкониятларига эга.

Калит сўзлар: Фрактал, рекурсив алгоритм, визуал баҳолаш тизими, рекурсия, моделлаштириш, графика, табиий ҳодисалар, параметрлар, самарадорлик, тадқиқот.

Аннотация: Он заключается в разработке новой системы визуальной оценки на основе фрактальных рекурсивных алгоритмов и анализе ее эффективности. Фрактальные системы широко распространены в природе, а их моделирование и визуализация имеют важное значение. В статье проанализирована теория фракталов и рекурсивные алгоритмы. Разработана новая система визуальной оценки. на основе фрактально-рекурсивных алгоритмов. Данная система включает следующие этапы: выбор фрактальных моделей и определение их параметров, разработка рекурсивных алгоритмов и анализ их эффективности, использование графических программ для визуализации полученных результатов, оценка производительности системы и

ее улучшение. Развитая система визуальной оценки естественна. Она способна точно и реалистично описывать явления, легко получать и понимать визуальную информацию, экономить время и ресурсы, исследовать сложные явления.

Ключевые слова: Фрактал, рекурсивный алгоритм, система визуальной оценки, рекурсия, моделирование, графика, явления природы, параметры, эффективность, исследование.

Annotation. It consists of developing a new visual assessment system based on fractal recursive algorithms and analyzing its effectiveness. Fractal systems are widespread in nature, and their modeling and visualization are important. The article analyzes the theory of fractals and recursive algorithms. A new visual assessment system has been developed. based on fractal-recursive algorithms. This system includes the following stages: selection of fractal models and determination of their parameters, development of recursive algorithms and analysis of their effectiveness, use of graphical programs to visualize the results obtained, evaluation of system performance and its improvement. A developed visual assessment system is natural. It can accurately and realistically describe phenomena, easily obtain and understand visual information, save time and resources, and explore complex phenomena.

Key words: Fractal, recursive algorithm, visual assessment system, recursion, modeling, graphics, natural phenomena, parameters, efficiency, research.

Ҳозирги ахборот ва рақамли технологиялар асрида улкан ҳажмдаги электрон ҳужжатлар маълумотлари (матнлар)ни қайта ишлаш усулларининг сифати ва самарадорлигини оширишга бўлган эҳтиёж тобора ортиб бормоқда. Структураланмаган матнли маълумотларни қайта ишлашнинг фаол ривожланаётган соҳаларига ахборот қидириш, матнларни фильтрлаш, улар (ҳужжат)ларни тўплаш ва саралаш, саволларга жавоб топиш, матнларни автоматик аннотациялаш, ўхшаш ва дубликат матнларни қидириш, матнларни сегментлаш каби вазифалар киради.

Таълим соҳасида фрактал педагогика каби креатив ёндашувни амалиётга кенг тадбиқ этиш йўналишларида самарали илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Бунда илғор хорижий тажрибалар асосида бўлажак мутахассисларни тайёрлашда фрактал педагогиканинг тамойилларидан қўллаб ўқитиш алоҳида аҳамият касб этади. Таълим жараёнининг асосий бўгинлари ўқитувчи, талаба, фан ва қўлланиладиган методика ҳисобланади. Бунда фанни ўқитиш маҳорати ўқитувчига бўглиқлигини таъкидлашимиз зарур. Ўқитувчи

қўллаётган воситалар ўзининг фан доирасидаги билимлар базаси замонавий талабларга жавоб бериши муҳим омил ҳисоблабади. Чунки мутахассислик фанлар ахборот технологияларининг махсус соҳасидаги билимлар мажмуи сифатида қаралиб кундан-кунга янги технологиялар, воситалар, дастурий таъминотлар ва ҳакозо такомиллаштирилади. Шу жараёнлар билан узвий равишда ўқитувчини касбий маҳорати фракталсимон ўсишга зарурияти вужудга келади.Бошқа томондан талабаларда фанлар бўйича асосий тушунчаларга эга бўлиши, бундан ташқари охирги янгиланган билимлардан хабардор бўлиши, эгаллаган билимларни ўзинг бўлғиси касбий ҳаётида қўллай олиши, ўзи янги янги маълумотлар ишланмалар ва шу кабиларни ишлаб чиқиши фракталнинг фрактал уйғунлик яққол кўриниши сифатида тасвирланади. Бу борада ушбу жараёнларни мониторинг этиш ўқитувчи ва талабаларнинг ўқув жараёнида фаоллигини баҳолашнинг ва бошқаришнинг самарали йўлларини таклиф этиш муҳим ҳисобланади.

Таълим жараёнини автоматлаштирувчи тизим самарадорлигини оширишнинг асосий мақсади талабаларнинг ўқув фаолияти ва ўзлаштириш кўрсаткичларини сифатини назорат қилиш ҳамда ўқитувчиларнинг бошқарув фаолиятининг самарадорлигини диагностика қилиш ҳисобланади. Таълим сифатини баҳолаш таълим жараёни ривожлантириш, янги педагогик технолигиялардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, ўқув жараёни фаолиятини олиб бориши ва ривожланиш тенденцияларини амалга ошириш механизмини аниқлашни назарда тутади.

Мутахассислик таълим йўналишларида ўқув материалларини ўзлаштиришнинг асосий кўрсаткичлари компьютерлар, математика, информатика (дастурлаш), физика каби махсус фанлари, фанни ўзлаштириш кўрсаткичи ошиши, муаммоларни ҳал қилишда ўрганиш вақти билан боғлиқдир. Шунинг учун ўқитиш сифатини ташҳислашда ва ўқув жараёнини бошқаришда тадқиқотлар билимларни ўзлаштириш даражаси ёки автоматлаштириш коэффициенти каби кўрсаткични ўз ичига олади. Бу кўрсаткич малакани ўзлаштирилган фаолият усулларини ўзлаштириш кўникмаси сифатида тавсифлайди. Ҳар бир ўқитиш жараёни натижасида ўрганувчи фан бўйича билим, амалий коникмалар эгаллаши муҳим кўрсаткич сифатида қаралади ва олинган билимлар бошқа турдош мутахассислик фанларида фойдаланиши мутахассис сифатида шаклланишида асос бўлади.

Ишлаб чиқилган автоматлаштирилган ўқув ахборот тизимининг фрактал хусусиятларга асосланган талабаларнинг ўзлаштириш жараёнини назарот қилиш тизими қуйидаги таркибий қисмларни ўз ичига олади:

модулли ўқув дастурига мувофиқ ўқув тезаурусига асосланган таълимнинг ахборот модели;

талабаларнинг ўзлаштириш кўрсаткичларини таҳлил қилишнинг фрактал модели;

педагогик назорат материаллари;

ўқув жараёни босқичларини визуаллаштиришнинг фрактал уйғунлиги;

талабалар ўзлаштириш кўрсаткичларининг фрактал хусусияти.

Автомалтлаштирилган ўқув ахборот тизимини талабаларнинг ўзлаштириш жараёнини назорат қилиш блокини ишлаб чиқиш учун фан модулининг тезауруслар тўплами асос бўлиб хизмат қилади. Фракталларнинг асосий хусусиятларидан фойдаланган ҳолда амалга оширилди. Фанлараро алоқаларни ортиб бориши турли таълим йўналишида таҳсил олувчи талабаларни ўқитишда фаннинг ўқув материалларини тартибга солиш фракталлаш орқали амалга оширилади. Автоматлаштирилган ўқув ахборот тизимининг материаллар блокининг ахборот модели фаннинг модуллари, фанлараро алоқалари, мутахассислик соҳаси ва илмий соҳаси билан боғлиқлиги орқали тузилган.

Фрактал тизимлари - математиканинг ажралмас қисми бўлиб, уларнинг табиатда кўп учраши ва турли соҳаларда кенг қўлланилиши жуда қизиқарли ҳодисадир. Фрактал рекурсив алгоритмлар асосида визуал баҳолаш тизими яратиш, бу тизимнинг самарадорлигини ўрганиш ва такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эга.

Визуал баҳолаш тизими фрактал назариясидан фойдаланиб, мураккаб табиий ҳодисаларни тасвирлашга имкон яратади. Бу тизим асосида табиат ҳодисаларининг визуаллаштирилган моделини олиш мумкин. Бунинг учун фрактал рекурсив алгоритмлардан фойдаланилади. Рекурсив алгоритмлар ўзини-ўзи такрорлаб, фрактал таркибни ҳосил қилади.

Фрактал рекурсив алгоритм асосида визуал баҳолаш тизимини ишлаб чиқиш қуйидаги босқичларни ўз ичига олади:

Фрактал моделларни танлаш ва уларнинг параметрларини аниқлаш;

Рекурсив алгоритмларни ишлаб чиқиш ва уларнинг самарадорлигини таҳлил қилиш;

Олинган натижаларни визуаллаштириш учун графика дастурларидан фойдаланиш;

Тизимнинг ишлаш самарадорлигини баҳолаш ва уни такомиллаштириш.

Фрактал рекурсив алгоритмлар асосида яратилган визуал баҳолаш тизими қуйидаги афзалликларга эга:

Табиий ҳодисаларни аниқ ва реалистик тасвирлаш имконияти;

Визуал маълумотларни осон қабул қилиш ва тушуниш;

Вақт ва ресурсларни тежаш;

Мураккаб ҳодисаларни тадқиқ қилиш имконияти.

Шундай қилиб, фрактал рекурсив алгоритмлар асосида яратилган визуал баҳолаш тизими табиий ҳодисаларни ўрганишда, уларни математик моделлаштиришда ва визуаллаштиришда жуда қўл келади. Бу тизимнинг яратилиши ва такомиллаштирилиши илмий ва амалий аҳамиятга эга.Фракталларнинг хусусиятларидан фойдаланиш бу каби муаммони қулай тарзда ечимини топиш имконини беради. Ўқув жараёнида фаннинг таркибий элементларини стохастик фракталлар билан ифодалаш фракталларнинг ўз-ўзига ўхшашлик хусусиятини акс эттиради ва ўзига ўхшаш қисмлар деб ҳисобланади.Автоматлаштирилган ўқув ахборот тизимининг бир қисми сифатида фойдаланувчиларнинг ўзлаштириш кўрсаткичларини мониторинг тизимини такомиллаштириш ва фрактал хусусиятларга асосланган визуал кўринишини қўллаш имкониятлари кўриб чиқилади. Бошқариш тизими фракталларнинг ўз-ўзига ўхшашлиги ва ўзгармаснинг сақланишига асосланган. Фракталларни қўллаш орқали фаннинг ўрганилаётган модуллари фанлараро алоқалар даражаси ва чуқурлигини аниқлаш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Anarova Sh.A., Sadullayeva Sh.A., Azamov V.F. Murakkab fraktal tuzilishdagi dizaynlarni arxitekturada qo‘llash. “Рақамли иқтисодиётни шакллантиришда илм-фан ва инновацион ютуқларни амалиётга жорий этишнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги ёш олимларнинг XVII республика илмий-амалий online конференцияси.Самарқанд.2020 йил 3 июн. 19-23 б.

2.Қаюмова Г.А. HURST кўрсаткичига асосланган билим чуқурлиги ва ўқув когнитив фаолиятининг синергетик таъсири ҳажмини аниқлаш алгоритми. ЎзМУ хабарлари Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети илмий журнали. №1/11/1. Тошкент-2022. -Б.116-119

3.Маджуга А.Г. Концептуально-теоретические основы фракталной педагогики как новой области социально-гуманитарного знания/А.Г. Маджуга, И.А. Синицина, Э.В.Филипенко // Научный диалог. 2015. №12(48). С.450–459.

4.Қаҳҳарова С.(2023). Тезаурунинг семантик таҳлиллардаги ўрни. https://doi.org/10.5281/zenodo.7632211

5.Кроновер Р.М. Фракталы и хаос в динамических системах. М.: Постмаркет. 2000. 350 с.

6.Шредер М. Фракталы, хаос, степенные законы. М., Ижевск: Регулярная и хаотическая динамика. 2001. 527 с.

7.Nazirov Sh.A., Anarova Sh.A., Nuraliyev F.M. Fraktallar nazariyasi asoslari. – Tashkent: Navro‘z. Monografiya. 2017. - 128 b.

8.Anarova Sh.A., Narzulloyev O.M., Ibragimova Z.E. Development of Fractal Equations of National Design Patterns based on the Method of R-Function // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-4, February 2020. –Pp. 134-137.

ASOSIY EKIN SIFATIDA YETISHTIRILGAN MARJUMAK *(FAGOPYRUM ESCULENTUM)* O‘SIMLIGINING FOTOSINTEz SOF MAHSULDORLIGI

Dilnoza Shopulatova Sheraliyevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biologiya fakulteti magistranti, E-mail: shopulatova.dilnoza@mail.ru

Sirojiddin O‘roqov Xudoyberdiyevich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti dekani, biologiya fanlari doktori. E-mail: usiroj1981@mail.ru

https://doi.org/10.5281/zenodo.11439836

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilgan marjumakni fotosintez sof mahsuldorligining fazalar davomida o‘zgarishi keltirilgan. Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha, rivojlanish fazalari va ma’danli o‘g‘it me’yorlari ta’sirida marjumak fotosintezining sof mahsuldorligi o‘zgaradi. Marjumak rivojlanishining dastlabki fazalarida (shoxlanish va g‘unchalash) fotosintez sof mahsuldorligi yuqori bo‘lib, rivojlanishning keyingi fazalarida bu ko‘rsatkich kamayib boradi.

Kalit so‘zlar. Marjumak, fotosintez, Fagopyrum esculentum, Qozon va Krupinka navlari, fotosintez sof mahsuldorligi, fotosintetik potensial, rivojlanish fazalari.

Abstract. This article presents the changes in the net photosynthesis productivity of buckwheat *(Fagopyrum esculentum)* grown in the conditions of Samarkand region during the phases

During the research, it was found that the net productivity of buckwheat photosynthesis changes under the influence of development phases and mineral fertilizer standards.

In the early stages of buckwheat development (branching and budding), the net productivity of photosynthesis is high, and this indicator decreases in the later stages of development. Also, it was determined that the dynamics of the leaf level changes during the development phases. Optimum leaf area of buckwheat is considered to be the main physiological indicator determining its photosynthetic activity, productivity, crop quality, leaf area in the ripening phase of grain is 29.7 thousand m^2/ha, photosynthetic potential is equal to 1.95 million m^2/ha/day determined to be.

Key words. Buckwheat, photosynthesis, , Fagopyrum esculentum, Kazan and Krupinka varieties, photosynthesis net productivity, photosynthetic potential, development phases.

Kirish. Yashil o‘simliklarning hayoti uzluksiz ravishda organik moddalar to‘plash va tabiatga molekulyar kislorod ajratish bilan xarakterlanadigan fotosintetik faoliyatga bog‘liq bo‘ladi.

Fotosintez o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi, hosil sifatini belgilovchi muhim jarayonlardan biridir. Shuning uchun ham qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun qo‘llaniladigan barcha chora-tadbirlar o‘simlik fotosintetik faoliyatini faollashtirishga qaratiladi.

O‘simliklarning barglari eng muhim vegetativ organlaridan biri hisoblanadi va unda fotosintez jarayoni sodir bo‘ladi. O‘simliklar fotosintetik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri barglar shakllanish davomiyligi, sathining kattaligini mo‘tadilligidadir. O‘sish davrida barg sathi mo‘tadil bo‘lganda, ekinlardan yuqori hosil olish mumkin. Marjumak yetishtirishda navlarning barg sathi va fotosintetik faoliyatiga madanli o‘g‘itlar, oziqlanish maydoni, ekish usullari va ekish me’yorlarining ta’siri dala tajribalarida o‘rganilgan [1]. Olingan ma’lumotlar bo‘yicha o‘simlik ma’danli o‘g‘itlar bilan me’yorida ta’minlanganida bo‘yining o‘sishi 10-12% ga, quruq moddaning hosil bo‘lishi 9-10% ga, barg assimilyatsiya yuzasi 40% ga oshganligi aniqlangan [2].

Barglar sathining optimal yuzasi va o‘simlikning fotosintetik faoliyati hosildorlikni belgilovchi asosiy fiziologik jarayon bo‘lib, barg sathi donning sut pishish fazasida maksimal darajada 29.7 ming m^2/ ga , fotosintetik potensial 1.95 mln.m^2/kun/ga teng ekanligi aniqlangan [3].

Marjumak navlarida hosildorlikning agrobiologik va ekologik omillarga hamda navlarning fotosintetik faoliyatiga, o‘simliklarning ko‘chat qalinligi hamda suv bilan ta’minlanishiga bog‘liqligi atroflicha o‘rganilgan [4].

Fotosintezning sof mahsuldorligi o‘simlikning biologik hosil darajasini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Qishloq xo‘jalik ekinlarining fotosintetik faoliyatiga agrotexnik usullar sezilarli ta’sir qiladi. Bir qator olimlarning ta’kidlashicha, fotosintez sof mahsuldorliging yuqori bo‘lishi, hosildorlikni oshirib, donning sifatini yaxshilashga olib keladi. Marjumakni birinchi o‘g‘itlashda $N_{30}P_{60}K_{60}$ kg/ga qo‘llanilib, ikkinchi oziqlantirishda N 15-20 kg/ga berilganda, fotosintez sof mahsuldorligi nazoratga nisbatan 14%, don hosildorligi 17% ga oshgan [4].

O‘simliklar bargida uchraydigan pigmentlar fotosintez jarayonida asosiy rol o‘ynaydi. Shu boisdan respublikamizda introduksiya qilinayotgan ko‘pgina o‘simliklarning bargidagi plastid pigmentlari miqdorini navlarning biologik xususiyatlariga bog‘liq holda vegetatsiya davomida o‘zgarib borishi o‘rganilmoqda [5]. Plastid pigmentlarining miqdori o‘simlikdagi fotosintez jadalligini muayyan darajada belgilaydi, ularning o‘sishi, rivojlanishini va hosildorlikni ta’minlaydi [6].

Ma’lumki, fotosintez natijasida hosil bo‘lgan organik moddalarning yillik massasi sayyoramiz aholisi uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat miqdorini qoplaydi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi effektivligini oshirishning yo‘llaridan biri barg joylashish strukturasi yaxshi bo‘lgan o‘simlik navlarini yaratish hisoblanadi [7].

Marjumak navlarida hosildorlikning agrobiologik va ekologik omillarga hamda navlarning fotosintetik faoliyatiga, o‘simliklarning ko‘chat qalinligi hamda suv bilan ta’minlanishiga bog‘liqligi atroflicha o‘rganilgan [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Laboratoriya sharoitida urug‘larning unish quvvati va unuvchanligini aniqlash bilan birgalikda, dala sharoitida kichik paykallarda (2 m^2) urug‘larning unuvchanligiga ekish chuqurligining (1 sm dan to 12 sm gacha) ta’siri tadqiq qilindi.

Tajribalarda quyidagi kuzatishlar, biometrik o‘lchovlar va tahlillar o‘tkazildi:

- barglar sathi N.N.Tret`yakov [1990] va tarozida tortish usulida, fotosintez sof mahsuldorligi A.A.Nichiporovich va boshqalar [1961] usullarda aniqlandi ;
- barglardagi pigmentlar miqdorini V.F.Gavrilenko, M.YE.Ladigina, L.M.Xandobina [1975] usuli va SF-26 dan foydalanib, Wettstein (1957)ning 96% spirt eritmasida xlorofillar va karotinoidlarning miqdorini hisoblash orqali;
- o‘g‘itlash, ekish muddati, ekish me’yori va boshqa agrotexnologik tadbirlar O‘zPITI uslublari asosida olib borildi.
- ilmiy tadqiqotlar mobaynida to‘plangan natijalarni statistik qayta ishlash B.A.Dospexov, V.P.Borovikov, I.P.Borovikov; B.J.Azimov, B.B. Azimov tavsiyalariga asosan bajarildi.

Umuman, qo‘llanilgan tadqiqot uslublari ilmiy-tadqiqot jarayonlarida sinalgan va keng qo‘llanilayotgan uslublar hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Marjumak navlarida fotosintez sof mahsuldorligi ko‘rsatkichi navlarning biologik xususiyatlariga bog‘liq holda vegetatsiya davomida o‘zgarib borishi aniqlandi. Olingan natijalarga ko‘ra, rivojlanish fazalari va ma’danli o‘g‘it me’yorlari ta’sirida marjumak fotosintezining sof mahsuldorligi o‘zgaradi. Marjumak rivojlanishining dastlabki fazalarida fotosintez sof mahsuldorligi yuqori bo‘lib,

rivojlanishning keyingi fazalarida bu ko‘rsatkich kamayib boradi. Bunday qonuniyat Qozon va Krupinka navida ham kuzatildi.

Biz tadqiqotlarimizda marjumak rivojlanishining turli fazalarida fotosintez sof mahsuldorligini aniqladik. Tajribada aniqlangan natijalar 1–jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Fotosintez sof mahsuldorligi, g/m^2, kun hisobida

№	Navlar	Aniqlash muddatlari				
		shoxlanish	g‘unchalash	gullash	dastlabki don hosil bo‘lishi	dastlabki don pishishi
1	Krupinka	14.9	14.3	13.2	10.3	5.4
2	Qozon	14.2	13.8	12.6	10.8	6.4

Olingan natijalarga ko‘ra, Fotosintez sof mahsuldorligi Krupinka navida shoxlanish fazasida 14.9 g/m^2, g‘unchalash fazasida 14.3 g/m^2, gullash fazasida 13.2 g/m^2, dastlabki donning hosil bo‘lishi fazasida 10.3 g/m^{2}ni tashkil qilgan bo‘lsa,dastlabki donning pishishi fazasida 5.4 g/m^2 ni tashkil qildi. Qozon navida bu ko‘rsatkichlar rivojlanish fazalariga mos ravishda 14.2g/m^2, 13.8g/m^2, 12.6g/m^2, 10.8g/m^2, 6.4g/m^2 ni tashkil qildi.

Umuman, marjumak navlarining fotosintetik sof mahsuldorligi o‘simlikning fazalarida turlicha miqdorda o‘zgarib borishi aniqlandi.

Xulosa. Marjumakning har ikkala navida, ya’ni “Qozon” va “Krupinka” navida ham fotosintez sof mahsuldorligi navlarning biologik xususiyatlariga bog‘liq holda vegetatsiya davomida o‘zgarib borishi kuzatildi.

Adabiyotlar

1. Jo‘rayeva Z.J., Xalilov N.X. Zarafshon vodiysi sharoitida ekish me’yorining grechixa navlari hosildorligiga ta’siri. // O‘zbekiston fani: o‘tmishi, buguni va kelajagi: Mintaqaviy ilmiy-amaliy konf. Materiallari.-Samarqand , 2001,24-25 may.

2. Khoroshilov A.A., Pavlovskaya N.E., Borodin D.B., Yakovleva I.V. A nanosilicon preparation is superior to a biological preparation and a chemical preparation in activity towards photosynthetic productivity and yield parameters of spring wheat [ФОТОСИНТЕТИЧЕСКАЯ ПРОДУКТИВНОСТЬ И СТРУКТУРА

УРОЖАЯ ЯРОВОЙ ПШЕНИЦЫ ПОД ВЛИЯНИЕМ НАНОКРЕМНИЯ В СРАВНЕНИИ С БИОЛОГИЧЕСКИМ И ХИМИЧЕСКИМ ПРЕПАРАТАМИ] (2021) Sel'skokhozyaistvennaya Biologiya, 56 (3), pp. 487-499. 1) https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0-85109316491&doi=10.15389%2fagrobiology.2021.3.487eng&partner ID=4DOI: 10.15389/agrobiology.2021.3.487.

3. O'roqov S.X. Marjumak fotosintezining sof mahsuldorligiga azot me'yorlarining ta'siri "O'zbekiston biologiyasi jurnali".-Toshkent,2011.

4. Полехина Н.Н. Сравнительная характеристика содержания флавоноидов гречихи посевной районированных сортов в Орловской области селекции ВНИИ ЗБК // Сборник тезисов и докладов Международной научно-практической студенческой конференции «Химия и жизнь», Новосибирск. - 2011. - С.43-46.

5. Кузнецов В.В., Дмитриева Г.А. Физиология растений.- М.: Абрис, 2011. – 783

6. Kamle M., Mahato D.K., Devi S., Lee K.E., Kang S.G., Kumar P. Fumonisins: Impact on agriculture, food, and human health and their management strategies (2019) Toxins, 11 (6), статья №328, 1)https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0-85067793484&doi=10.3390%2ftoxins11060328&partner ID=40&md5=895DOI: 10.3390/toxins11060328

7. Farhadi N., Moghaddam M., Alizadeh Salteh S., Sanati Monfared B. Effect of 5-Aminolevulinic Acid on Phytochemical and Biochemical Traits of Fagopyrum esculentum Under Salinity Stress (2022) Journal of Soil Science and Plant Nutrition, 22 (3), pp. 3254-3267. 1) https://www.scopus.com/inward/record. uri?eid=2-s2.0-85130483010&doi=10.1007%2fs42729-022-00883-z&partnerID=40&m d5DOI: 10.1007/s42729-022-00883-z

8. Полехина Н.Н. Сравнительная характеристика содержания флавоноидов гречихи посевной районированных сортов в Орловской области селекции ВНИИ ЗБК // Сборник тезисов и докладов Международной научно-практической студенческой конференции «Химия и жизнь», Новосибирск. - 2011. - С.43-46.

AHMAD AL-FARG‘ONIY VA MIQYOSI NIL. FARG‘ONIYNING DUNYO GIDROLOGIYA FANIGA QO‘SHGAN HISSASI

Baxtiyor Radjabov Sharipovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Matematika o‘qitish metodikasi va geometriya kafedrasi professori

Adolat Darmonova Bahodir qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Matematika o‘qitish metodikasi va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439868

Annotatsiya. Ushbu maqoladi siz Ahmad al-Farg‘oniy va uning hayot yo‘li haqida qisaqacha ma’lumotga ega bo‘lasiz. Shuningdek, allomaning dunyoda ilk marotaba ixtiro qilgan vas hu kungacha saqlanib qolgan nil sathini o‘lchash asbobi ya’ni nilometr yoki miqyosi nil haqida bilib olasiz.

Kalit so‘zlar: Ahmad al-Farg‘oniy, miqyosi nil, nilometr va gidrologiya.

Аннотация. В этой статье вы получите краткую информацию об Ахмаде аль-Фаргани и его жизненном пути. Также вы узнаете о нилометре, или нулевой шкале, инструменте для измерения уровня Нила, который был изобретен Алломой впервые в мире и сохранился до сих пор.

Ключевые слова: Ахмад аль-Фаргани, нулевая шкала, нилометр и гидрология.

Abstract. In this article, you will get brief information about Ahmad al-Farghani and his life path. Also, you will learn about the nilometer, or nil scale, a tool for measuring the level of the Nile, which was invented by Alloma for the first time in the world and is preserved to this day.

Key words: Ahmad al-Farghani, nil scale, nilometer and hydrology.

Kirish. Jahon fani tarixida o‘zlarining juda boy ijodlari bilan nom qoldirgan olimlar orasida o‘zbek xalqining ko‘plab vakillari borki, ulardan biri Sharqning ulug‘ mutafakkir olimlaridan biri VIII-IX asrlarda yashab ijod etgan vatandoshimiz Ahmad al-Farg‘oniydir.

Olimning to‘liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Kasir al-Farg‘oniydir. Manbalarda uning farg‘onalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa ma’lumotlar saqlanmagan. Lekin shuni ham e’tiborga olish kerakki, o‘rta asrlarda musulmon o‘lkalarida

an’anaga binoan, mamlakat poytaxti yoki markazini ham mamlakat nomi bilan atashgan. Ba’zi arab mamlakatlarida bu odat hozir ham saqlanib qolgan. Ahmad al-Farg‘oniy ensiklopedik olim bo‘lishi bilan bir qatorda matematika o‘sha davr darajasida mukammal bilgan. Ayniqsa matematika, fizika va gidrologiya fanlarining tadbiqlari bilan shug‘ullangan. Bunga misol sifatida uning tomonidan Afrika qit’asida Nil daryosi satxini bashorat qiluvchi Nilometr deb nomlangan asbob yaratgan va bu asbobdan Misrliklar asrlar davomida foydalanib kelganlar. Misrning poytaxti Qohirani – Misr, Shomning poytaxti Damashqni Shom deyilishi shundan. Ana shu odatga ko‘ra, o‘rta asrlardagi Farg‘ona vodiysining markaziy shahri Axsikatni ham Farg‘ona deyishgan. Al-Farg‘oniy Farg‘ona vodiysining Qubo (Quva) qishlog‘ida tug‘ilgan. Shunisi ma’lumki, al-Farg‘oniy xalifa Xorun ar-Arrashidning sharqiy yerlaridagi muovini, o‘g‘li Abdullohning (bo‘lajak xalifa al-Ma’munning) Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. Ehtimol Abdulloh yoshligidan bilimga chanqoq bo‘lgani uchundir, 806-yili Marvga noib bo‘lib tayinlanganida, Muvarounnahr, Xuroson, Xorazmdan olimlarning asosiy qismi Abdulloh u yerga kelganidan avvalroq to‘plagan bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas, chunki Marv avvaldan, Sosoniylar davridanoq yirik ilmiy markaz hisoblangan. 615-yili eng so‘nggi Sosoniy shahanshoh Yazdigard ibn Shahriyor arablar ta’qibidan qochib bu yerga kelganida poytaxtdagi kutubxona kitoblarini ham olib kelganligi ma’lum.

Asosiy qism. Misrda qishloq xo‘jaligi azaldan Nil daryosi suviga bog‘liq bo‘lib kelgan. Odamlar daryo suvining ko‘tarilishi va tushishiga qarab qurg‘oqchilik va ocharchilikka o‘zlarini moslashtirib borishgan. Daryodagi suvning ko‘tarilish va pasayish holatiga qarab dehqonlarning ham dalalardan yig‘ib oladigan hosildorligi turlicha bo‘lgan, hosildorlikka qarab dehkonlarga soliq solingan. Bunday vaziyatda suv sathini yuqori aniqlikda o‘lchash muhim sanalgan. Bu vazifani Ahmad Farg‘oniy ko‘rsatmalari bilan 861 yilda yasalgan nilometr bajargan. Nilometr Misrdagi suv zaxiralaridan unumli foydalanishda, daryoda suv sathi o‘zgarishlarini asosli ravishda bashorat qilishda muhim ahamiyat kasb etgan. Ahmad Farg‘oniy uni qurish uchun daryoning janubiy chekkasini tanlagan. Metrolog O‘lmas Zaripov bu joy nafaqat o‘sha davr, hatto hozirgi kun talablaridan kelib chiqib tahlil qilinadigan bo‘lsa ham, suv o‘lchash uchun o‘ta qulay ekanini aytadi.

Nilometr yil davomidagi suv toshqini mavsumida Nil daryosining suvini balandlik darajasini o‘lchash uchun ishlatiladi. Misrda tirsak birligida sozlangan nilometrlarning uchta asosiy turi mavjud:

Agar suv sathi past bo‘lsa, oziq-ovqat ham kamroq bo‘lar, agar suv sathi juda baland bo‘lsa, bu ham halokatli bo‘lar edi. Unumdor tuproqqa ega bo‘lish uchun va

dalalar uchun suv toshqini qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadigan o‘ziga xos belgi bor edi.

Iyul va noyabr oylari orasida Misr orqali o‘tadigan Nil daryosi qirg‘oqlarini buzib yubordi. qo‘shni suv toshqinlarini qoplagan edi. Suvlar taxminan sentyabr va oktyabr oylarida kamaydi va ekin maydonlari ustida qora loydan iborat juda unumdor loy qodiqlari qoldirdi.

Qadimgi misrliklar o‘z yillarini ajratgan uch fasldan biri Axet yoki toshqinlar mavsumi edi.

Yillik suv toshqini Misr tsivilizatsiyasi uchun katta ahamiyatga ega edi. Kuchli bo‘lmagan suv toshqini qishloq xo‘jaligi rivojlanishini uchun muhim omil edi; Biroq, odatdagidan ko‘ra kamroq bo‘lgan suv toshqinlari ocharchilikka olib kelar, ammo suv toshqinlarini ko‘p bo‘lishi xuddi shunday halokatli bo‘lib, toshqin tekisliklarda qurilgan inshoatlarni ko‘p qismini yuvib ketar edi. Milodiy 622-999 yillardagi yozuvlar shuni ko‘rsatadiki, yillarning 28 foizi suvga cho‘mish darajasi kutilganidan past bo‘lgan.

Keyingi suv toshqini hajmini bashorat qilish qobiliyati qadimgi Misr ruhoniylarining sirining bir qismi edi.

Nilometr uchun eng oddiy dizayn daryo suviga botgan vertikal ustun edi. Suvning chuqurligini ko‘rsatadigan belgilangan daraja mavjud. Ushbu oddiy ko‘rinishnià Qohira markazidagi Al -Ravda orolida hali ham ko‘rish mumkin.

Nilning suvini hajmini o‘lchashning yana bir yo‘li pastki suvga olib boradigan bir guruh zinapoyalardan iborat edi. Asvandagi Bu joy Misr tarixida ham alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

Nilometr qanday ishlagan?

Sharq olimlari nilometrni o‘z asarlarida “Miqyosi Nil” deb ham atashgan. “Miqyosi Nil” murabba, ya’ni 4 yonli quduq ko‘rinishida bo‘lib, Nil daryosi bilan 3ta yerosti suv yo‘li orqali tutashgan. Quduq o‘rtasida oq marmar bilan qoplangan, balandligi taxminan 10 metr bo‘lgan sakkiz qirrali ustun o‘rnatilgan. Ustunda suv sathini o‘lchashga imkon beradigan yirik darajot bo‘lib, u mayda darajotga bo‘lingan. Yirik darajot arab tirsak birligi – 54 santimetrga, maydalari esa uning 1/24 qismi (qirot)ga – 2,25 santimetrga teng.

Kuzatuvchi suv sathi haqida hisob olish uchun aylanma zinapoyadan tushib chiqqan. Nilometr daryo suv sathini katta aniqlikda o‘lchashga imkon bergan. Bugungi kunda Jahon metrologiya tashkilotiga a’zo bo‘lgan barcha davlatlarda suv havzalari (daryolar, ko‘llar, suv omborlari, hatto dengiz va okeanlar)ning suv sathlari ham shu prinsipda o‘lchanadi.

Nilometrni qurgan Farg‘oniyni Farg‘onaning Quva qishlog‘ida tug‘ilgan deb hisoblashadi. To‘liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniy bo‘lgan.

Al-Farg‘oniyning hayoti, ilmiy hamda amaliy faoliyati to‘g‘risidagi eng so‘nggi ma’lumot 861 yilga mansub. O‘sha yili Abbosiy xalifa Abul Fazl Ja’far al-Mutavakkil Farg‘oniyga Nil daryosidagi suv sathini o‘lchaydigan inshoot qurishni buyuradi. Olim Misrning Qohira yaqinidagi Fustat shahriga kelib, nilometr quradi. Ilmiy-texnik va me’moriy jihatdan ulug‘vor bu qurilma Nil daryosining Sayyolat ul-Rod mavzesida hozirgacha saqlanib qolgan.

Yozma manbalarda qayd etilishicha, Al-Farg‘oniy ilk o‘rta asr falakiyot, riyoziyot va geografiya ilmlari yo‘nalishida bir qancha ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirgan. Uning asosiy astronomik asari — “Kitob al-harakot as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum” (Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi). Bu asar “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” nomi bilan ham ma’lum bo‘lib, 1145 va 1175 yillarda Yevropada lotin tiliga tarjima qilinadi. Shundan so‘ng Al-Farg‘oniy nomi lotinlashtirilib, “Alfraganus” shaklida G‘arbda shuhrat topadi. Uning “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” asaridan bir necha asrlar davomida Yevropa universitetlarida astronomiya fani bo‘yicha asosiy darslik sifatida foydalanilgan.

“Miqyosi Nil”dan bugun ham foydalanish mumkin

Nilometrning bugungi ahamiyati haqida gapirarkan, olim O‘lmas Zaropov, suv sathini o‘lchash bo‘yicha nilometr darajasida pishiq-puxta uskuna yasalmaganini aytadi.

“Hozirgi kunda Nilga nisbatan bir necha marta kichik bo‘lgan daryolar, hatto soylarda qurilgan suv o‘lchash inshootlari birgina toshqinga ham bardosh bera olmay tez fursatda ishga yaroqsiz holga kelib qoladi. Ahmad Farg‘oniy qurgan “Miqyosi-Nil” ish faoliyatining davomiyligi bo‘yicha dunyoda yagona suv o‘lchash qurilmasi hisoblanadi. Bundan qariyb 1150 yil muqaddam qurilgan inshootning suv o‘lchash aniqligi hozirgi kunda nafaqat u haqda xabardor bo‘lgan kishilarni, hatto shu soha mutaxassislarini ham lol qoldirmoqda”, – deydi u.

Olimning ma’lumot berishicha, hozirgi kunda jahon suv o‘lchash amaliyotida qo‘llanayotgan maxsus o‘lchash qurilmalarining barchasi “Miqyosi-Nil”dagi kabi santimetr aniqlikka moslashtirilgan.

“Al-Farg‘oniyning nilometr o‘lchash asbobi 1200 yillik vaqt sinovlardan o‘tib bizning davrlargacha yetib kelganligi va hozirgi kunda ham foydalanish mumkinligining o‘ziyoq allomaning ilm-fanni, uning aniqligi va o‘lchashlar

asbobsozligi, meteorologiyaning taraqqiyotiga bemisl hissa qo‘shganligidan darak beradi”, – deydi metrolog.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Sh.Radjabov, B.Z.Usmonov, I.A.Ergashev. Matematika tarixi (O‘quv qo‘llanma) “City of book” Chirchiq – 2023.

2. A.A.Normatov. Matematika tarixi. Toshkent – 2007.

3. https://kun.uz/news/2023/02/21/suv-sathini-yuqori-aniqlikda-olchash-12-asr-oldin-fargoniy-qurdirgan-nilometr-haqida?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F02%2F21%2Fsuv-sathini-yuqori-aniqlikda-olchash-12-asr-oldin-fargoniy-qurdirgan-nilometr-haqida.

4. https://uzpedia.uz/pedia/nilometr.

KASR TARTIBLI DIFFERENSIAL TENGLMALAR UCHUN TO‘RTINCHI TARTIBLI RUNGE-KUTTA METODI

Robiyaxon Mamajonova Abduxalil qizi
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Shaxobiddin Karimov Tuychiboyevich
Farg‘ona davlat universiteti, f.m.f.d dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439894

Annotation: In this article, we use **t**he fourth order Runge–Kutta method to solve fractional differential equations and theirs systems with the initial conditions. And we cover calculations of its values using the algorithms in the Python programming language. Solution is established to the different values of α which is the order of fractional differential equation.

Keywords: Caputo fractional differential derivative and integral, the fourth order Runge–Kutta method

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz kasr tartibli differensial tenglamalar va ularning sistemasi uchun boshlang‘ich shartli masalalarni yechishni Runge-Kutta usulidan foydalanganmiz. Hamda uning qiymatini hisoblash uchun Python dasturlash tilidagi algoritmdan foydalangan holda hisoblashni yoritib berganmiz. Yechim hosila tartibi α ning turli qiymatlari uchun chizilgan.

Kalit so‘zlar: Kaputo kasr tartibli hosila va integral, to‘rtinchi tartibli Runge-Kutta metodi

Hozirgi vaqtda kasr tartibli integral va hosilalar nazariyasi funksiyalar nazariyasining tarmoqlaridan biri bo‘lib, muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lmoqda [1-6]. Kasr tartibli hosila va integrallarga asoslangan matematik modellashtirish, turli jarayonlar va hodisalar o‘zgarishini baholashda, matematik biologiyada [7], gidrogeologiyada issiqlik va massa almashinish jarayonlarini bir xil bo‘lmagan muhitda modellashda [8-10], transonik oqimlarning elastoplastiklik muammolari, yarimo‘tkazgichlar sohasidagi tadqiqotlar, epidemiologiyada, moliya va boshqa yo‘nalishlarda e’tirof etiladi.

Kasr tartibli integrallar va hosilalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega va kasr integrallari va hosilalari bilan tenglamalarni yechishning analitik usullari har doim ham samarali emas. Shu bois ko‘p hollarda biz sonli usullarga mjurojat qilmoqdamiz.

So‘nggi yillarda sonli usullar keng rivojlandi. Biroq, ushbu yo‘nalishda erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramay, shunga o‘xshash muammolarning umumiy sinfi uchun taqribiy usullardan foydalanishni nazariy asoslash masalasi ochiqligicha qolmoqda.

Aytaylik $\alpha > 0$ va $n = \alpha$ bo‘lsin. Kaputo α kasr tartibli hosila quyidagicha ta’riflanadi:

$$ {}_a^C D_t^\alpha f(t) = \frac{1}{\Gamma(n-\alpha)} \int_a^t (t-u)^{n-\alpha-1} \left(\frac{d}{du}\right)^n f(u)\,du $$

$a = 0$ uchun, quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$ {}^C D_t^\alpha f(t) = D^\alpha f(t). $$

Endi to‘rtinchi tartibli Runge-Kutta metodida biz quyidagi kasr tartibli differensial tenglamani yechish uchun algoritm quramiz:

$$ D^\alpha y(t) = f(t, y(t)),\ y(t_0) = y_0,\ 0 < \alpha \le 1, $$

bu yerda $y \in C^{p+1}([t_0, t_0 + T])$.

t_0 nuqta atrofida quyidagi tenglik o‘rinli bo‘lsin:

$$ D^\alpha E(0) = D^{2\alpha} E(0) = 0,\ E(h) = y(t+h) - y(t). $$

Quyidagi kengaytmadan taqribiy yechimga erishamiz:

$$ y_{n+1} = y_n + \frac{h^\alpha}{6\Gamma(\alpha+1)} (K_1 + 2K_2 + 2K_3 + K_4), $$

bu yerda K_1, …, K_4 isbotda quriladigan funksiyalar.

Isbot. Isbot oldingi holatdagi RK2 ga o‘xshash.

bu yerda xatolik kengaytmasini kiritamiz:

$$ E(h) = y_{n+1} - y_n = \frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)} D^\alpha y_n + \frac{h^{2\alpha}}{\Gamma(2\alpha+1)} D^{2\alpha} y_n + \mathrm{O}(h^{3\alpha}) = \frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)} f(t_n, y_n) + \frac{h^{2\alpha}}{\Gamma(2\alpha+1)} D^{2\alpha} y_n + \mathrm{O}(h^{3\alpha}) $$

va uning α tartibli hosilasi:

$$ D^\alpha E(h) = f(t_n, y_n) + \frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)} D^\alpha y_n + \mathrm{O}(h^{2\alpha}), $$

va

$$ y_{n+1} - y_n = C_1 \frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)} K_1 + C_2 \frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)} K_2 + C_3 \frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)} K_3 + C_4 \frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)} K_4. $$

Shunga ko‘ra:

$$E[h]=C_1\frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)}K_1+C_2\frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)}K_2+C_3\frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)}K_3+C_4\frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)}K_4,$$

bu yuerda:

$$K_1=f(t_n,y_n),$$

$$K_2=f\left(t_n+a_2\frac{h^\alpha}{2\Gamma(\alpha+1)},y_n+b_2\frac{h^\alpha}{2\Gamma(\alpha+1)}K_1\right),$$

$$K_3=f\left(t_n+a_3\frac{h^\alpha}{2\Gamma(\alpha+1)},y_n+b_3\frac{h^\alpha}{2\Gamma(\alpha+1)}K_2\right),$$

$$K_4=f\left(t_n+a_4\frac{h^\alpha}{2\Gamma(\alpha+1)},y_n+b_4\frac{h^\alpha}{2\Gamma(\alpha+1)}K_3\right).$$

Vanihoyat:

$$D^\alpha E[h]=C_1K_1+C_2K_2+C_3K_3+C_4K_4+$$

$$+C_1\frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)}D^\alpha K_1+C_2\frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)}D^\alpha K_2+C_3\frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)}D^\alpha K_3+C_4\frac{h^\alpha}{\Gamma(\alpha+1)}D^\alpha K_4.$$

Endi $h\to 0$ quyidagiga kelamiz:

$$D^\alpha E[0]=C_1K_1[0]+C_2K_2[0]+C_3K_3[0]+C_4K_4[0],$$

$$f(t_n,y_n)=(C_1+C_2+C_3+C_4)f(t_n,y_n).$$

Bundan esa, quyidagi tenglikkka kelamiz:

$$1=C_1+C_2+C_3+C_4.$$

Biz olgan boshqa shartlardan (va $D^\alpha E(h)=0$ dan):

$$\begin{cases}C_2a_2+C_3a_3+C_4a_4=\frac{1}{2}\\ C_2b_2+C_3b_3+C_4b_4=\frac{1}{2}\end{cases}$$

Vanihoyat, quyidagi sistemaga kelamiz:

$$\begin{cases}C_1+C_2+C_3+C_4=1\\ C_2a_2+C_3a_3+C_4a_4=\frac{1}{2}\\ C_2b_2+C_3b_3+C_4b_4=\frac{1}{2}\end{cases}.$$

Eslatma. Bu sistemaning yechimi yagona emas. Shuning uchun biz RK2 holatida bo‘lgani kabi tanlaymiz:

$$C_1 = C_4 = \frac{1}{6},\ C_2 = C_4 = \frac{1}{3},$$

$$a_1 = b_1 = a_4 = b_4 = 1,\ a_2 = b_2 = a_3 = b_3 = \frac{1}{2}.$$


1-misol. To‘rtinchi tartibli Runge-Kutta algoritmidan foydalanib quyidagi kasr tartibli differensial tenglamani yeching.

$$D^{\alpha} y(t) = t^2 + \frac{y^2}{4},\ y(0) = 1,$$

```
import numpy as np
import math
import matplotlib.pyplot as plt
from scipy.special import gamma, factorial
h=0.01
a=0.5
d=math.pow(h,a)/gamma(a+1)
t=[0]*11
y=[1]*11
def f(t, y):
  return t*t+y**2/4
print(str(t[0])+'   `'+str(y[0]))
for i in range (len(t)-1):
  k1=f(t[i],y[i])
  k2=f(t[i]+d/2,y[i]+d/2*k1)
  k3=f(t[i]+d/2,y[i]+d/2*k2)
  k4=f(t[i]+d,y[i]+d*k3)
  y[i+1]=y[i]+d*(k1+2*k2+2*k3+k4)/6
  t[i+1]=i*d+d
  print(str(t[i+1])+'  '+str(y[i+1]))
plt.plot(t,y,'r^--')
plt.show(t,y)
```

```
0   `1
0.11283791670955128  1.0295142542920244
0.22567583341910255  1.0637396317812162
```

0.3385137501286538 1.1059938859407237
0.4513516668382051 1.1598555515289604
0.5641895835477564 1.2292341570655039
0.6770275002573076 1.3184755920620128
0.7898654169668589 1.4325209415435691
0.9027033336764102 1.5771463788799218
1.0155412503859615 1.7593277864019032
1.1283791670955128 1.9878026227926244



2-misol. Quyidagi kasr tartibli tenglamalar sistemasini yeching:


$$\begin{cases} D^{\frac{1}{2}}x(t) = t^2 + \dfrac{y^2}{4}, x(0) = 0 \\ D^{\frac{1}{2}}y(t) = t^2 + \dfrac{x^2}{4}, y(0) = 1 \end{cases}$$

```
import numpy as np
from mpl_toolkits import mplot3d
import math
import matplotlib.pyplot as plt
```

```
from scipy.special import gamma, factorial
#plt.style.use('seaborn-poster')
ax = plt.axes(projection='3d')
h=0.01
a=0.5
d=math.pow(h,a)/gamma(a+1)
t=[0]*11
y=[1]*len(t)
x=[0]*len(t)
def f(t,x,y):
  return t*t+y**2/4
def g(t,x,y):
  return t*t+x*x/4
print(str(t[0])+'   `'+str(x[0])+'   `'+str(y[0]))
for i in range (len(t)-1):
  k1=f(t[i],x[i],y[i])
  l1=g(t[i],x[i],y[i])
  k2=f(t[i]+d/2,x[i]+d/2*k1,y[i]+d/2*l1)
  l2=g(t[i]+d/2,x[i]+d/2*k1,y[i]+d/2*l1)
  k3=f(t[i]+d/2,x[i]+d/2*k2,y[i]+d/2*l2)
  l3=g(t[i]+d/2,x[i]+d/2*k2,y[i]+d/2*l2)
  k4=f(t[i]+d,x[i]+d*k3,y[i]+d*l3)
  l4=g(t[i]+d,x[i]+d*k3,y[i]+d*l3)
  x[i+1]=x[i]+d*(k1+2*k2+2*k3+k4)/6
  y[i+1]=y[i]+d*(l1+2*l2+2*l3+l4)/6
  t[i+1]=i*d+d
  print(str(t[i+1])+'  '+str(x[i+1])+'  '+str(y[i+1]))
ax.plot3D(t,x,y)
ax.set_xlabel('t')
ax.set_ylabel('x')
ax.set_zlabel('y')
```

```
0   `0   `1
0.11283791670955128  0.028695240749512047  1.0004865283749058
0.22567583341910255  0.06036013436943219  1.0038961626480236
0.3385137501286538  0.09811762210827879  1.0131728607627009
0.4513516668382051  0.14526605513424015  1.031308800883462
```

0.5641895835477564 0.2052994875727096 1.0613848076840098
0.6770275002573076 0.2819465506720434 1.1066316297842438
0.7898654169668589 0.37923638541051724 1.1705219631839099
0.9027033336764102 0.5016032699506425 1.2569064313706093
1.0155412503859615 0.6540471375542101 1.3702122451815708
1.1283791670955128 0.8423769549149305 1.5157327332247383



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Самко С.Г., Килбасс А.А, Маричев О.И. Интегралы и производные дробного порядка и некоторые их приложения. Минск, 1987.

2. Нахушев А.М. Элементы дробного исчисления и их применение. Нальчик, 2000.

3. А.К.Уринов, С.М.Ситник, Э.Л.Шишкина, Ш.Т.Каримов. Дробные интегралы и производные (обобщения и приложения): учебное пособие; учебно-методическое издание; на русском языке; А.Уринов и др. Фергана: изд. “Фаргона”,2022.-192 стр.

4. Уринов А.К., Каримов Ш.Т. Операторы Эрдейи-Кобера и их приложения к дифференциальным уравнениям в частных производных: монография; научное издание; на русском языке; /А.К.Уринов, Ш.Т. Каримов. Фергана: изд. “Фарғона”, 2021. -202 стр.

5. Fractional Calculus and its Applications, lecture notes in mathematics/ Ed. Ross B. Berlin, 1975.

6. Constantin Milici, Gheorghe Drăgănescu, J. Tenreiro Machado, Introduction to fractional differential equations, Springer Nature Switzerland AG, 2019

“HUSN-U DIL” DOSTONINING TIMSOLLAR OLAMI

Gulchehra Shukurova Alisher qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
O‘zbek Filologiyasi fakulteti.
Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi
javharijahon06@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.11439916

Annotatsiya. Maqolada Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn-u Dil” dostonidagi badiiy obrazlar va ular ifodalagan mazmun, shuningdek har bir timsolning sistemali izohi haqida so‘z boradi. Nishotiyning asarni g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochish, timsollar olamini yoritishda qanday tamoyillarga asoslangani hamda Sharq mumtoz adabiyotida doston yozishdagi an’anaviy uslublar haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Muhammadniyoz Nishotiy, “Husn-u Dil” dostoni, badiiy obrazlar, timsollar, tahlil, uslub.

“Husn-u Dil” dostoni 15584 misra, 62 bobdan tashkil togan bo‘lib, sevgi, muhabbat tuyg‘ularini ulug‘lovchi, shoir ijodining cho‘qqisi bo‘lgan asardir. Doston Sharq xalqlari orasida mashhur syujet asosida, nazmda yaratilgan. Asar An’anaviy kirish (I -V boblar)dan so‘ng shoir o‘zi xaqida, dostonning yozilish sabablari haqida hamda so‘z va uning qudrati haqida, xamsanavislar (Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar) haqida fikr yuritgan. Asarning asosiy qismi XI bobdan boshlanadi va asar xotima bilan yakunlanadi. Dostonda Husn va Dilning muhabbat manzarasi ifoda etiladi. Asardagi Nazar, Aql, Ishq, Vafo, Mehr, Nomus, Hikmat, Sabr, Raqib obrazlari orqali esa turli fe’l-atvorga, odob-axloqqa ega bo‘lgan kishilardagi o‘ziga xos xususiyatlar orqali real hayotdagi turli toifa vakillariga ishora qilinadi. Nishotiy har bir obraz ustida mukammal ishlagan. Obrazlarning xarakter xususiyatlarini, timsoliy haykallarini jonli ifoda etadi. Har bir obraz bir olam, har bir obraz bir dunyo, har bir obraz o‘zining axloqiy-ta’limiy g‘oyasiga, mazmuniga ega.

“Husn-u Dil”ning o‘quvchini rom etadigan fazilatlaridan biri obrazlaridir. Shoir timsollarni qunt bilan mehr bilan ishlov berib, maqsad yo‘lida mantiqli ishlata bilgan. Dostonda 100 dan ortiq obraz tasvirlangan. Timsollarning barchasi irfoniy mazmun

ifodasi uchun majoziy-ramziy shaklda qo‘llanilgan. Obrazlarni mavhum yoki konkret tushuncha, shaxs yoki joy ma’nosini anglatishiga qarab bir necha guruhga ajratish mumkin. Shu ma’noda obraz yaratish va mazmun yo‘lida o‘rinli ishlatishda mahorat ko‘rsatgan Nishotiy muvaffaqiyatini ta’minlashda qahramon hamda harakatining hayotiy asoslar bilan dalillanganligi muhim ahamiyat kasb etgan. Dostondagi har bir timsol ko‘r-ko‘rona emas, o‘quvchini ishontiruvchi real asos bilan mantiqiy dalillanib ishlatilgan.

Quyidagi jadval asosida biz dostonning badiiy mazmun-mohiyatini ochib bergan obrazlarni syujet asosida sistemalashtirishga harakat qildik.

Joy (makon) ma’nosida tasvirlangan obrazlar	Shaxs ma’nosida tasvirlangan obrazlar	Narsa, predmet, hayvon nomlaridagi obrazlar
Badan qal’asi	Fuod (Dil)	Donilyolning asari, Obi hayot
Talab vodiysi	Nazar	Obi hayot
Ofiyat makoni	Nomus shoh	Hayo va adab
Shuhrat shahri	Faxr shoh	Siym-u zar, boylik
Baland tog‘dagi ibodatxona	Zarq (shayx)	Ashki riyo
O‘rmon	Nazar	Vahshiy hayvonlar, fil, pashsha, tulki, she’r, ilon Sabr, mujda
Hayrat diyori	Nohid	Daryo
Hidoyat Makoni	Himmat shoh	Gavhari-donish, maktub
Sagsor qal’asi	Raqib dev	Devlar, maxluqlar, Xisor
Habib shahri	Qomat sardor	Ko‘ngil ko‘zgusi
Ruxsor gulshani	Jilva, Gisu, Xol, G‘amza, Husn	Muhr va guvohlar

Ushbu jadvaldagi obrazlarni asar syujeti asosida ko‘rib chiqamiz.

Qadim zamonda Burmon shahrida Aql degan ulug‘ hukmdor bo‘lib, u farzandsizligidan behad oh chekardi. Farzand ko‘rishning har qancha tadorigin ko‘rmasin, ilojin topolmasdi. Yillar o‘tib, “tangrining inoyati bilan” suyukli yori Nafsbonudan bir o‘g‘il ko‘ribdi. Fuod ilm-u hunar o‘rganib, barkamol yigit bo‘lib yetishdi. Otasi Aql nuri diydasiga tilsimlar majmuasi bo‘lgan ulug‘ bino – Badan qal’asini, onasi esa ishqi majoz yo‘sinidagi Iskandarning obi hayot qidirishi haqida

bitilgan Doniyolning asarini hadya etadi. Kitobda obi hayot haqida “kimki uning qatrasidan ichsa, o‘lgan bo‘lsa, toza jon topadi, u buloqning suvi jon suvidek pok bo‘lib, ajal zahrini daf qilgani taryok - davo”, deb yozilgan edi. Bu so‘zlar Fuod botinidagi pinhoniy sirlarini alangalatib yuboradi va hushi uchib, “ko‘ngli aro ishq o‘ti chekti xurush”:

Ikki qanot anga yo‘q-u par dog‘i,

Toshda o‘t-u ichida axgar dog‘i.

Shahzodaning ahvolini ko‘rib barchaning oromi iztirob bo‘ldi.Uning dardiga turli davolar, choralar ko‘rishdi. Pariyxonga ham, g‘aroyimxonga ham, tib ahliga ham ko‘rsatishdi, biroq biror kishi dardini anglay olmadi. Fuod ishqqa mubtalo dardmand. Endi u o‘zi mushtoq manzilga yetmaguncha halovat topmaydi. Endi maqsadiga qadar yo‘l bosib, sabot bilan talabiga yetishishi kerak. Fuod kitobni qo‘lidan qo‘ymaydi, biroq unda chashmaning makoni aniq ko‘rsatilmagan, faqat unga ishoralar bor, xolos. Unga ko‘ra obi hayot – qaynab chiquvchi chashma zulmat aro. Bu zulmat qandaydir qorong‘ulik, mavhumlik bo‘lmay, tasavvufiy ma’noda, oshiq chekishi kerak bo‘lgan qaro qayg‘u, mashaqqatli mehnat, degani. Kimda ana shunday zulmatga bardosh bo‘lsa, u obi hayotga erishadi. Shahzoda bu ramzdan ogoh bo‘lgach, dard-u g‘amning ham voqifi bo‘lib qoldi. Shahzodasi ahvolida boxabar Nazar huzuriga kiradi va dil rozini tinglab, yordam bergani ahd qiladi. Obraz maqomida tasvirlanayotgan Nazar – inson nazari, ruhi, hissining badiiy ifodasidir. Bundan buyog‘iga Fuod Nazar bilan sayr-u sayohat qilib, manan to‘lishib, dunyo dardlaridan qutilib, poklanadi, o‘zini nafsoniy istaklaridan xalos qilib borish barobarida ma’rifat manzillarini bosib otadi. Nazar shahzodaga orzusini ushaltirmoqqa so‘z berib, yo‘lga otlanadi. U dastlab Ofiyat mamlakatidagi salomatlik shahriga boradi. U yerda Nomusshoh bilan uchrashadi. Shohdan obi hayot haqida so‘raganda shoh hikoyati tamsiliy aytib, obi hayot haqidagi gaplar rivoyat, aslida kinoyat ekanligini aytadi. Agar kishi hayo no‘shidan boqiylik suvini ichsa, unga foniylik yetishmaydi, elning obi hayo haqidagi so‘zlari, asli, obi hayo to‘g‘risidadir. Kimki hayoli bo‘lsa, matlabi unga ro‘baro‘ bo‘ladi. Nazar bu so‘zlardan tasalliy topmagach, suv tilab o‘tga hamnishin holda yo‘lida davom etadi. Demak, haqiqiy oshiq ofiyatni – hayoli, odobli, o‘zini malomatlardan salomat tutishni odat qilmaydi. Aksincha, yori uchun yalinib-yolvorishga, tuproq bo‘lishga-da tayyor bo‘ladi. Nomus huzuridan chiqqan Nazar yo‘l yurib bir diyori orastaga – Shuhrat shahri podshosi Faxr dargohiga boradi. Undan ham obi hayot haqida so‘raydi. Faxr “sen so‘rayotgan narsa siym-u zardur.

Kimdaki zar yo‘q bo‘lsa, uning joni ham yo‘q, agar kishida siym-u zar bo‘lsa, barcha maqsadlari ushaladi”, deb nasihat qiladi. Nazar uning ham so‘zlarini bekor bilib, tashna dil-u hasta jon bilan yana talab vodiysiga qadam qo‘ydi. Demak, haqiqiy oshiq maqsadi yo‘lida butun dunyoviy lazzatlarni unitishi kerak. So‘ng Nazarning yo‘li purshukuh bir tog‘dagi savmaa – xristianlar ibodatxonasiga tushadi. Purviqor tog‘ ustiga amallab, tirmashib chiqqach, nihoyatda muhtasham ibodatxonani ko‘radi va uning ichida shayx Zarqni uchratadi. Savmaa tarxi Nazarni nihoyatda hayratga soladi, ammo “bo‘riyosi”dan “bo‘yi riyo” anqib turardi. Zarqning shom-u sahar peshasi bid’at – noma’qulchilik bo‘lsa-da, tilidan sunnat tushmaydi. Umrini go‘shanishin bo‘lib ibodatxonada o‘tkazgan o‘zi g‘ul-u shaytonlarga rahbar, na ilmi, na amali bor. Nazar Zarqdan ham obi hayot haqida so‘raydi. Shayx “ko‘zlaring obi hayot chashmasidir, ikki ko‘zing uchgani ikki qanot, ahli qalam “chashm” so‘zini yozgan mahal xatoga yo‘l qo‘yib, bu so‘z oxiriga “a” qo‘shib yozib yuborgan, nodon bo‘lmasang “sahv - xato” so‘ziga boq, unda ham “a” harfi bor, chashmayi hayvon kinoyat bo‘lib, u nadomat ashkidir, bilgil, ashki riyo – bu kimyo, chunki kishi ko‘z yoshi orqasidan mol-u joh topadi”, deb javob beradi. Nazar shayxning oldidan horg‘in holda chiqib ketadi. Ya’ni, oshiq riyo – ikkiyuzlamachilikdan yiroq bo‘lmog‘i, o‘zidagi riyo bilan bog‘liq qusurlardan qutilmog‘i shart. “Zarq” so‘zining ma’nosi ham hiyla, nayrang degani. So‘zi boshqa, amali boshqa, yanayam aniqrog‘i, faqat suratga bandi, ma’nidan xabarsiz kishi hech qachon ulug‘ maqsadga yeta olmaydi. Nazarning u yerdan sangdil holda chiqib ketishi – oshiqning (Fuod) riyodan, tamadan xalos topib, suratga bandilikdan bir qadar qutilib, ma’ni sari yana bir qadam tashlaganini bildiradi. Zarq savmaasidan chiqqan Nazar tushkin bir kayfiyatda yo‘lida davom etadi. Nogoh yo‘lidan besha – o‘rmon chiqdi, vaxshatini ta’riflashga til ojiz. Keksa chinorlari chiriganidan kavaklari g‘ordek, shoxlari o‘rni tuynukdek bo‘lib, firoq shomidek qorong‘u.U yerga ilon-u chayonlar in qurgan bo‘lib, pashshasidan fil, tulkisidan sher hurkib ketadi. Lekin Nazar behad hayiqqan bo‘lsa-da, tavakkul qilib, bulbul gulistonga kirgandek beshaga kirdi. Nazar u yerdagi mashaqqatlarni ko‘rgach, umidsizlikka tushdi va tinmay Allohga iltijolar qilardi. Bu tunni shunday qiyinchiliklar, uqubatlar tahlikasida o‘tkazdi. Kun yorishdi, iltijolari qabul bo‘lib, g‘oyibdan qulog‘iga shunday so‘zlar chalindi :

Dediki : - Ey ushshoq elida benavo,
Kimki fano bahrida g‘avvos emas,
Durri baqo topmog‘iga xos emas.
Shomi firoq ichra kim ermas najand,

Subhi visol o‘lmog‘usi sarbaland.

Mujdani eshitib behad suyungach, Nazar shodmonlik bilan yo‘lida davom etdi. Dostondagi ushbu dahshatli changalzor – insonni dunyoga bog‘lab turuvchi, uni ruhi mutlaqqa tomon harakat qilishiga to‘sqinlik qiluvchi qaydlar ramzidir. Tunning qoraligi hajrga, ilon-u chayon, qo‘rqinchli maxluqlar – insondagi nafs qutqulari ramzi.

Balo tikonlarodan behad uqubat tortgan Nazar qarshisidan endi Tahayyur bahri chiqdi. Bahrdda ham qanchadan-qancha azoblarga duch keldi, chorasizlikdan, hadsiz jabrdan hayiqish tuydi. Shu payt unga Nohid ko‘makka keladi hamda suzishi kerak bo‘lgan manzil nomi favz-u najot ekanligini, undan o‘tib biroz yursa, Himmat shohning Hidoyat shahriga duch kelishini aytadi. Nohidning Nazarni oy-u yillab kemasiga solib olib yurishi, daryodagi ajoyibotlarni ko‘rsatishi – Nohidning (Yo‘lchi yulduz) tavaqquf, ya’ni voqiflik, haqiqat sirlarini kashf etish sari yo‘l boshlashidir. Mazkur bobda oshiq ilohiy fayz ko‘magida nima to‘g‘ri-yu, nima noto‘g‘ri ekanligi, bu orqali yor sifatlarini anglab borayotgan solik qiyofasida namoyon bo‘ladi. Shu o‘ringa qadar Nazar Ma’lum manzillarni bosib o‘tdi, ruhiy-ma’naviy takomil hosil qildi. Nazar mazkur boblarda hidoyaga kirib himmat hosil qilishni boshidan o‘tkazayotgan oshiq qiyofasida tasvirlangan. Himmatshoh obrazi ikki xil ma’noni : ham oshiqning bir sifatini, ham solikka yo‘l ko‘rsatuvchi pir ma’nosini anglatadi. Himmat – Nazarning tariqat yo‘lidagi birinchi piri, ammo u obi hayotning oldiga qadar olib borib qo‘yolmaydi. Lekin obi hayotni qo‘lga kiritishga yordam beruvchi odam va buloqqacha bo‘lgan yo‘lni aytishi mumkin. Himmat Nazarga yo‘lida uchrashi mumkin bo‘lgan sinovlardan – Sagsor qal’asi va Raqib devdan xabar beradi. Raqib dev – nafs ramzi. Himmat Nazarning devdan oson qutilishi uchun gavhari donish beradi (Suhaylo Farhodga samandar yog‘ini bergani kabi). Uni og‘ziga solsa, hech kim uni ko‘rolmasligini va Raqib dev sitamlaridan omonlik topishini aytadi. Gavhari donish – ogohlik gavhari, degani. Solik har qachon nafsiga ogoh bo‘lishi, hushyorlik bilan nazorat qilishi lozim. Demak, dil uyg‘oqligi, qalb bedorligigina nafsni muntazam nazorat qilish imkoniyatini beradi. Mobodo solik ozgina bo‘lsin g‘aflatga berilsa, chalg‘ib qolsa, nafs kishini ming turli stamlarga solishi mumkin, demoqchi Nishotiy. Bu fikrlarni shoir Raqibning hashamatli, mahobatli qasrini ko‘rib og‘zi ochilgan va gavhari donishi tushib, devlar qo‘lida balolarga giriftor bo‘lgan Nazarning sarguzashtlari orqali ramziy ifodalagan. Nazarning gavhari donish va maktubni qo‘lga kiritishi suluk tadrijida muayyan martabaga ko‘tarilganiga ishora. Endi Nazarning ma’rifat oshdi, siyrati ravshanlashib, ruhiyati boyidi. Biroq hali bu

obi hayot toppish uchun yetarli emas. Buning uchun Nazar Qomat ko‘magiga muhtoj. Himmat dargohidan chiqqan Nazar sovuq yuzli toifalarga duch keladi. Ulardan gavhari donish ko‘magida qutiladi. So‘ng Sagsor darbandiga yetadi. Darband hokimi ko‘rsa o‘lim qo‘rqadigan Raqib dev edi. Nazar qal’adda to‘rt ko‘zli ajinalar, maxluqlar, dev-u shaytonlarni ko‘rib dong qotadi, qon yig‘laydi. Lekin na biror sag (it), na biror dev uni ko‘rar edi. Chunki og‘zida ogohlik gavhari bor edi. Biroq nazar raqibning osmonga tutash Xisorini ko‘rganda dahshatga tushadi va hayratdan og‘zi ochilib qoladi. Natijada ogohlik gavhari yerga tushib, Nazar asl holiga qaytib, ko‘rinishli bo‘lib qoladi. So‘ng devlarga asir tushib, hadsiz jabr tortadi. Holbuki, Nazar Himmat so‘zlariga ko‘ra darbanddan hech qayoqqa qaramay, chalg‘imasdan o‘tishi kerak edi. Yodingizda bo‘lsa, Farhod ham Suhayl huzuridan chiqqach Suqrot oldiga borguncha ikki cheti harsang-u qirrali toshlardan iborat bo‘lgan tor so‘qmoqdan yurib, o‘n bir ming qadam bosishi kerak edi, agar ozgina bo‘lsin chalg‘isa, halokatga uchrashi tayin edi. “Bu solik Farhodning ruhiyatida yuz berayotgan o‘zgarishlar; uning irodasi, sidq-u safosi sinovlari”. Sagsor qal’asidan salomat chiqqan nazar Habib shahriga Qomat sardor huzuriga yetib boradi va Himmat bergan nomani unga topshiradi. So‘ng Qomat Jilva ismli kanizini hamroh qilib qo‘shib, Nazarni manziliga yetkazib qo‘yishini ayatadi. Demak, Nazar nafs va uning qutqularini jilovlay oldi. Qomat dargohiga musharraf bo‘lishdan oldin anoniyat belgilari – davlat va boylik, riyo, or va nomus, ikkilanishlardan xalos bo‘ldi. Ko‘ngil ko‘zgusi dunyo ishqi g‘uborlaridan tozalandi. Oshiqning ilmi g‘aybdan, irfon sirlaridan xabardorligi, o‘z-o‘zini anglash jarayoni kuchaydi, oradagi pardalar birin-ketin ko‘tarila boshlandi. Nazar Qomat ko‘magida Ruxsor gulshaniga yo‘l topdi. Yo‘lda dastlab Jilva, so‘ng Gisu, Xol va oxirda G‘amzaga duch keldi. Ularning barchasidan o‘tib Ruxsor gulshani malikasi Husnni ko‘rishga muyassar bo‘ldi. Husn bilan suhbatlashib, savollariga javob bergach, malikia unga obi hayotdan nishona sifatida muhra va guvohlikka ikki kanizi Xayol va Nag‘mani qo‘shib shahzoda Fuod huzuriga yuboradi. So‘ng Nazar Xayol va Nag‘madek qanot qoqib uchib Badan qal’asiga keldi va shahzodaga ko‘rgan-kechirganlarini aytib berdi. Obi hayotni topganiga muhrani nishona, Xayol va Nag‘mani guvoh sifatida ko‘rsatadi. Xayol shahzodaga Husn suvratini chizib ko‘rsatsa, Nag‘ma Diydor shahri to‘g‘risida shirin so‘zlar aytardi: ikkisi Fuodni Husn tomon targ‘ib etardi. Ularning so‘zlarini Aqlshohning Vahm degan vaziri bir chetda pinhona tingalab, Aqlga barchasini yetkazdi. Demak, Fuod Diydor shahriga yetgunga qadar qalbidagi dunyo g‘uborlaridan tozaladi. Endi qalbining asl holidan voqif bo‘lishi mumkin. U endi pok nazar, pok ko‘ngilga ega bo‘lgani uchun yor tajalliyotidan, mujdalaridan: qomati,

jilvasi, sochi, xoli, kiprigi, yuzidan bahramandliki sezyapti. Shu paytgacha obi hayotning qayerda ekanligini bilolmay, mavhumlikdan azob chekayotgan edi. Nazarning uchib Badan qal'asiga qaytishi esa, oshiq ruhining mushohada jarayonidan qalbda taskin topganiga ishora. Fuod – dil, qalb degani. Ishq esa qalbda, qalb esa badanda maskan tutgan. Bu mazmundan Fuod ham siz-u bizdek inson emas, bilaks, majoziy-ramziy timsol ekanligi kelib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, Nishotiyning "Husn-u Dil" dostoni badiiy jihatdan g'oyat pishiq-puxta bo'lib, dostonda keltirilgan obrazlar ifodasida turli san'atlardan mohirona foydalanilgan. Tarixiy shaxslar, payg'ambarlar, avliyolar va adabiy qahramonlarning nomlarini keltirishda va ularni obraz sifatida qo'llashda, shuningdek har bir obrazning nomlanishi voqealar rivoji bilan uyg'unlik kasb qilgani shoir mahorati asosida ko'rsatilgan. Shoir makon obrazlari va shaxs obrazlari ifodasida turli til bezaklari, so'z o'yinlari, qo'llagani bundan tashqari, shoirning arab harflari yordamida majoziy iboralar yaratish mahoratiga misollar berilgan. Nishotiy "Husn-u Dil" dostonida qo'llagan timsollar ya'ni obrazlarning mukammalligi va takrorlanmasligi hamda ular anglatgan tasavvufiy ma'nolar uning yuksak mahoratli ekanligini isbotlaydi. Bu esa dostonning badiiy qiymatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti. Dok.diss... Samarqand, 1958.
2. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob.-T.: O'qituvchi, 1964.
3. Xolid Rasul. Nishotiy va uning "Husn-u Dil" dostoni//O'zbek adabiyoti masalalari.-T.:1962, 4-son.
4. Xolid Rasul. Nishotiy. Husn va Dil. Lirika.-T.: G',G'ulom, 1967. 1-18-betlar.
5. Rasulov X. O'zbek epik she'riyatida xalqchillik.-T.:1973. 29-56-betlar.
6. Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy.-T.: Fan, 1975.
7. O'zbek adabiyoti. III tom.-T, 1959. 444 – 467-betlar.

LINGUOCULTURAL ASPECT OF TRANSLATING “SUYUNCHI” INTO ENGLISH

Rustam Maxsumov Maxamadiyevich
Assistant teacher at at Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
maxsumovrustam4@gmail.com

Abstract: This article studies the linguocultural challenges inherent in translating the Uzbek film "Suyunchi" into English. "Suyunchi" summarizes a complex blend of linguistic, cultural, and contextual variations that pose significant obstacles for translators. Through an analysis of various translation strategies and cultural implications, this study aims to shed light on the difficulties of generating "Suyunchi" into English while preserving its original meaning and cultural essence.

Keywords: translation, linguocultural, Suyunchi, uzbek and english, cultural variations, context, strategy.

It is one of the most difficult cases to convey national coloring. Owing to the translation very important literary works were able to appear in many other countries and became available for people speaking other languages. The translation helps mutual knowing and peoples' enrichment. National coloring must be reflected adequately in the translation.[70]

The difficulties encountered in translation are primarily linked to conveying the national character of a particular work. The more vividly it portrays national life and characteristic situations, the more challenging it becomes for the translator to find appropriate functional and figurative means. Consequently, it is insufficient to merely convey realias and social nuances to capture the essence of the national character during translation. This can only be achieved if the translator can adeptly encapsulate the diverse forms of national character present in the creative works of various authors. National coloring is not an accessory to the work but rather a fundamental component that enriches the overall structure of the piece. In the process of analyzing the film "Suyunchi", we were convinced that there are scenes that reflect the uniqueness of the Uzbek national culture. We can see that each scene of the film consists of a style of speech that has a specific meaning and linguistic significance.

[70] Матасов Р.А. Перевод кино/видео материалов: лингвокультурологические и дидактические аспекты: диссертация. – М. МГУ, 2009.- 211 с.

We can prove these concepts on the basis of the following scenes:

Table 1

Uzbek concepts	English version
Anzirat buvining qishloqni aylanib chiqish saxnasi;	Anzirat grandmother's scene around the village;
Shaharlik shifokor bilan suxbatlashishi;	Conversation with the city doctor;
Otasini shifoxonaga ko‘rish uchun bormagan farzand;	A child who did not go to the hospital to see his father;
Kelilining ko‘ngli uchun farzandini uyidan haydagan ona;	A mother who kicked her child out of the house for the sake of her daughter-in-law;
Qishloqdagi noxaqlik uchun do‘konchini koyigan ayol;	A woman who scolded a shopkeeper for injustice in the village;
Nabirasi uchun sovchilikka borgan buvi;	Grandmother who went mutchmaking for her grandson;
Qishloqdoshlari uchun ko‘prik qurdirgan general kampir;	An old general who built a bridge for her villagers;
Nabiralari sindirgan oynalar uchun haq to‘lagan adolatparvar inson;	A fair man who paid for the broken windows of his grandchildren;
Shifoxonadan qochgan matonatli ayol;	A strong woman who escaped from the hospital;

Each scene has a specific linguocultural meaning. For example, through the scene of Grandmother Anzirat's tour of the village, we can see that the Uzbek people are not indifferent to the lives of their compatriots, the region in which they live and what is happening there.

In the scene of the conversation with the city doctor, Anzirat's grandmother scolds the doctor for locking the door, and she says to the doctor, "Why did you lock this door? Why would a thief break into your house?" From these sentences we can see the Uzbek people's trust in people and the relationship between the villagers.

Anzirat buvi: “Holmat, buz qulfni”

Shifokor: “Voy nima qilayapsiz-ey?”

Anzirat buvi: “O‘pkangni bos, men shu yerda 75 yildan beri yashayman, hali birovni bir narsasi yo‘qolganini bilmayman”

In the scene of a child who does not go to see his father in the hospital, Anzirat's grandmother and her friends try to raise a child who does not go to see their father in the hospital. The benefits of their efforts are touching. The boy goes with a bowl to get a message from his father. The concepts of bowls and glasses in this scene also represent our nationality. That is, in our people, tea is drunk in a cup, which is a sign of respect and nationalism.

"Choy ichishga piyolasi ham yo'g'a, stakonda choy ichyabdi"

A mother who evicted her child for the sake of her daughter-in-law, in this scene we can see the kindness and justice typical of Uzbek mothers-in-law. Anzirat's grandmother drives her child Shermat out of the house because of her son's idleness and her daughter-in-law's tears. Let's focus on the following dialogue in this scene:

Anzirat buvi: Voy aqlli odam-ey, menga uyat bo'larkanmi, o'nta bolani otasi bo'laturib ertadan kechgacha koptokni ketidan allakamni itiday lo'killab yurgan senga uyat bo'lmas ekan, menga uyat bo'lar emushmi?

Shermat: Shunaqami? Ho'p, bo'pti, qaytanga menga yaxshi, men erkin qushman hoxlagan tomonimga uchib ketaman.

Here we can see why the mother drove her child away. When Anzirat's grandmother says, "Alikamni itiday lo'killab" she means that her son is idle.

In the scene where a woman scolds a shopkeeper for injustice in the village, Anzirat grandmother and her friends go to Gaybulla, a shopkeeper, and accuse her of eating someone's rights by injuring the villagers:

Anzirat buvi: "Qishloq ahli sendan juda ham norozi. Qaytimini bermas emushsan"

G'aybulla: "Nima? Kimdan urub qolibman, a? Ko'zingiz bilan ko'rdingizmi o'zi?"

Anzirat buvi: "Afsus vaqtim yo'qda bo'lmasam adabingni berardim"

G'aybulla: "Ey osmon qo'lingizda bo'lsa tashlab yuboring"

From the above example, it can be seen that Anzirat grandmother is not indifferent not only to her family's situation, but also to the life of her neighbors.

Translating "Suyunchi" into English presents a formidable task due to its rich cultural connotations deeply rooted in Uzbek society. Various translation strategies may be employed, ranging from direct translation to cultural adaptation, each with its own set of advantages and limitations. However, regardless of the approach taken, it is essential for translators to remain sensitive to the linguistic and cultural variations lied within "Suyunchi" to ensure an accurate and culturally resonant rendition in English. This study underscores the importance of understanding the linguocultural

complexities involved in translation, particularly when dealing with words that carry significant cultural significance like "Suyunchi".

References

1. Матасов Р.А. Перевод кино/видео материалов: лингвокультурологические и дидактические аспекты: диссертация. – М. МГУ, 2009.- 211 с.

2. Bywater, Tim, and Thomas Sobchack. Film Criticism. New York: Longman, 1989. – 170p.

3. Oktamovna, T. S. (2023). The Different Ways in Which Tenses, Person and Number Are Formed and Used in English Grammar. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, *1*(10), 310-314.

4. Temirova, M. (2024, February). THE CONCEPT OF" LINGUO-CULTUROLOGY" AND" LINGUO-MENTALITY" IN THE FIELD OF LINGUISTICS. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 132-134).

5. Sobirjonovna, S. M. (2023). TYPES OF PRONOUNS IN ENGLISH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *11*(4), 1039-1041.

6. Temirova, M., & Qodirova, M. (2021). LINGUOCULTURAL FEATURES OF CHILDREN'S POETRY (BASED ON ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES). *MUNDARIJA| TABLEOFCONTENTS| С О Д Е Р Ж А Н И Е*, *57*.

7. Sobirjonova, M. S. (2024). INGLIZ TILINI BOSHLANGICH SINFLAR KESIMIDA OQITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, *3*(4), 216-219.

8. Boboqulovna, A. D., Davronovna, M. M., & Muhammadiyevna, D. S. (2024, April). NON–LITERERY VOCABULARY OF THE ENGLISH LANGUAGE. In *Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference* (Vol. 7, pp. 62-65).

9. Amanova, O., Murodova, S., & Bo‘ronova, M. (2022). THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES AND METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Евразийский журнал академических исследований*, *2*(5), 927-930.

10. Davronovna, M. M., & Muhammadiyevna, D. S. (2024). THE PROBLEM OF STYLISTIC CLASSIFICATION OF VOCABULARY. *ILM-FAN*

TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY QARASHLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR, *14*, 12-15.

11. Sobirjonovna, S. M., & Oktamovna, T. S. (2023). ACTIVITIES FOR BEGINNER, INTERMEDIATE AND ADVANCED LEVEL LEARNERS. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, *21*, 241-245

MARKAZIY OSIYO TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA

Sanjar Hamrayev O‘ktam o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti Tarix va uni o‘qitish metodikasi Tarix fakulteti tarix ta’lim yo‘nalishi talabasi

Dunyoda sharqshunoslikka oid tadqiqotlarda ajdodlarimizning turli fan sohalariga bag‘ishlab yozilgan asarlari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur yozma yodgorliklar mintaqaning, shu jumladan, O‘zbekistonning o‘tmishi bilan birga, uning tabiati, yer-suv zaxiralari hamda foydali qazilmalari, qishloq xo‘jaligi tarixini o‘rganishda birlamchi manba vazifasini bajaradi. Qo‘lyozma manbalarni tadqiq etish O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy tarixi bilan birga iqlimi, etnik tarkibi va joy nomlarini o‘rganishda yangi ilmiy natijalar berishi shubhasiz[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni[2] hamda 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori[3] shuningdek, ushbu sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqolaning bugungi kunda dolzarbligiga xizmat qiladi.

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Markaziy Osiyo mintaqasining Temuriylar davri yozma manbalari va ularda keltirilgan ma’lumotlar keltirib o‘tiladi.

Ilmiy izlanishlarda Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha (N.E.Karimova, S.Murodi, K.Nolle-Karimi, A.M.Malikov)[4, 336], savdo yo‘llari yo‘nalishlari va tarixi (Yu.F.Buryakov, N.E.Karimova, O.Bo‘riev, A.Kolganov, O‘.M.Mavlonov, A.Xodjaev)[5, 186], davlat va ma’muriy boshqaruv tizimi (J.Vuds, I.Aka, X.Alan va boshq.), tarixiy toponimiya (H.Hasanov, S.Qoraev, T.Nafasov, A.Muhammadjonov, A.G.Malyavkin, X.A.Bo‘rieva, O.Bo‘riev), aholi maskanlarining lokalizatsiya masalalari (Yu.F.Buryakov, A.M.Beleniskiy va Sh.S.Kamoliddinov), ma’lum bir muammo bo‘yicha yozilgan ishlar (A.Muhammadjonov, S.Azimjonova, N.D.Xodjaeva), yozma manbalarni ilmiy muomalaga kiritish va ularning tarixshunosligi masalalari (A.Ahmedov, Sh.S.Kamoliddinov, A.O‘rinboev, O.Bo‘riev, N.Ibrohimov, P.G.Bulgakov, B.Ahmedov. D.Yu.Yusupova, A.Xo‘jaev, S.G‘ulomov), ayrim o‘rtaosiyolik olimlar ilmiy merosini ommalashtirish (H.Hasanov, B.Ahmedov, O.Bo‘riev), Markaziy Osiyo xalqlari etnik tarixini yoritish

(K.Shoniyozov, A.Aytbaev, O.Bo‘riev, K.Sh.Shoniyozov, A.Asqarov) kabi yo‘nalishlarda olimlar ilmiy ishlar olib borilgan.

Temuriylar davri yozma manbalariga tayanib o‘rganish fanda XIX asr ikkinchi yarmidan boshlangani ma’lum va ular ushbu muammoning ayrim qirralariga daxldor. V.V.Bartold tadqiqotlarida Markaziy Osiyoning suvlari, viloyatlari, shaharlari, xo‘jaligi, etnik holati, tarixiy obidalari, ayniqsa Amudaryoning XIV-XV asrlarda Kaspiy dengiziga quyilgani va Orol dengizining holati[6, 106], uning “Islom ensiklopediyasi” da chop qilgan maqolalarida Markaziy Osiyoning suvlari (Amudaryo, Orol dengizi, Balxash, Sirdaryo, Irtish, Issiqko‘l, Ili, Chag‘onrud), viloyatlari (Badaxshon, Bodg‘is, Farg‘ona, Turkiston, To‘horiston, Movarounnahr, Xorazm, Xuttal, Qorategin, Mang‘ishloq, Tibet),aholi maskanlari (Oqsaroy, Axsikat, Andijon, Banokat, Buxoro, Gurganj, Qarshi, Kesh, Koshg‘ar, Kot, Toshkent, Chimkent, Termiz, Turfon), etnik holati (dug‘lat, qipchoq, mang‘it, tojik, turkman) yoritilgan. Amir Temur saltanati tarixiga oid manbalardan G‘iyosiddin Alining “Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston” (“Hindiston muhorabasi kundaligi”) da Afg‘onistonning sharqiy (Kofiriston) qismining tabiati, savdo yo‘llari, suvlari, aholi maskanlari to‘g‘risida ma’lumot aks etgan. Amir Temurning hayotligida, bevosita uning topshirig‘i bilan yozilgan Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” va Hofizi Abruning mazkur asarga yozgan ilovasi - “Zayli Zafarnomai Shomiy”da, shuningdek, ushbu tarixchining Amir Temur va Mirzo Shohrux saltanati tarixini (1427-yilgacha) o‘z ichiga olgan “Zubdatat-tavorixi Boysung‘uriy” (826-830/1423-1427-yillarda yozilgan) va Sharafuddin Ali Yazdiy tomonidan Amir Temur saltanati tarixiga bag‘ishlangan eng mukammal tarixiy asar sanalmish “Zafarnoma”da (822 /1419-828/1424-1425-yillarda yozilgan) tarixiy voqealar bayonida Markaziy Osiyoning ma’muriy-hududiy va aholining etnik-hududiy holatlari, tabiiy geografiya va xo‘jalik geografiyasi, harbiy yurishlar yo‘nalishlari, davlatlararo elchilik va savdo aloqalari, savdo yo‘llari, bunyodkorlik ishlari haqida ma’lumotlar o‘rin olgan. Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining “Muqaddima” qismida Markaziy Osiyoning Chig‘atoy ulusi tarkibidagi ma’muriy-hududiy holati ham berilgan. Muiniddin Natanziyning “Muntaxab at-tavorix” (816/1413-yili yozilgan) asarida Chig‘atoy ulusi va Amir Temur saltanati tarixi bayonidan Markaziy Osiyo tarixiy gegrafiyasiga tegishli ayrim ma’lumotlar (ma’muriy-hududiy bo‘linish, toponimiya) olish mumkin. Temuriylar tarixiga oid manbalarda Markaziy Osiyoning XV asrdagi georafiyasiga tegishli ma’lumotlar mavjud. Ular Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorixi Boysung‘uriy” (1427-yilgacha), arab tarixchisi Ibn Arabshohning Amir Temurga bag‘ishlangan “Ajoyib al-maqdur fi-tarixi Taymur” (“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari", 1436-yili yozilgan),

Fasih Ahmad ibn Xavofiyning “Mujmali Fasihiy” (1441-yilda yozilgan), Mirzo Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus”, Abdurazzoq Samarqandiyning Markaziy Osiyoning 1430-1470 yillar oralig‘idagi tarixi o‘rin olgan “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” (872-875/1467-1470-yillarda yozilgan) [7, 634], Muiniddin Isfizoriyning Hirot shahrining 875/1470-1471-yilgacha tarixi va topografiyasi aks etgan “Ravzat ul-jannoti fiy avsofi madinati Hirot”, Muhammad ibn Xovandshoh Mirxondning “Ravzat as-safo” (umumiy tarixga oid asar, yetti jilddan iborat, oltinchi va yettinchi jildlarda Amir Temur va Temuriylar saltanati tarixi berilgan, 1467-yildan to 1523-yilgacha voqealar tarixchining nabirasi Xondamir tomonidan yozilgan), Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” (952/1546-yili yozib tugallangan, Markaziy Osiyoning XV-XVI asr birinchi choragi tarixi ancha mukammal) asarlarida qayd etilgan. Rui Gonsales de Klavixo. “Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi”. Klavixo Kastiliya (hozirgi Ispaniya)dan Amir Temur davlatiga Samarqandga elchi bo‘lib kelgan (1403-1406 yillar) va ko‘rgan-kechirganlarini kundalik tarzida yozib qoldirgan.

Markaziy Osiyo mintaqasi Temuriylar davri yozma manbalari asosida o‘rganish fanda XIX asr ikkinchi yarmidan boshlangan (shaharlar topografiyasi, savdo yo‘llari tarixi, tarixiy toponimiya, aholi maskanlari lokalizatsiyasi, etnik tarix va h.k.) va mavjud izlanishlarda muammoning ayrim qirralari yoritilgan. Tadqiqotchilar arxeologik materiallar va arab, fors, turkiy, xitoy tillarda yozilgan yozma manbalar ma’lumotlariga tayanganlar. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyoning Chig‘atoy ulusi, Amir Temur va Temuriylar davlati davrlaridagi ma’muriy - hududiy holati haqida ma’lumotlar mavjud.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bo‘riyev Omonulla. temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. ilmiy ma’ruza shaklidagi tarix fanlari doktori (DSs) dissertatsiyasi. toshkent – 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2017 y. 8 fevral, №28 (6722). – B.1.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2017 y. 25 may, №103 (6797). – B.1.

4. Karimova N.E. Chen Cheng manbalarida Markaziy Osiyo shaharlari // Sharqshunoslik. – Toshkent: Fan, 2002, №11. – B.66-73; Murodi S. Kabul v istoricheskix istochnikax. Avtoref. dis. kand ist. nauk. – ushanbe,

5. 2002; Nolle-Karimi Ch. The Pearl in its Midst: Herat and the Mapping of Khorasan from the Fifteenth to the Nineteenth Centuries. – Wien, 2014; Malikov A.M. Istoriya Samarkanda (s drevnix vremen do seredinы XIV veka). – Tashkent: Paradigma, 2017. – 336 s. va b.

6. Buryakov Yu.F. Torgovые puti i ix rol v urbanizatsii basseyna Yaksarta // Na sredneaziatskix trassax Velikogo Shelkovogo puti. – Tashkent: Fan, 1990. – S.106-116; Karimova N.E. Vzaimootnosheniya narodov Sentralnoy Azii i Kitaya v XIV-XVIIvv . (po materialam kitayskix istochnikov). – Tashkent, 2005. – 186 s.

7. Bartold V.V. Xafiz-i Abrui yego sochineniya. Sochineniya, t. VIII. – M., 1973. – S.74-97; Bartold V.V. Ocherk istorii Semirechya. Sochineniya, t.II, ch.1. – M., 1963. – S.21-106.

8. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa’dayn. II jild 3 qism. – B.634-640.

9. Qudratov, N., Xudoyorov, A., & Oltiyev, A. (2024). BUXORO AMIRLIGIDA SURXON VOHASIDAGI BEKLIKLARINING MA’MURIY TUZILISHI VA BOSHQARUV TIZMI. " Science Shine" International scientific journal, 15(1).

10. Abduraimova, C. (2024). XIX ASRNING OXIRI XX ASRNING BOSHLARIDA SHARQIY BUXORO BEKLIKLARIDA SOLIQ TIZIMI. Talqin va tadqiqotlar, (8 (45)).

11. Tojimurodovich, Q. N. (2023). Administrative Structure and Management System of the Becks in Surkhan Oasis. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 4(10), 87-92.

12. Tojimurodovich, Q. N. (2022). BUXORO AMIRLIGIDA SURXON VOHASI BEKLIKLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(9), 36-39.

13. NAMOZ, Q. (2022). THE HISTORY OF MADRASAH SAID OTALIQ. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(1), 10-13.

14. Tangrikulov, J. E. (2021). PRESS IN UZBEKISTAN: CLASSIFICATION OF POPULAR MAGAZINES AND NEWSPAPERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1451-1455.

15. Tangrikulov, J. E., & Rakhmatov, E. T. (2020). Cotton work. Work of Uzbek people" fiction: causes, consequences, results. ISJ Theoretical & Applied Science, 7(87), 70-73.

16. Tangrikulov, J. E. (2021). " Red terror" in uzbekistan in the 80s of the 20th century: Causes, results, consequences.

17. Oybek, P. I. (2022). In the Study of the History of Surkhandarya in the 30s of the XX Century, as a Historical Source. Eurasian Journal of History, Geography and Economics, 7, 100-102.

O‘ZBEK MILLIY SAN’AT – AMALIY BEZAK SAN’ATI

Maxmudjon Ubaydullayev Axmadjanovich
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati haqida tushuncha berilgan, amaliy bezak san’atining turlari haqida, amaliy san’atda bezak, naqsh bilan tasviriy san’atning bog‘liqligi haqida, amaliy san’atning paydo bo‘lishi va rivojlanishi haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: amaliy san’at, bezak, naqsh, shakl, asr, xom-ashyo.

Annotation: This article provides an understanding of visual art and applied decorative art, about the types of applied decorative art, about the connection between decorative art in applied art, pattern and visual art, about the emergence and development of applied art. stated.

Key words: applied art, decoration, pattern, form, century, raw materials.

Аннотация: В данной статье дается представление об изобразительном и декоративно-прикладном искусстве, о видах декоративно-прикладного искусства, о связи декоративного искусства в прикладном искусстве, узоре и изобразительном искусстве, о возникновении и развитии прикладного искусства.

Ключевые слова: прикладное искусство, декор, узор, форма, век, сырье.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib gullab yashnagan san’at turlari noyob va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, o‘zbek amaliy bezak san’ati turlarining shoh ildizlari insoniyatning bolaligi, ya’ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz. O‘lkamiz zaminidagi qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan va asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda.

Amaliy bezak san’ati – bezak san’ati sohasi hisoblanadi. Ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar,

taqinchoqlar, o‘yinchoqlar va boshqalar)ni badiiy ishlash bilan bog‘liq ijodiy mehnat sohalarini o‘z ichiga oladi.

Amaliy san’at asarlari ko‘z bilan ko‘rish, his etish va anglashga mo‘ljallangan. Amaliy san’at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go‘zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o‘zining ko‘rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta’sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmati bo‘lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom-ashyoning go‘zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko‘pligi amaliy san’atda estetik ta’sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir.

Narsalarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassamotida muhim rol o‘ynaydi. Xom ashyoning go‘zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta’sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir. Ta’sirchan mazmunli shakllar ko‘pincha taqlidan yaratilganda mazmuni ortadi.

Buyumda hosil bo‘layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta’sir etadi. Bezagi tufayli buyum amaliy san’at asariga aylanadi. Amaliy san’atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san’at (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qo‘llaniladi. Ba’zan naqsh yoki tasvir buyumlarni shakllantiruvchi asosga aylanadi (panjara guli, to‘r; gilam, mato gullari va hokazo). Amaliy san’at asarining uyg‘unligi avvalo badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o‘zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon bo‘ladi.

Bezakning shakl, tasvirning buyum ko‘lami va xususiyati, uning amaliy va badiiy vazifasi bilan uyg‘unlashtirishning zarurligi tasviriy bo‘laklarni o‘zgarishiga, talqinda shartlilikka va narsa qismlarini o‘xshatib yaratishga olib keladi. XIX asr 2-yarmidan ilmiy adabiyotlarda amaliy san’at asarlari foydalanilgan xom ashyosi (yog‘och, sopol, ganch, tosh, metall, suyak va boshqalar) va ijro usuli (bo‘yash, o‘yib-kesib ishlash, quyish, kashta tikish, to‘qish va boshqalar)ga qarab farqlana boshlandi. Bu esa o‘z navbatida buyumlarga ishlov berishni loyihalash (dizayn) va uni ishlab chiqarish bilan bog‘lanishi (badiiy sanoat)ga zamin yaratdi.

Amaliy san’atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizatsiya -ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o‘zbek milliy bezak san’atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo‘lganki, hozirda jahonga mashhur me’morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san’atlarning ajoyib darajada uyg‘unligidan va mujassamligidan iboratdir. Xalq amaliy bezak

san’ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq amaliy san’ati kishilarni badiiy axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Yaqin o‘tmishda o‘zbek amaliy bezak san’atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o‘ymakorligi – kandakorlik, pichoqchilik, bo‘yrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo‘zlik, gilamdo‘zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o‘ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san’atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu soxalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong‘i ketgan. O‘rta Osiyo naqqoshlik san’ati qadimdan dunyoga mashhur. O‘tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo‘qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda.

Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma’noni bildiradi. Qush, hayvon, o‘simlik, geometrik va boshqa shakllarni ma’lum tartibda takrorlanishidan xosil qilingan bezakdir. Islom talablariga bo‘ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo‘qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o‘zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo‘ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Naqqoshlik xalq amaliy bezak san’atning bir turi sifatida qadimdan o‘zbek madaniyatining muhim bo‘lagi hisoblanadi. Ko‘p asrlar mobaynida uning badiiy an’analari vujudga keldi. Naqshlarda san’atning boshqa hamma turlaridan farqi ravishda avlodlarning chambarchas bog‘liqgini, an’analarning davomiyligini ko‘rish mumkin. Naqqoshlik an’analari san’atning ana shu turini o‘rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o‘g‘ilga o‘tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqsh san’ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go‘zalligi bilan farqlanadi.

Bunda xalq ustalarining atrof muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar o‘yini musiqadagi ohang singari, qo‘shiq va ertak kabi “xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan” iborat bo‘ladi. Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg‘unligida va o‘ziga xos kompozisiyalarda go‘zallik yaratish san’atidir. Naqqosh usta o‘z ishida rangning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib erkin ifodalikka erishadi.

Hozirgi vaqtda maktablarda va maktabdan tashqari muassasalarda to‘garaklar tarmog‘ini iloji boricha kengaytirish vazifasi qo‘yilmoqda. Xalq naqqoshlik san’atini

o‘rganish insonlarda badiiy didni, mehnatsevarlikni rivojlantirishga va qator foydali bilim hamda malakalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Ularning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va o‘stirishga yordam beradi. Xalq amaliy san’atining qaysi bir turi bo‘lmasin uning zaminida naqsh elementlaridan to‘qilgan kompozisiya yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Axmetova A.S., Ismatullayeva M.Z.“Xalq hunarmandchiligi”.-T.: «Iqtisod-Moliya» 2009.

2. Bulatov S. “O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati”.-T.: «Mehnat» 1991.- 382 b.

3. Golovin N.N. “Kustarniye promisli Turkistana”.-T.: 1999.-98 b.

4. Zasipkin P.SH. “Mastera uzbekskogo zodchestva”.-T.: 1967.-132 s.

GRAMMAR-TRANSLATION METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE

Sokhiba Kholdarova Gulamjon kizi
Academic Lyceum under Namangan Institute of Engineering Technology
sohibahasanova25@gmail.com

Annotation. This article discusses easy ways to learn English grammar and translate. Grammar – translation classes are usually conducted in the students' nativa language. Grammatical rules are learned deductively; students learn grammar rules by rote, and then practice the rules by doing grammar drills and translating sentences to and from the target language. More attention is paid to the form of the sentences being translated than to their content. When students reach more advanced levels of achievement, they may translate entire texts from the target language. Tests often involve translating classical texts.

Key words: English language, article, grammar discusses, methods, classical language.

Аннотация. В этой статье обсуждаются простые способы изучения английской грамматики и перевода. Занятия по грамматике и переводу обычно проводятся на родном языке студентов. Грамматические правила изучаются дедуктивным путем; студенты изучают правила грамматики наизусть, а затем практикуют правила, выполняя грамматические упражнения и переводя предложения на целевой язык и с него. Больше внимания уделяется форме переводимых предложений, чем их содержанию. Когда студенты достигают более продвинутых уровней успеваемости, они могут переводить целые тексты с целевого языка. Тесты часто включают перевод классических текстов.

Ключевые слова: английский язык, статья, обсуждение грамматики, методы, классический язык.

The grammar translation method is a method of teaching foreign languages derived from the classical method Greek and Latin. In grammar-translation classes, students learn grammatical rules and then apply those rules by translating sentences between target language and the native language. The method has two main goals : to enable students to read and translate literature written in the target language , and to further students' general intellectual development . In this method of students learn much vocabulary in the form of lists. Student's should be taught in their mother

tongue. Method (GTM). Grammar Translation Method is a very traditional method. Grammar translation method was called the classical method since it was first used in the teaching of the classical language, Latin and Greek. The origin of this method lie in an attempt to teach languages by grammar and translation where the learners have to gather knowledge of foreign languages by studying a number of grammatical rules and applying these knowledge to the interpretation of texts with the use of a dictionary. Through the study of the grammar of target language, students would become more familiar with the grammar of their native language and that is familiarly would help them speak and write their native language better.[1] Memorization is amajor aspect of Grammar Transaction method. In GTM method the teacher gives something to memorize students and students have to memorize those consequently have to write.

As English teachers we are always on the lookout for effective and interesting ways to stimulate our language learners. Various teaching methods are aimed at this goal. The purpose of this report is to investigate the Translation Method that is widely used by a large number of teachers. This method is better known as the Grammar-Translation Method and considered to be a classical method of teaching English. The philosophy behind this method is that the foreign language can be taught or learn through translation. Here each phrase or sentence of English is taught by translating it into mother tongue. The Grammar-Translation Method instructs students in grammar and provides vocabulary with direct translations to memorize.

The Grammar-Translation Method derived from traditional approaches to the teaching of Latin and Greek and it was the predominant method in Europe in the 19th century. It was rather widespread for learning foreign languages, though by the end of the century moves towards the Direct Method were noticed.

The most relevant principles of this method can be summarized as follows:[2]

- It emphasizes the study and translation of the written language, as it is considered superior to spoken language.
- Reading and writing are the main language skills.
- The student's native language is the medium of instruction and used as well to compare with the language studied.
- The structural patterns of two languages are compared and this comparison makes learning more clear and firm.
- The fundamental principle of proceeding from known to unknown is followed throughout.

- Successful learners are those who translate each language into the other, though they cannot communicate orally.

- Students have to know verb conjugations and other grammatical paradigms.

- The knowledge of rules helps the learners to avoid any types of mistakes.

- Teachers play an authoritarian role in the classroom and the predominant interaction is between teacher-student.

The Grammar-Translation Method focuses on the teaching of the foreign language grammar through the presentation of rules together with some exceptions and lists of vocabulary translated into the mother tongue. Translation is considered to be the most important classroom activity.[3] The main procedure of an ordinary lesson follows this plan: a presentation of a grammatical rule followed by a list of vocabulary and, finally, translation exercises from selected texts.

Other activities and procedures can be the following: answering comprehension questions on the text; students find antonyms and synonyms words in the text; vocabulary is selected from the reading texts and memorized; sentences are formed using new words; fill-in-the-blank exercises; writing compositions on the topic.

This method has a number of advantages given below:

1. By telling the meaning of the word or sentence in mother tongue, the teacher can at once make the students understand.

2. The students are able to learn many items of English by comparison with mother tongue.

3. The comprehension of the students can be tested very easily.

4. Knowledge is acquired gradually, by traversing the facts of language and the syntactic mechanisms, going from simplest to the most complex.

5. Learning grammar, the students examine the texts developing awareness that language constitutes a system which can be analyzed.

There are some very obvious disadvantages of this method:

1. No account of present-day language usage is presented. Norms are imposed from the great literary authors.

2. Secondary grammatical points, lists of forms and examples receive a lot of attention; some definitions and explanations are often incoherent because of their heterogeneous criteria. Thus, facts about the language are confusing for the students.

3. It gives a predominant place to morphology but neglects syntax. Therefore, rules enabling the learners to construct systematically correct complex sentences are not presented.

4. Translations are often unsatisfactory as they are done word by word.

5. Students have to learn a lot of grammatical terms and too much weight falls on their memories. Frustration on the part of students and lack of demands on teachers are the effects of this method.

So, the teaching of grammar consists of a process of training in the language rules which must make it possible to all the students to express their opinion correctly, to understand the remarks which are addressed to them and to analyze the texts which they read. The objective is that by the time they leave college, the students control the tools of the language which are the vocabulary, grammar and the orthography, they are able to read, understand and write texts in various contexts. Unfortunately, this method gives little attention to listening and speaking skills, and the result is usually inability of some students to use the language for communication.

We find that this method has a few both merits and draw-backs. It can be successfully used at higher educational institutions for teaching foreign languages for professional communication, but it must be combined with other methods. We consider that the teachers should use a variety of methods to teach a second language as each student is unique and will respond well to a particular method. A good teacher should make use of the items that he or she has and the learning styles of the students. Adapting your style to your class can be an effective teaching method.

The Grammar-Translation method requires the learner to spend a lot of time understanding the language structure. Listening and speaking suffer because of this.

Understanding the structure is helpful in reading and particularly in writing. Grammar and vocabulary are emphasized throughout. This is the method of choice when the student’s goal is to achieve a high level of writing and reading ability in a foreign language, versus speaking and listening.

The Audio-Lingual Method also allows the learner to communicate quickly but within the limited range that the repetition allows. It improves comprehension only if the speaker uses phrases that the learner has studied. Reading is limited, and an understanding of how to use the language is very limited. This is the method that is used when a live trainer is not available. The Direct Method gives the student the ability to communicate quickly because it is encouraged to be creative during practice. It gives, by far, the widest range of capability to understand what another person says to you and in developing your capability to speak. [3] This is the method of choice for instruction with a live trainer and where speaking and listening are most important.

Many theories about the learning and teaching of languages have been proposed. These theories, normally influenced by developments in the fields of linguistics and

psychology, have inspired many approaches to the teaching of second and foreign languages.

As statistics shows the Direct Method remained steady in a high usage . As it is considered to be more effective than the others . Because it gives more effort to speaking and listening which are considered to be essential while learning the second language.

References:

1. Digumarti Bhaskara Rao. Methods of teaching English / Digumarti Bhaskara Rao. – New Deli: Discovery Publishing House. – 2007. – 302 p.

2. Ellis R. Understanding Second Language Acquisition / R. Ellis. – Oxford: Oxford University Press. – 1985. – 285 p.

3. Gray K. Syllabus design for the general class: what happens to theory when you apply it / K. Gray // FLT Journal. – 1990. – № 44/4. – P. 87–104.

TABLE OF CONTENTS

No	Article authors and topics	Pages
1	*EDUCATIONAL QUALITY MANAGEMENT: A PRACTICAL APPROACH* *Kamola Yunusova Shavkatovna*	*4-8*
2	*“POLIMERLER” TEMASIN OQITIWDA EKOLOGIYALIQ TÁLIMNIŃ AHMIYETI* *Elmira Abdisattarova Abdijamilovna* *Aynura Kudaybergenova Maksetbayevna* *Akmal Axmetov Ulugbekovich*	*9-11*
3	*XX ASR BIRINCHI YARMIDA AQSHDA AMALGA OSHIRILGAN AYRIM KONSTITUTSIYAVIY O‘ZGARISHLAR* *Bekzod Abdug‘aniyev Abduvali o‘g‘li*	*12-16*
4	*ГЕОЛОГИЧЕСКОЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ ЛИТИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ШАВАЗСАЙ)* *Маматкул Амиркулов Давир угли* *Исмоил Отаёров Собиржон угли* *Бобир Чинмирзаев Баходир угли*	*17-24*
5	*XORAZMNING ANTIK DAVRDA SAVDO-TIJORAT MASALALARIDA QURUQLIK VA SUV YO‘LLARI* *Donogul Narmetova Fayzulla qizi*	*25-28*
6	*ЗНАЧЕНИЕ МИКРОВОДОРОСЛЕЙ ДЛЯ РЫБНОГО ХОЗЯЙСТВА* *Мафтуна Хасанова Шукрулло қизи*	*29-34*
7	*TURLI XIL NAMUNALARDAN SUT ACHITUVCHI BAKTERIYALAR AJRATISH VA MALDI-TOF MS YORDAMIDA IDENTIFIKATSIYA QILISH* *Koziyev B.U.* *Elova N.A.*	*35-39*
8	*WEB SAYT INTERFEYSINI TASHKIL ETISHDA FIGMA DASTURINING AHAMIYATLI JIHATLARI*	*40-45*

	Mavzuna Karimova Xayrullo qizi *Asadbek Savbatov Farxod o'g'li*	
9	*MODERN METHODS OF TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN* *Shaxriza Sherqulova Fazliddinovna*	*46-49*
10	*ФИЗИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА И СПОРТ КАК СРЕДСТВО ВОСПИТАНИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ И МОРАЛЬНО-ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ* *Хамидов Р.У.*	*50-55*
11	*NEYROVASKULAR KONFLIKTNING MRT DIAGNOSTIKASI* *Muhayyo Allayorova Olimjon qizi*	*56-63*
12	*O'ZBEKISTONNING SIYOSIY TARAQQIYOTI* *Dilobar Karimboyeva To'rayevna*	*64-66*
13	*ПРОГРАММНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ, УПРАВЛЯЮЩЕЕ ПРОЦЕССОМ УЧЕТА ХРАНЕНИЯ ПРОДУКЦИИ НА СКЛАДЕ* *Толибжон Анарбоев*	*67-73*
14	*XOTIN-QIZLARGA NISBATAN JINSIY ZO'RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING SUBYEKTIV TOMON TAHLILI* *Xadichaxon Abdurasulova Ravshanbek qizi,*	*74-83*
15	*TERGOV SUDYASI INSTITUTINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI* *Sadoqat Xolmatova Salimjon qizi*	*84-90*
16	*FIZIKA FANINI O'QITISHDA MARKAZIY OSIYO OLIMLARINING ILMIY MEROSIDAN FOYDALANISH* *Zilola Joniqulova Baxriddin qizi*	*91-95*
17	*DEVORIY BEZAKLARDA ANIMALISTIK TASVIRLARNING AXAMIYATI* *Abdurazzaqov Sh. Sh.*	*96-99*
18	*TARIXIY JANRDAGI ASARLARNI YARATISHDA KOMPOZITSIYA QOIDALARIDAN FOYDALANISH*	*100-103*

	USULLARI *Yunusov A.Sh.*	
19	*TECHNOLOGY OF FORMING CRITICAL THINKING SKILLS THROUGH FAIRY TALES IN PRESCHOOLERS* *Madina Zokirjonova Iqboljon kizi*	*104-109*
20	*O'ZBEKISTON MADANIYATIDAGI TASVIRIY SAN'AT TARIXIY JANRDAGI ASARLARNI MOHIRONA AKS ETTIRISH QOIDALARI: TARIXIY JANRDAGI ASARLARNI YARATISHDA KOMPOZITSIYA* *Murotov B.A.*	*110-114*
21	*"ELEMENTLAR GAPIRADI" KIMYO O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI* *Abdullajonov To'lanboy Erkinboy o'g'li* *Jalolov Iqboljon Jamolovich*	*115-118*
22	*IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI* *Jo'rayeva Sh. R.*	*119-123*
23	*STABILITY AND CHIRALITY OF 4-VINYLAZETIDIN-2-ONE: A COMPUTATIONAL STUDY* *Mirjalol Mirzaolimov Muxammadjon o'g'li* *Iqbol Jalolov Jamolovich* *To'lanboy Abdullajonov Erkinboy o'g'li*	*124-126*
24	*IMPROVING INSTRUMENTS OF FINANCIAL POLICY OF THE STATE* *Mukhlisa Eshtemirova Utkirovna*	*127-132*
25	*ANTHROPOCENTRISM IN THE MASS MEDIA* *Bakhtiniso Ergasheva*	*133-140*
26	*ANJIR DARAXTINING GULLASHI, CHANGLANISH USULI HAQIDA MA'LUMOT: ANJIR ISTE'MOL QILISHDAGI SHUBHALAR O'RINLIMI?* *Lobar Xalilova Umarovna*	*141-143*
27	*FUQAROLIK PROTSESSIDA VAKILLIK MUNOSABATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI*	*144-148*

	Muzaffar Muxtorov Axrorjon o‘g‘li	
28	*ZOOPLANKTONLAR BILAN OZIQLANTIRILGAN BALIQ LICHINKALARINI KUZATISH* *Gulafruz Ne’matova Nasrulloyevna*	*149-152*
29	*PROFESSIANAL TA’LIMDA TIKUV BUYUMLARINI KOMPUYTERDA LOYIHALASH DASTURLARI ORQALI TIZIMNI TAKOMILLASHTIRISH* *Gulzodaxon Murodjonovna Teshaboyeva*	*153-156*
30	*NOTARIAT FAOLIYATIDA YUZ BERAYOTGAN HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI* *Doniyorbek Qalandarov Ulug‘bek o‘g‘li*	*157-160*
31	*TARIX FANINI INNOVATSION O‘QITISH ORQALI YOSHLARDAGI VATANPARVARLIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI* *Jahongir Yunusaliyev Ortiqbayevich*	*161-165*
32	*BUXORO AMIRLIGI DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI QUSHBEGI ARXIVI MISOLIDA* *Samandar Salimov Saydullo o‘g‘li*	*166-171*
33	*ЗАРДУШТ ШАХСИ ВА МАЪНАВИЙ ДУНЁСИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР* *Samandar Salimov Saydullo o‘g‘li*	*172-176*
34	*“YEVGENIY ONEGIN” SHE’RIY ROMANINI GENDER NUQTAI NAZARIDAN O‘RGANISH TAMOYILLARI* *Nargiza Jumaqulova Sunatulla qizi*	*177-183*
35	*DORIVOR ARPABODIYON PIMPINELLA ANISUM L O‘SIMLIGINI TURLI TUPROQ IQLIM SHAROITIDA UNUVCHANLIGI* *Ilyosjon Zahriddinov Ilhomjon o‘g‘li* *Oydina Abdulatipova Nozimjon qizi*	*184-191*
36	*ФРАКТАЛ РЕКУРСИВ АЛГОРИТМ АСОСИДА ВИЗУАЛ БАҲОЛАШ ТИЗИМИ* *Асқар Умрзоқов Абдуқаюмвич*	*192-197*
37	*ASOSIY EKIN SIFATIDA YETISHTIRILGAN MARJUMAK (FAGOPYRUM ESCULENTUM) O‘SIMLIGINING*	*198-202*

	FOTOSINTEz SOF MAHSULDORLIGI *Shopulatova Dilnoza Sheraliyevna* *O‘roqov Sirojiddin Xudoyberdiyevich*	
38	*AHMAD AL-FARG‘ONIY VA MIQYOSI NIL. FARG‘ONIYNING DUNYO GIDROLOGIYA FANIGA QO‘SHGAN HISSASI* *Baxtiyor Radjabov Sharipovich* *Adolat Darmonova Bahodir qizi*	*203-207*
39	*KASR TARTIBLI DIFFERENSIAL TENGLMALAR UCHUN TO‘RTINCHI TARTIBLI RUNGE-KUTTA METODI* *Mamajonova Robiyaxon Abduxalil qizi* *Shaxobiddin Karimov Tuychiboyevich*	*208-215*
40	*“HUSN-U DIL” DOSTONINING TIMSOLLAR OLAMI* *Gulchehra Shukurova Alisher qizi*	*216-222*
41	*LINGUOCULTURAL ASPECT OF TRANSLATING “SUYUNCHI” INTO ENGLISH* *Rustam Maxsumov Maxamadiyevich*	*223-227*
42	*MARKAZIY OSIYO TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA* *Sanjar Hamrayev O‘ktam o‘g‘li*	*228-232*
43	*O‘ZBEK MILLIY SAN’AT – AMALIY BEZAK SAN’ATI* *Maxmudjon Ubaydullayev Axmadjanovich*	*233-236*
44	*GRAMMAR-TRANSLATION METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE* *Sokhiba Kholdarova Gulomjon kizi*	*237-241*

ESLATMA!
“SCIENCE SHINE” xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan ma’lumotlar va dalillarni haqqoniy va keltirilgan iqtiboslarni to‘g‘riligi hamda aniqligi uchun shaxsan mualliflar javobgardirlar!

NOTE!
The authors are personally responsible for the truthfulness of the information and evidence included in the international scientific journal "SCIENCE SHINE" and the correctness and accuracy of the quotations!

International scientific journal

SCIENCE SHINE

Issue 17
31. 05. 2024

©Pages: 247
©Republic of Uzbekistan
©http://science-shine.uz/

ISSN: 3030-377X